Mumtoz adabiyotimizdagi tarixiy asarlarning lingvopoetik xususiyatlari haqida so‘z ketar ekan, bevosita XIX asr boshlarida yozila boshlagan Munis qalamiga mansub “Firdavs-ul-iqbol” asari hamda XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan Ogahiy tarixiy asarlari, xususan “Riyoz-ud-davla”ni tadqiqot doirasiga tortdik.

“Firdavs-ul-iqbol” asari tuzilishi bo‘yicha sulolaviy tarixnavislikning yorqin namunasidir. Munis o‘zidan oldingi turkiy tarixnavislarning uslubidan farqli ravishda o‘z asarida jimjimali ifodalar, nasrda ham musajja’dan serunum va o‘rinli foydalangan. Bu yerda uni fors yoki arab tarixnavislik uslublariga taqlid qilgan desa bo‘ladi. Lekin bu yerda ham u turkiy-o‘zbek tilining imkoniyatlarini yana bir marta ko‘rsatishga harakat qilgani ma’lum.<sup>1</sup>

Ogahiyning tarixiy asarlari o‘zbek tarixiy va badiiy nasrining, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmida eski o‘zbek tilida bitilgan so‘nggi, o‘ziga xos noyob namunasi ekanligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan ushbu ikki asarda qo‘llanilgan lingvopoetik birliklarning umumiylik piravordida eski o‘zbek tilining turli sathlar doirasida bor imkoniyatlarini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Ogahiy ijodida ustoz-salaflar uslubidan ilhomlanish, an’anaviylikning o‘rnini, qisqacha qilib aytganda, uning tarixiy asarlari lingvoestetikasi manbalarini o‘rganishimiz mumkin.

Munisning “Firdavs-ul-iqbol” hamda Ogahiyning “Riyoz-ud-davla” asarlarining tuzilishi, yozilish uslubi, voqealar bayoni usuli, asardagi badiiy poetik vositalarning qo‘llanilishi qiyoslab o‘rganilganda, o‘zaro o‘xshashliklar va o‘ziga xosliklarni uchratish mumkin.

<sup>1</sup> Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi f.f.d. A.O‘rozboyev. –Urganch: Quvonchbek-Mashxura, 2020. –B. 11-bet.



Birinchiidan, har ikki asar muqaddimasi baroati istihlol san'atiga asoslangan, ya'ni asar boshida mualliflar kitobxonga asarning mazmun mohiyatiga ishora qilish bilan boshlagan. Asarlar tili murakkab, arabiy va forsiy o'zlashmalardan unumli foydalanilganligi ularning xos kishilar, ya'ni ziyolilar uchun mo'ljallab yozilganligini bildiradi. Ogahiy "Riyoz-ud-davla" asari ibtidosida Munisning "Firdavs-ul-iqbol" asari muqaddimasidagi kabi o'zining falsafiy qarashlariga ijtimoiy-siyosiy mazmun beradi va ushbu san'atdan mohirona foydalanadi.

Ikkinchiidan, ushbu asarlarda o'z davri adabiy-badiiy an'analari talabiga ko'ra, saj' san'atiga keng o'rin berilgan. Ayniqsa, bu asarlarning an'anaviy kirish qismida yaqqol ko'zga tashlanadi, tasavvur hosil bo'lishi uchun "Riyoz-ud-davla" muqaddimasidan bir parcha keltiramiz: "*Jahonbonlig' mahomining nigini **intizomi** va hukmronlig' nizomining sarrishtayi **ihimomi** ul podshohi adimu-l-ishtibohning **qabzayi iqtidor** va **sarpanjayi ixtiyor**ig'a mahkam-u musallamdurkim, sipehri nilgunning ayvoni **rif'atbuyoni** aning binoyi san'atidin **mutarrah** va rub'i maskunning fazoyi **vus'atnishoni** aning me'mori qudratidin **musattahdur**"*.<sup>1</sup>

Kuzatganingizdek, Ogahiy asarida qo'llanilgan saj' namunalari original va murakkab tuzilishga ega. Unda saj'ning bir necha turlari, jumladan saj'i mutavoziy (to'liq saj') qo'llanilgan. To'liq saj' – bir yoki bir necha gaplar tarkibidagi ayrim bo'laklar ham vaznda, ham harfi raviyda mos bo'ladi.<sup>2</sup> Ogahiy bu tur saj'lardan asarda qo'llanilish o'rniga ko'ra ikki xil - ichki va tashqi turidan ham unumli foydalangan. Yuqoridagi parchada saj'lanuvchi so'zlar: *intizom-ihimom, qabzayi iqtidor-sarpanjayi ixtiyor, rif'atbuyoni-vas'atnishoni, mutarrah-musattah*.

Endi saj'ning qo'llanilishini Munis asari muqaddimasida ko'rib o'tsak: *Oliymaqom sultonlarning **dabdabayi hashamati** va garduntovon xoqonlarning **kavkabayi davlati** ul podshohi alalitloqning qullug'i bilan intizom toparkim, olami nosut aning borgohi saltanati ollida bir qazoyi **muhaqqardur** va fazoyi malakut dargohi azamatidin bir sahni **muqassar***.

Keltirilgan parchada ham saj'ning mutavoziy turi qo'llanilgan bo'lib, saj'lanuvchi so'zlar ham vaznda, ham raviyda o'zaro bir-biriga mos keladi. Saj'lanuvchi so'zlar: *dabdabayi hashamati-kavkabayi davlati, muhaqqar-muqassar*.

Uchinchiidan, asarda ritmik-sintaktik parallelizmlarni vujudga keltiruvchi omillardan biri saj'dir. Ma'lumki, saj' ritmik funksiya ham bajaradi. Bu funksiyaga ko'ra saj' qo'llanilgan har qanday nasriy gaplar bir necha ritmik bo'laklarga bo'linib ketadi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> رياض الدولة O'zR FA Sharqshunoslik instituti. 5364 / II. 246<sup>a</sup>.

<sup>2</sup> Sarimsoqov B. Saj' va qofiya // O'zbek tili va adabiyoti. 1972. №1. 19-b.

<sup>3</sup> Sarimsoqov B. Saj' va qofiya // O'zbek tili va adabiyoti. 1972. №1. 78-b.

Yuqorida keltirilgan har ikki misol ritmik-sintaktik parallelizmning yorqin namunasidir. Ritmik-sintaktik parallelizm da ikki yoki undan ortiq motiv teng va o‘xshash sintaktik birliklar orqali ifodalanadi. Va bu tenglik chegarasi saj’lar yoki takrorlar orqali ajralib turadi, shu orqali ohangdoshlik hamda nisbiy hamvaznlik yuzaga kelmoqda. Yuqorida keltirilgan parcha tahlili orqali fikrimizni dalilllasak:

1. *Jahonbonlig‘ mahomining nigini intizomi* –Jahonni tutishdek muhim ishlarning intizom nigini;
2. *Hukmronlig‘ nizomining sarrishtayi ihtimomi* –Hukmronlik nizomining sa’y-harakatlari tizgini;

Birinchi ikki motiv va ritmik-sintaktik parallelizm

3. *Sipehri nilgunning ayvoni rif‘atbuyoni*- Ko‘m-ko‘k osmonning yuksak ayvoni; aning binoyi san‘atidin *mutarrah*-uning binokorlik san‘ati bilan tarhi chizilmish
4. *Rub‘i maskunning fazoyi vus‘atnishoni*- butun yer yuzining keng fazosi; aning me‘mori qudratidin *musattahdur*- uning me‘morlik qudrati bilan tekislangan

Ikkinchi ikki motiv va ritmik-sintaktik parallelizm.

Ogahiy asaridagi ritmik-sintaktik parallelizm Munisning “Firdavsul-iqbol” asari ritmikasi, badiiy poetikasidan ilhomlanib yuzaga kelgani shubhasiz. Munis asaridagi ritmik-sintaktik parallelizm quyidagicha:

1. *Oliymaqom sultonlarning dabdabayi hashamati*-
2. *Garduntovon xoqonlarning kavkabayi davlati*  
*ul podshohi alalitloqning qullug‘i bilan intizom toparkim,*

Birinchi ikki motiv va ritmik-sintaktik parallelizm

3. *Olami nosut aning borgohi saltanati ollida bir qazoyi muhaqqardur*
4. *Fazoyi malakut dargohi azamatidin bir sahni muqassar.*

Ikkinchi ikki motiv va ritmik-sintaktik parallelizm.

Har ikki asarda ba‘zan bir necha gaplar yoki bo‘laklar bir xil ohangda o‘qiladi va ohangdagi bunday bir xillik intonatsion parallelizmni ham yuzaga keltiradi.

To‘rtinchidan, “Riyoz-ud-davla” asarida Ogahiy tarse’ san‘atidan unumli foydalangan: *Jahonbonlig‘ mahomining nigini intizomi- hukmronlig‘ nizomining sarishtayi ihtimomi, sipehri nilgunning ayvoni rif‘atbuyoni- rub‘i maskunning fazoyi vus‘atnishoni, malo‘u-l-a‘lo soyirlar aning itoati futuhotidin bahramand-jarmi g‘abro sokinlari aning itoati fuyuzotidin halovatpayvand, xurshidi duraxshon bir lam‘ayi nopadiddir bayzoyi hikmatidin – muhiti bekaron bir qatrayi nomufiddur daryoyi qudratidin, vahdat-u kasrat azamati gulistonidin shabname – hayulo va suvrat hikmati ummonidin bir name.*

“Firdavsul-iqbol”ning Munis yozgan qismida ham, xususan muqaddimasida tarse’ga keng o‘rin berilgan: *Oliymaqom sultonlarning dabdabayi hashamati-*

*garduntovon xoqonlarning kavkabayi davlati, olami nosut-fazoyi malakut, borgohi saltanat-dargohi azamat, qazoyi muhaqqar-sahni muqassar, ma'murayi kavnu makon-olami arvoah va obdon, zobitayi qudratidin mazbut- robitayi hikmatidin marbut.*

Beshinchidan, “Riyoz-ud-davla”da: *qabzayi iqtidor va sarpanjayi ixtiyor, mahobati tamom va salobati lokalom, torak muboraki, nuri komilu-s-sururi, huzuri maymanatvuturi, inoyoti makrumatoyoti, zamiri muniri, masrur-u sohilsurur, fuzaloyi zamon va shuroyi davron, faridi zamon va nodirayi davron;*

“Firdavs-ul-iqbol”da: *bidoyat va nihoyat, oftobi jahontob, atrof va aknof, masnu'ot va maxluqot, sinoni jonsitoni, miqrozi inqiroz, rahmat-marhamati, xil'ati davlat, harakot va suknot, davlat va hashamat, avsofi farovon va sitoyishi bepayon va boshqa ko'plab misollar orqali izdivoj san'atidan keng foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Lafziy go'zalliklar jumlasiga kiruvchi izdivoj san'ati asarda ikki yoki undan ortiq qofiyadosh so'zni yonma-yon yoki bir-biriga yaqin qilib keltirishdan iborat.<sup>1</sup> Yuqorida keltirilgan misollarni asar davomida ko'plab keltirish mumkin, izdivoj san'atidan bunday unumli foydalanish Ogahiy ijodiga hazrat Navoiy, Munis asarlari ta'sida kirib kelgan va narsiy asarda ham ohangdorlikni izdivoj san'ati orqali ta'minlash muallifdan yuksak mahoratni talab qiladi.*

Oltinchidan, Ogahiy “Riyoz-ud-davla”da: *xurshidi duraxshon-lam'ayi nopadid, bekaron-qatrayi nomufid, vahdat-kasrat, mamlakatdorlig'-xorlig', o'jiznavoz-takaburgudoz, xarob-u munhadam - noyob-u munadam, gumroh-hodiy, illat-tabib va shu kabi bir qator misollarni o'zaro bir-biriga zidlab qiyoslash orqali ekspressiv ta'sirchanlikni ya'nada oshirgan hamda tazod san'atining go'zal namunalari yaratgan. Qiyoslanayotgan ikki motiv o'zaro bir-biriga zid qo'yish va asvarda bunday uslubdan keng foydalanish orqali emotsional ta'sirni kuchaytirishni “Firdavs-ul-iqbol”ning Munis yozgan qismida ham kuzatishimiz mumkin: *olami nosut-qazoyi muhaqqar, fazoyi malakut-sahni muqassar, hudusu qidam-gavhari nosufta, vujud-adam, ma'murayi kavnu makon-olami arvoah va obdon, bidoyat-nihoyat, bekaron-sohili zuhur, jaloliyat-mazillat, notiq-alkan va abkam, mabda-muntaxiy, biym-taxavvurparvar, xoriston-gulshan.**

Yettinchidan, *podshoh-hukmron-sulton-davlat-afsar, futuhot-fuyuzot, intizom-nizmo, qabza-sarpanja, sipehr-ayvon-nilgun-fazo-rub'i maskun, me'mor-bino, maloyik-xalifa, rishta-silk, tuhafot-tansuqot, tahiyyot-salovat, vofira-mutahosira, ravza-maqbara, taxt-toj, risolat-nubuvvat, mushrik-kuffor-butxona, sinon-muboriz-livo* kabi tanosiblar silsilasi “Riyozu-d-davla” da qo'llanilgan bo'lsa, Munis o'z asarida: *fukdon-adam, sipexr-shamsa-kavokibi savobit va sayyor-sahob; tig'-niyom-*

<sup>1</sup> Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarfalam, 2006. 44-b.

*nusrat, torak-ilkili murassa'; ashg'olot-g'ubor; zamoir-qulub, farxundayot-xo'jastasimot, surma-g'oz* kabi yuzlab tanosibning go'zal namunalarini yaratgan.

Sakkizinchidan, "Riyoz-ud-davla"da: *intizom-nizom, qudrat-iqtidor; molik-mulk, hakim-hikmat, xalifa-xilofat, tamom-itmom, anvor-munavvar* kabi o'zakdosh birliklarni qo'llash orqali ishtiyoq san'ati yuzaga kelgan. "Firdavs-ul-iqbol"da quyidagicha: *robita-marbut, zobita-mazbut, zuhur-mazohir-zohir, qodir-qudrat, hakim-hikmat* kabilar ushbu san'atning go'zal namunalarini yaratgan.

Munisning "Firdavs-ul-iqbol" hamda Ogahiyning "Riyoz-ud-davla" asaridan olingan mikromatnlarning umumiy tarzdagi lingvopoetik talqini Ogahiy leksik resurslar imkoniyatidan yuqori darajada foydanganligi ko'rsatadi. Bu esa muarrixning badiiy mahorati yuksakligini, o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari asosida yaratilgan benazir uslubini namoyon qila oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi f.f.d. A.O'rozboyev. –Urganch: Quvonchbek-Mashxura, 2020. –B. 11 bet.
2. رياض الدولة O'ZR FA Sharqshunoslik instituti. 5364 / II. 246<sup>a</sup>.
3. Sarimsoqov B. Saj' va qofiya // O'zbek tili va adabiyoti. 1972. №1. 19-b.
4. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarfalam, 2006. 44-b.
5. G'anixo'jayev F. Ogahiy asarlari tavsifi (katalog). – Toshkent, 1986.

## OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA TAJNISI MUHARRAF VA SAJ' HOSIL QILISHDA LUG'AVIY IMKONIYATLAR

**Q.Yusupova**, doktorant

**A.O'rozboyev**, filologiya fanlari doktori;

Ogahiy tarixiy asarlari ayni paytda badiiy yo'sinda asar ekanini unda o'zbek mumtoz poetikasining eng go'zal namunalari mavjudligi ham ko'rsatadi.

Shulardan biri *tajnisi muharraf* – harfiy tajnis hosil qilish. Bunda jumlada qo'llanilgan so'zlar asos harflar e'tibori bilan shakldosh bo'lib, harakatlar va nuqtalar miqdori kabi jihatdan farqlanadi. Masalan, *usrat* تشسع (qiyinchilik) va *ishrat* تششع so'zlari harakatlari va nuqtalar miqdori bilan farq qilib, asos harflari bir bir xil: —Masrat qonunining avtori hasrat zaxmasidin uzulub, *ishrat* shohidining suvrati *usrat* kisvatida pinhon bo'ldi". (RD, 247<sup>b</sup>) E'tibor qaratsak, ushbu parchada bundan tashqari bir necha badiiy san'at namunasi mavjud. Jumladagi *masrat*, *hasrat*, *ishrat*, *suvrat*, *usrat*, *kisvat* so'zlari qofiyadoshligi ichki ohangdoshlikni ta'minlagan bo'lsa, *qonun*, *avtor* so'zlari musiqa terminlari sifatida; *hasrat*, *zaxma* tibbiyot atamallari sifatida tanosubni, *suvrat*, *kisvat* zidligi tazodni hosil qilmoqda.

Ogahiy tarixiy asarlari lug'at fondi boyishida saj' san'atining ham o'rni katta.

Saj', uning turlari, xususiyatlari haqida mumtoz adabiyotshunoslikda mufassal ma'lumot berilgan<sup>1</sup>. O'zbek va fors-tojik adabiyotshunoslari tomonidan ushbu asarlar mumtoz adiblar ijodiyoti misolida keng o'rganilgan<sup>2</sup>. Saj' san'ati o'zbek nasrining qadimgi namunalaridan, poetik imkoniyatlaridan ekaninin qadimgi turkiy bitiklardayoq ko'ramiz. N.Rahmonov yozganidek, "Yodnomada saj' va leksik takrorlar vositasida vaznli nasrning yuzaga kelish xususiyatlari bilan keyingi davrdagi – XV asrdagi prozaga xos umumiy xususiyatlarga ega ekanligi ko'rinadi"<sup>3</sup>.

Nazariy manbalar saj' musammatning shakllanish va rivojlanishida ham ma'lum o'rin tutganini ko'rsatadi. "Lug'atnomai Dehxudolda —*musammat*" so'zi adabiy

<sup>1</sup> Рашидиддин Ватвот. Хадойику-с-сехр... – М.: 1983.; Вахид Табризий. Джамъ-и Мухтасар. Критический текст, перевод и примечания А.К.Бертельса. – М., Издательство Восточной литературы, 1959. – С. 59.; Атоуллох Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. Форс тилидан Алибек Рустамов таржимаси. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 62-66.

<sup>2</sup> Саримсоков Б. Сажъ // Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Zarqalam, 2006. – Б. 50-56.; Раҳмонов В. Бадий санъатлар. 1976.; Ҳодизода Р., Шукуров М., Жабборов Т. Луғати истилохоти адабиётшуноси. – Душанбе. 1964. – С. 95.; Зеҳни Т. Санъати сухан. – Душанбе. 1967. – С. 156.; Мусулмонқулов Р. Сажъ ва сайри тарихии он насри тоҷик. – Душанбе. 1970.

<sup>3</sup> Раҳмонов Н. Култегин ёдномасининг поэтикаси // Қадимият обидалари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.

termin sifatida ikki xil izohlangan: 1. To‘rt qismga bo‘linadigan va dastlabki uch qismda shoir *sajga*<sup>1</sup>rioya qiladigan hamda to‘rtinchisida qofiyalanib keladigan *musajja*’ she’r. O‘zbek nasrida saj’ning xususiyatlarini puxta o‘rgangan B.Sarimsoqov “saj’ va qofiya aynan bir narsa, “nasrda saj’ – nazmda qofiya” yoki “saj’ – qofiyali proza” kabi fikrlar, bizningcha, u qadar to‘g‘ri bo‘lmasa kerak” – xulosaga keladi.

Ogahiy tarixiy asarlarida saj’ning quyidagi turlar ko‘proq ishlatilgan:

1. Saj’i mutavoziy. “To‘liq saj’” ma’nosini bildiruvchi saj’ning bu turida o‘zaro saj’lanayotgan so‘zlar ham vaznda, ham raviyda bir-birlari bilan mos keladi. Asarda bunday saj’lanish miqdor jihatidan ko‘pchilikni tashkil qiladi.

2. Saj’i mutarraf, ya’ni “qofiyadosh saj’”. Bunda qofiyalanuvchi so‘zlar o‘lchovi mos bo‘lmasa ham, raviyda bir-birlariga mutobiq keladilar. Jumladan, “Riyozi-d-davla”da o‘qiyamiz: “bu xonadoni davlatnishop nisbatida dami musodaqat urub, *murasaloti ixlosmazmun* va *makotibi muhabbatmaqrun* irsoli bilan nekhoh va do‘stdorlig‘ marosimin zuhurg‘a yetkurur erdilar...” (RD, 246<sup>a</sup>). Bunday ifoda yo‘sinini Munis va Ogahiyning tarixiy asarlariga xosligini, deylik, “Firdavsul-iqbol”da ko‘p qo‘llanilgan “Va har lahza tarafayn mathurlari qonidin maydoni korzor lolazor hay’atin oshkor qilib, duxoni ajali tuli amalg‘a *xandon* va diydayi jahon maqtullar holig‘a *giryon* bo‘lur erdi.” (FI, 538<sup>b</sup>) qolipidagi ifodalarni yodga soladi. Masalan, quyidagi parchalarda qayd etilgan nazariy ma’lumotlar tasdig‘ini topishimiz mumkin: “Bu nusxayi parishonning ta’lifu tarkibinkim, kamoli g‘ayratdin da’vo qilibmen, ixtomi husulidin zamiri miskinimni xurramu *barumand qil* va bu maydoni bekaronning azmu qat’inkim, zimmayi himmatimg‘a lozim bilibmen, intihosi vusulidin xotiri g‘amginimni shod-u *xursand qil*. Har iborat gavharinkim, g‘ayb xazonasidin chiqarib, huzur rishtasig‘a teribman, xaloyiq tab’ig‘a matbu’-u *marg‘ub et* va har ma’ni arusinkim, alfozi gunogun zevari bila zeb-u ziyat beribmen, xavos-u avom ko‘ngliga mahbub-u *matlub et*. (JVS, 4<sup>a</sup>) Yoki “*Masrat* qonunining avtori hasrat zaxmasidin uzulub, *ishrat* shohidining suvrati usrat kisvatida pinhon bo‘ldi. A’laddavom avqotguzarlig‘ masolihi mazore’ida tafakkur mahsuloti *zoye*’ va nomusdorlig‘ shomiti hunar-u fazilat iktisobig‘a *mone*’ bo‘ldi. Ne ko‘nglumda jahon havodisidin jam’iyat asari paydo va ne tab’imda zamon navoyibidin amniyat xabari huvaydo; g‘am xaylining sinonrezligidin farqi rohatim yoruq, alam saylining to‘fonxezligidin kulbayi ehzonim yiquq”. (RD, 247<sup>b</sup>)

<sup>1</sup> Саримсоқов Б. Сажъ ва қофия // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972. №1. – Б. 78.

3. Saj'i mutavozin "qofiyalanmagan saj". O'lchovi bir-biriga mos kelgan bo'lsa ham, qofiyalanmagan so'zlarning saj'lanishini ifoda etadi: Masalan, "Qodirekim, qudrati komilasi bila adami daryoyi bekaronidin javohiri vujudkim, iborati mavjudotdindur, sohili zuhurg'a *chiqarur* va mavjudot korvonidin manozili fuqdong'akim, murodi adam sahrosidur, *boshqarur*". (FI) yoki "Kuffori shaqovatanjom muborizlarining taharrurparvar ko'ngillari payvasta *siniqdur* sinoni salobatidin va ubdayi asnom bahodirlarining sharoratasar boshlari hamisha *yoruqdur* hisomi shijoatidin". (JVS, 5<sup>a</sup>)

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ayrim o'rinlardagi jummalarda saj'ning turli navlari aralash holda ham ishlatilgan: "Har *sohibdavlatekim*, alar mehr-u muhabbatig'a ko'ngul bo'ston saroyin manzil *etti*, kamoli din talabida murodu maqsad *sarhadig'a etti* va har *tiyrafitratekim*, alarning bug'zu a'do *o'tig'a jur'at ko'rguzdi*, iymon dorulamonig'a kirmakdin *ko'ngil uzd*" (JVS, 6<sup>a</sup>)

Ushbu iqtibosda to'rt saj'lanuvchi qism mavjud: *sohibdavlatekim* – *tiyrafitratekim*; *etti* – *etti*; *jur'at ko'rguzdi* – *ko'ngul uzdi*; *sarhadig'a* – *o'tig'a*. Ularning birinchi, ikkinchi, uchinchi saj'lanuvchilari mutavoziy (ham vazn, ham qofiyada moslashuvchi); to'rtinchi vaznda ham mos emas, ham och qofiyani tashkil etadi.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi, xususan, kirish qismlar, lirik chekinishlar, kiritma o'rinlarda saj'ning go'zal namunalarini yaratilgan. Buni birgina misol orqali ham ko'rishimiz mumkin: "*arbohi donishu ashobi binishga* ajz tilining shikasta maqollog'i bila mundoq arzi hol qilurkim, charxi sitamkorning *g'addor-u badkirdorlig'i* va *jahoni nopoydorning badkoru jafoshiorlig'idin* shabob avoyilining *ovoni tarabnishonikim*, umrim gulistonining bahori *fayzafshoni erdi*, ro'zgor taalluqoti ibtilosining sarsari burudatasari muloqotidin mahzunliq xazonig'a tabdil va yigitlik ibtidosining *zamoni ishrattav'omonikim*, hayotim shabistonining *furuzoni erdi*, dahri bemador tasrifotining istilosining tundbodi to'fonnihodi ofotidin mag'munliq dog'i hirmonig'a tahvil topdi". (RD, 247<sup>b</sup>)

Ogahiy tarixiy asarlarida saj'ning yetakchi san'at, asosiy badiiy ifodaga aylanish ildizlarini, birinchi navbatda, xalq og'zaki ijodi namunalarida shakllangan asriy an'analar, ikkinchi navbatda, Munis va Ogahiy o'zlari tarjima qilgan fors tilidagi tarixiy solnomalar uslubi, uchinchi navbatda, muarrixlarning real voqealarga badiiy tus berish mahorati bilan bog'lanadi.

Qayd etilganlar Ogahiy tarixiy asarlari tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari tutashligida alohida tadqiqot obyektlari ekanini, ularni puxta o'rganish lingvokulturologiya, lingvoestetika, lingvopoetika sohalari rivojiga muhim hissa bo'la olishini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan manbalar:

FI – Shir Muhmmad Mirab Munis and Myhmmad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J. Brill–Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988.

RD – ضأس نذنا O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. №5364/II. 246<sup>a</sup>-364<sup>a</sup>-varaqlar.

ZT – ةذبر خأسا O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 821/ III. 386<sup>a</sup>-435<sup>a</sup>-varaqlar.

GD – شيگ جند O‘z RFA Sharqshunoslik instituti, №7572.



## OLIIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARDA HUQUQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

**Mamazova Zarifa Kurbanovna**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini sifat bosqichini yanada rivojlanishining hozirgi bosqichida oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari uchun malaka talablari kredit-modul tizimiga o'tib keskin o'zgardi.*

*Ta'lim jarayonining natijasi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasiga ega bo'lgan kasbiy faoliyat sub'yektining rivojlanishidir. Oliy ta'limining davlat ta'lim standartlari ma'lum darajadagi huquqiy malakaga ega bo'lgan bitiruvchini tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zi:** ta'lim, kasbiy faoliyat, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy kompetensiya, kasbiy xulq-atvor, kognitiv (kognitiv), xulq-atvor, kommunikativ.*

## ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация:** В данной статье в дальнейшем развитии качества системы высшего образования в Узбекистане высокие квалификационные требования к выпускнику программы высшего образования были изменены на систему кредит-модель.*

*Результатом образовательного процесса является освоение комплекса профессиональной деятельности с совокупностью знаний, навыков и компетенций. Государственный образовательный реестр высшего образования повышает вероятность нахождения выпускника с определенным уровнем юридической квалификации.*

***Ключевое слово:** образование, социальная активность, физическая культура, физическое сознание, физическая компетентность, физическое поведение, когнитивное (познавательное), поведение, коммуникативное.*

## THE PROCESS OF FORMATION OF SCIENTIFIC COMPETENCE AMONG STUDENTS IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION

*Annotation:* In this article, in the further development of the quality of the higher education system in Uzbekistan, the high qualification requirements for a graduate of a higher education program were changed to the kcredit-model system.

The result of the educational process is the development of a complex of professional activities with a set of knowledge, skills and competencies. The public higher education register increases the likelihood of finding a graduate with a certain level of legal qualification.

**Keywords:** education, professional activity, physical culture, physical consciousness, physical competence, physical behavior, cognitive (cognitive), behavior, communicative.

### KIRISH.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini sifat bosqichini yanada rivojlanishining hozirgi bosqichida oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilari uchun malaka talablari kredit-modul tizimiga o‘tib keskin o‘zgardi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.09.2021 yildagi 606-son qaroriga muvofiq, oliy ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvga e’tibor qaratilmoqda. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini yagona xorij ta’lim makoniga integrasiya qilish tendensiyasi va tajribasi bilan bog‘liq holda olib borish yo‘lga qo‘yildi. Ta’lim jarayonining natijasi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasiga ega bo‘lgan kasbiy faoliyat sub’yektining rivojlanishidir. Oliy ta’limining davlat ta’lim standartlari ma’lum darajadagi huquqiy malakaga ega bo‘lgan bitiruvchini tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi. Ya’ni, “hozirgi vaqtda jahon ta’lim sohasida yukcak huquqiy malaka va huquqiy madaniyat darajasi bilan ajralib turadigan yangi shaxs – “qonunni anglaydigan fuqaro” shakllanmoqda”. Shu munosabat bilan ta’lim muassasalari bitiruvchilari o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ko‘nikma va amaliyotga ega bo‘lgan, o‘z faoliyatining huquqiy normalari haqida bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Binobarin, G.A.Firsovning fikricha, zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi, uning fikricha, talabalar;

birinchidan, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, ko‘nikma, amaliyot, o‘z imkoniyati va mas’uliyatini anglab yetishlari, o‘z huquq va majburiyatlarini bilishlari;

ikkinchidan, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan huquqiy bilimlarni olish va amaldagi qonunlar, huquqiy normalarni mustaqil tushunish, ularni mohirona anglash va kasbiy faoliyatda qo'llash imkonini beradigan ko'nikmalarni egallash maqsadida<sup>1</sup>.

Shaxsning kasbiy faoliyat sub'yekti sifatida rivojlanishini o'rganishga akmeologik yondashuv ilmiy asosga ega bo'lgan kacb orqali shaxsning o'zini maksimal o'z huquqiy bilimini oshirishga yo'naltirilganligi shaxsning huquqiy kompetensiyasini akmeologik yondashuv asosida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu esa, huquqiy ta'limda axloqiy, madaniy, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fuqaro o'z bilimini rivojlantirish jarayoniga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida huquqiy kompetensiyani rivojlantirishda ijtimoiy-kasbiy va xulq-atvorni huquqiy normalar, qoidalarga muvofiq tartibga solish imkonini beradigan fazilatlar va shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Huquqiy kompetensiya shaxsning huquqiy rivojlanishining tabiati va dapajasini aks ettiradi, yning o'zagini faol ijodiy huquqni qo'llash faoliyatida shakllanadigan va ijtimoiy huquqiy madaniyatning qadriyat-syemantik asosi sifatida faoliyat yurituvchi huquqiy ongni tashkil etadi.

### **NATIJAR VA MUHOKAMA.**

Talabalarning huquqiy kompetensiyasining muhim xususiyatlarini tushunish uchun Yu.L. Ivlev shaxsning huquqiy ongining psixologik determinantlariga nisbatan olib qarash mumkin; huquqiy ongning asosiy psixologik belgilarini quyidagicha tahlil qiladi:

- 1) shaxsning qonyn ustuvorligiga rioya qilishga va jamiyat qonunlariga rioya qilishga qaratilgan qadriyat yo'nalishlari;
- 2) o'z burchni anglagan shaxsning axloqiini shakllantirish;
- 3) mas'uliyatli munosabat va hissiy fon bilan ifodalanadigan hissiy va huquqiy determinantlar;
- 4) huquq sohasidagi bilim darajasi va ko'nimasini rivojlantirish. Shunday qilib, shaxsning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish mohiyatini tushunish nafaqat davlat institytlari va fuqarolar bilan o'zapo munosabatlar sohasidagi bilim va ko'nikmalarda, shuningdek, kasbiy muloqot va xulq-atvorga ega bo'lgan ob'yektiv tashqi uslublar hayotda qonuniy xulq-atvorni amalga oshirish uchun huquqiy ta'lim asosini tashkil etuvchi shaxsning shaxsiy fazilatlarida namoyon bo'ladi .

Akmeologik nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimida talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlanishi talabaning ta'limda sub'yektiv qarashini kengaytirish, uning kasbiy va axloqiy boyitish yo'nalishida ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Talaba

<sup>1</sup> Фирсов Г.А. Формирование правовой культуры в учреждениях профессионального образования: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. М., 2006

shaxsining huquqiy kompetensiyasining prosessual rivojlanishi, ta'lim muassasasida kasbiy huquqiy tayyorgarligi, o'quv jarayoni sub'yektlarining ta'lim faoliyatini me'yoriy tartibga solish, o'z-o'zini huquqiy madaniyatini yukaltirishning kompetensiyasi ko'rib chiqilishi kerak.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlanishi huquqiy kompetensiyasining rivojlanishi va yning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida shakllantiradigan omillar quyidagilardir:

A) huquqiy ta'limni egallaganligi;

B) huquqiy ongni rivojlantirish;

Huquqiy kognitiv komponent bu qonyn haqidagi ma'lum miqdordagi bilimlarni o'z ichiga oladi va talaba huquqiy ongining intellektual va kognitiv determinantlarini aniqlash imkonini beradi.

Emosional komponent;

1) huquqqa nisbatan hissiy munosabat yo'nalishida,

2) ikkinchidan, huquqqa nisbatan his-tuyg'ularning intensivligida namoyon bo'ladi.

Huquqiy baholash komponenti jamiyatda huquqqa oid ijtimoiy-kasbiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy tizimning rolini bajaradi. Huquqiy kompetensiya – faoliyatni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan kasbiy, ijtimoiy, psixologik, siyosiy, huquqiy va boshqa xususiyatlarni o'zida mujjam etgan keng qamrovli tarkibga ega. Huquqiy kompetensiya bu jamiyatda ijtimoiy boshqaruv shakli va talabalarning akmeologik madaniyati strukturasi tarkibiy qismi axloqiy-huquqiy taraqqiyotning eng yuqori bosqichi hamda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi natijasida ma'lum darajadagi huquqiy ta'limiy rivojlanishining kasbiy kompetensiyaga asoslangan kasbiy madaniyatining ijtimoiy me'yoriy komponentining huquqiy asoslarini o'zlashtirishning oliy ta'lim tizimiga joriy etish.

Talabalarning huquqiy kompetensiyasiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar tahlili oliy ta'lim tizimida talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlanishi tushunchasini aks ettiruvchi kompleks integrativ xarakteristikasi sifatida izohlash imkonini beradi.

Bu talabada ijtimoiy va huquqiy tajribani ongli ravishda idrok etish, o'z ijtimoiy va kasbiy xulq-atvorini amaldagi huquqiy me'yorlarga muvofiq shakllantirishga tayyorligi va qobiliyati, o'z hayotiga axloqiy va huquqiy baho berish qobiliyati deb izohlash mumkin.

Shaxsning huquqiy kompetensiyasining ifodasi - bu kasbiy mahoratni rivojlantirishning akmeologik faoliyatining professionalligi, shaxsning kasbiyligi, faoliyat va xatti-harakatlarning me'yoriyligi, samarali o'zini o'zi kontsyepsiyasi faoliyatning kasbiy mahorati faoliyat tarkibidagi huquqiy, psixologik va akmeologik

kompetensiyaning psixosinteziga asoslangan yuqori kasbiy kompetensiyani aks ettiradi<sup>1</sup>.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish va kasbiy mahorati jihatidan muhim fazilatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda, huquqni oliy ta'lim tizimida izchil rivojlanishiga qaratilgan qonunchilik talablarining, huquqning motivasion sohaning va qiymat yo'nalishlarining yetarli dapajasini aks ettiradi. Faoliyat va xulq-atvor normalari hayotning huquqiy tartibga soluvchici rolini o'ynaydi. Samarali o'zini o'zi konsepsiyasi axloqiy va huquqiy ta'lim me'yorlarni, rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishga, ijtimoiy va kasbiy munocabatlarning boshqa sub'yektlari bilan huquqiy munosabatlar tizimini qurishga imkon beradi.

Talabalarning huquqiy kompetensiyasini shakllantirish samaradorligini oshirishda jamiyat ma'naviy madaniyati rivojlanishida huquqiy kompetensiyasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- 1) kognitiv (kognitiv);
- 2) xulq-atvor;
- 3) aks ettiruvchi;
- 4) kommunikativ;
- 5) motivasion kabilarni o'z ichiga oladi.

Kognitiv komponent jamiyatdagi huquqiy munosabatlar sohasidagi bilimlarning optimal o'ziga xos hajmini, intellektual va huquqiy rivojlanish darajasini belgilaydi.

Xulq-atvor komponenti turli ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda qonuniy / noqonuniy xatti-harakatlar bilan tavsiflanadi.

Ryefleksiv komponent axloqiy va huquqiy me'yorlarga muvofiq ijtimoiy va kasbiy xatti-harakatlarning tizimli prognozini, o'z harakatlarini o'z-o'zini baholash va o'zini o'zi tavsiflash tizimi orqali ijtimoiy va kasbiy vaziyatni aniqlash, tahlil qilish va o'zaro bog'lash qobiliyatini aks ettiradi. O'z "men"i va hozirgi huquqiy munosabatlar tizimi.

Huquqiy kompetensiyaning kommunikativ tarkibiy qismi o'z fikrlarini aniq ifoda etishga, ishontirishga, bahs, dalillar tizimini tahlil qilish va hukm chiqarishni o'z ichiga oladi.

## **XULOSA.**

Motivasion tarkibiy qism shaxsning huquqiy yo'nalishi, huquqiy vakolatlarini rivojlantirish va shu asosda o'z vazifalarini bajarish va huquq va erkinliklarni amalga

---

<sup>1</sup> Кархалев И.В. Акмеологические особенности развития правовой компетентности сотрудников наркоконтроля: автореф. дис. ... канд. психол. наук. М., 2007.

oshirishda mustaqil mas'uliyatli qarorlar qabul qilishni rivojlantirish istagi bilan tavsiflanadi.

Huquqiy kompetensiya tegishli kompetensiyalarni egallashdagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi dinamik xususiyatdir. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasasida kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy kompetensiyalar odatda quyidagilarga qaratilgan:

1) huquqiy voqelikda qo'llash jarayoni haqida tizimlashtirilgan bilimlarning zarur dapjasini ta'minlash;

2) huquqiy manfaatlarni, huquqiy madaniyatni, huquqiy tafakkur va ongni, huquqiy tuyg'ylarni, kognitiv va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish;

3) ilmiy huquqiy dunyoqarashni va ular bilan bog'liq bo'lgan boshqa sifatlarni – axloqiy, estetikani shakllantirish;

4) huquqiy o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatlarini shakllantirish, huquqiy bilimlarni oshirish zarurati va ko'nikmalari kabilarni o'z ichiga oladi.

“Huquqiy kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini farqlagan holda shuni ta'kidlash kerakki, huquq sohasidagi asosiy kompetensiyalar ta'limning dinamik ijtimoiy-kasbiy sharoitlarida shaxsning huquqiy rivojlanishining mohiyatini ochib beradi. Talabani yuqori darajadagi huquqiy kompetensiyasini ta'minlash, bu nafaqat uning qonunga bo'ysunuvchi xulq-atvorida, shaxsning huquqni amalga oshirish sohasidagi faol talabani ijodiy harakatlarining qobiliyati huquqiy tartibga solish sohasi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исломов З. Общество. Государство. Право. В 2-т.х. –Ташкент: Адолат. 1998. Т.2. –С.24-28.

2. Tadjixanov U., Caidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. –Toshkent: T.2. O'zR IV Akademiyasi. 1998. –B.181-182.

3. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish davr talabi /Uclubiy qo'llanma. Farg'ona. 2007. 64 b.

4. Sharipov A. Yoshlarning huquqiy madaniyati //Huquq -Pravo. 1998. №4. B-B. 16-19.

5. Ahmodshoeva M., Najimov M. Huquq nima? – T.:TDYUI, 2003. - 35

6. Дружилов, С. А. Профессиональная компетентность и профессионализм педагога: психологический подход / С. А. Дружилов // Сибирь. Философия. Образование. Научно-публицистический альманах: СО РАО, ИПК, Новокузнецк. - 2005. - № 8. - С. 26-28.

## THE EFFICIENCY OF CORPUS LINGUISTIC IN TEACHING GRAMMAR

**Barnoeva Nilufar Yoqubovna**

Tashkent University of Information Technologies named after  
Muhammad al-Khwarizmi, Foreign Language Department

Email: [nilufarbarnoeva@gmail.com](mailto:nilufarbarnoeva@gmail.com),

**Abstract:** *The development of grammar instruction and research has begun in the past two decades (Conrad, 2000). Teaching English grammar has been delivered via a traditional method. The present study provides a literature review of how grammar instruction has been influenced by corpus linguistic (CL). The review points out the benefits of implementing corpus-based approach in grammar instruction and some difficulties encountered both teachers and students when applying CL tools. The perceptions of students and teachers towards using CL in grammar instruction was also highlighted. Overall, the participants in the reviewed studies reported positive perceptions towards using corpus-based approach in grammar instruction. Implementing this approach helps teachers design suitable materials and students gain grammar knowledge. It is suggested that further studies are needed to investigate the effectiveness of corpus-based approach in specific grammatical aspects.*

**Keywords:** *Corpus linguistics, Corpora, Data-driven learning, Grammar instruction, Review of literature*

In recent years, a lot of pedagogical research has appeared, in which scientists give priority to the use of new information and computer technologies in education, One of the modern means of forming linguistic competence as a component of the communicative competence of students is the linguistic corpus. It is understood as a collection of texts on an electronic medium selected in accordance with external criteria (genre, purpose, purpose, industry language) [1;28.]. Concordance software allows you to quickly and accurately search for and select the required lexical and grammatical units in large arrays of texts, and through the analysis of numerous examples to reveal grammatical patterns. In this regard, the linguistic corpus can be used to form the grammatical skills of students' speech. The directions of the corpus linguistics, as well

as the projects of the electronic corpus of texts are actively developing and occupy leading positions in the method of teaching foreign languages, having considerable applied potential. In the process of teaching foreign languages, one of the main problems is the lack of appropriate pedagogical text materials and actual grammatical models. The linguistic corpus is considered as one of the modern information resources on the basis of which it is possible to form the lexical and grammatical skills of speech of students. On the basis of the linguistic corpus the following grammatical skills of students' speech can be formed:

productive grammatical skills:

- to form grammatical forms and structures;
- choose and use grammatical constructions depending on the situation of communication;
- to vary the grammatical formulation of the utterance when the communicative intention is changed;
- formulate a grammatical rule based on search results in the linguistic corpus;
- to distinguish the grammatical design of oral and written texts; use grammatical phenomena in speech;
- possess ways to interpret values and translate basic grammatical categories into their native language [4; 7-8 ]

Learning the grammar and correct formulation of the utterance, as well as the recognition of grammatical forms in speech and writing, occurs through the formation of grammatical skills. The concept of "grammar" includes different sections of the science of language, for example, such as word formation and phonetics, as well as spelling, elements of lexicology, phraseology and stylistics. The main goal of teaching grammar is the development of skills and abilities of grammatically correct speech. By "grammatical skills" are meant automated operations performed with the grammatical material of the language in the process of speech activity, when consciousness is directed at the content of the utterance. Formation of grammatical skills of speech of students on the basis of the linguistic corpus will be effective if the development of the appropriate methodology will be carried out taking into account the following methodological conditions:

- 1) the formation of students at the time of learning a foreign communicative competence;
- 2) use in the study of tasks to determine the grammatical times, the study of modal verbs, the degree of comparison of adjectives and adverbs, articles, plural of nouns, tasks for testing students' knowledge;
- 3) following a clear learning algorithm with separately identified steps and steps.



The use of a linguistic corpus to study grammatical times. Task: study the concordance data and formulate the rule of formation of the present long time in English [tab 1].

Table 1.

1. has gone wrong some place. I **am** getting dividends on only 50 shares.
2. «and I felt strong. When you **are** playing like that you'd better attack».
3. Cohen is chairman of this phase and she **is** getting an artistic assist from
- 4 .the time of day. Other factors **are** playing a part in the extent of AM

To conduct this task, the teacher must pre-select the necessary examples and select the necessary parts of the speech / parts of the sentence that facilitate the assignment. Using this task, you can study any grammatical times [1;31]. It seems that, first of all, we must proceed from the definition of the concept of "quality" in relation to teaching foreign languages, from what its content, criteria and parameters of evaluation, the stages of ensuring and managing the quality of the level of formation communicative competence, and then to build a model of providing and improving the quality of teaching a foreign language on the basis of the use, in particular, of hull technologies.

In conclusion, the linguistic corpus and the concordance program can significantly optimize the learning process of foreign languages. On the basis of the linguistic corpus, learners can create many tasks of a problem nature to stimulate the research work of students. In this article, author showed possible types of tasks for the formation of lexical and grammatical skills. At the same time, the teacher needs to remember that not all aspects of vocabulary and grammar can be effectively studied with the help of the corpus, nor in any study group the problematic tasks of exploratory research will be successful. In many respects, the linguistic corpus is a means for the teacher to solve educational, methodological and scientific problems.

## REFERENCES

1. Sysoev P.V. Integrative teaching of grammar: research on the material of english / Foreign languages in school. 2003. № 6. P. 25-31
2. Andreev A.A. Knowledge or competence? // Higher education in russia. 2005. № 2. P. 3 11
3. Andreev A.A. Some Problems of Pedagogy in Modern Information and Educational Environments // Innovations in Education. 2004.-No.6-C. 98-113.
4. Ryazanov. EA Methodology for the formation of grammatical skills of students' speech on the basis of the linguistic corpus (English, profile level): author's abstract. dis. Cand. ped. sciences. Tambov, 2012. P. 7-12.

5. Bolotov VA Competence model: from idea to general educational program / Bolotov VA, Serikov VV // Pedagogy. 2003. № 4. - P. 8-14.
6. URL: [ru.wikipedia.org/wiki/Корпусная\\_лингвистика](http://ru.wikipedia.org/wiki/Корпусная_лингвистика)

## URXUN-YENISEY YOZUVI

**Bazarov Sherali Abdinazarovich**

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

O‘zbek tili va adabiyoti (tillar) kafedrası o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada urxun-yenisey yozuvi tarixi, bu yozuvning paydo bo‘lishi haqida ma’lumotlar aniq misollar bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola davomida urxun-yenisey yozuvi hamda shu davrda qo‘llanilgan yozuvlarni bir-biri bilan qiyoslagan holda batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Maqola yakunida yozuv namunasi yozilgan bitiktoshlarning o‘ziga xosligi hamda farqli jihatlari haqida kerakli ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Urxun-yenisey yozuvi, Yenisey yodgorliklari, Talos yodgorliklari, Urxun yodgorliklari, “To‘nyuquq bitiktoshi”, “Irg‘btigi”.*

Kaspiy dengizidan to Tinch okeanigacha, Rubandan Xitoygacha bo‘lgan hududda buyuk turk xoqonligi davrida ilm fan gullab yashnagan. Sanoat rivojlangan edi. Eng xarakterlisi shundaki, hali eramizdan avvalgi ming yilliklar davridayoq bu hududda yashagan turkiy xalqlar o‘zlarining yozuvlariga ega edilar. 759-yilda marmar toshga o‘yib yozilgan Myunchur bitigtoshida «Ming yillik, tuman, kunlik yozuvimni bu toshga o‘yib yozdim» degan jumlar bor edi. Demak, turkiy qabilalarining yozuv madaniyati miloddan oldin boshlangan.

Qadimgi turkiy davri barcha urug‘ va qabilalarning umumiy tili sifatida VI–XIII asrlarni o‘z ichiga oladi. Qadimgi turkiy til o‘zining kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy ravishda bog‘langan. Bu davr tili haqida B.Ya.Vladimitsov qo‘yidagi fikrlarni bayon qiladi: «Mo‘g‘ul tili turk va tungus tillari bilan birga o‘zlarining bir umumiy ajdodiga ega bo‘lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Oltoy tili hozircha ma’lum emas, ya’ni oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan mo‘g‘ul, turk, tungus tillari ma’lum. Bu davr turkiy tillar taraqqiyotining birinchi, eng qadimgi bosqichi bo‘lib, fanda u oltoy tili nomi bilan yuritiladi. Bu davrda til, turkiy tillar mug‘ul tillaridan, mo‘g‘ul tillari esa, o‘z navbatida, tungus - manchjur tillaridan ajralib chiqmagan edi. Ular bir til sifatida qo‘llanilar edi. Shunday qilib, qandaydir eng qadimgi tilning bo‘lganligi taxmin

qilinadi. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi xususiyatlar esa hozirgi mo'g'ul turkiy va tungus–manchjur tillarida saqlanib qolgan» .

Oltoy tili davrida yashagan xalqlar va ularning tili haqida aniq ma'lumotlar beruvchi tarixiy yodgorliklar yo'q. Bu davr tilining ayrim xususiyatlari qadimgi o'lik tillarning eng qadimgi belgilari bilan hozirgi jonli tillarni tarixiy–qiyosiy usul asosida qiyoslab o'rganish orqali taxminiy ravishda aniqlanishi mumkin. Tarixiy taraqqiyot jarayonida tillarning qo'shilishi, ajralib ketishi natijasida oltoy tili davrining oxirlarida bu tillar tabaqalanadi va ikkita katta til guruhlariga bo'linadi, ya'ni tungus-manchjur va turk–mo'g'ul tillar guruhlariga ajralib chiqadi. O'z navbatida, ijtimoiy–siyosiy munosabatlarning o'sishi, ajralib chiqishi, farqlanish jarayonining davom etishi asosida bu tillarning har qaysisi asta–sekin o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lib boradi. Buning natijasida xun davrining oxirlarida turk–mo'g'ul til birligidan turk tillari va mug'ul tillari ajralib chiqadi.

Turkiy tillarning eng qadimgi davrlaridagi taraqqiyotining ikkinchi bosqichi xun davri hisoblanadi (eramizgacha III asrdan eramizning IV asrigacha). Bu davrda Markaziy Osiyodan Sharqiy Evropagacha bo'lgan katta hududda qudratli Xun imperiyasi tuziladi. Keyinchalik bular asosida g'arb va sharqda turklar boshchiligida bir qancha qabila ittifoqlari mustahkamlanishi ko'p jihatdan turkiy qabilalar va tillarning rivojlanishi katta ta'sir qiladi. Ular umumiy belgilarini saqlagan holda, asta–sekin o'zlariga xos xususiyatlarni ham hosil qila boshlaydilar, natijada bu barcha turkiy tillarning ikki guruhga–sharqiy va g'arbiy–turkiy tillarga bo'linishiga olib keladi. Bu davrdagi turkiy tillarning xususiyatini ko'rsatuvchi tarixiy manbalar yo'q. V.V.Bartol'd chuvash tili bo'yicha tadqiqotlariga asoslanib, xun davridagi til chuvash tili bilan umumiylikka ega bo'lgan, buni venger tilidagi turkiy unsurlarning chuvash unsurlari bilan o'xshashligi ham tasdiqlaydi, degan fikrni ilgari suradi. Xun davrida turlicha turk, mo'g'ul, turk–manchjur qabilalari tillarining o'zaro bir–biriga ta'sir qilishi, qo'shilishi, chatishib ketishi va qayta tashkil topishi jarayonida o'sha vaqtda Markaziy va O'rta Osiyoda hamda Sharqiy Evropada yashagan qadimgi eroniy, xitoy, sanskrit va slavyan qabilalari tillarining ishtiroki ham bo'lgan.

Xun davrida turkiy tillar ham ko'pgina urug' va qabilalarning tillari sifatida mavjud edi va ularga xizmat qilar edi. Bu davrda ularning r-l tillari (qadimgi avar, bulg'or va hozirgi chuvashlarning o'tmishdoshi) hamda z-sh tillariga (qadimgi o'g'uz, qirg'iz, qarluq va qipchoqlar) ajralishi davom etardi. Fonetik qurilish va leksikadagi–s/z va l–sh/j tarzida moslashish hodisasining qoldiqlarini hozirgi oltoy va bir qator turkiy tillarda uchratish mumkin: r–s/z, bas – bormoq va bar – barmoq; kaz va qor (qo'rmoq), l–sh/j; besh va belek – tirsak (guvashcha pilek-besh), bo'sh–bulg'os –

aralastirmoq kabi. Shu bilan birga, bu davrda mayda–mayda turkiy qabilalarning tabaqalanishi va bir–biriga qo‘shilishi, birlashishi jarayoni ham davom etardi.

Qadimgi turkiy til davri. Bu davrda turkiy urug‘ va qabilalar xun (ham sharqiy xun, ham g‘arbiy xun) davlati tarkibiga kirar edi. VI asr o‘rtalarida turklar kuchayib, yirik bir qabila ittifoqiga birlashadi, qo‘shni qabilalarni engib, 552 yilda o‘zlarining mustaqil davlatlarini–turk xoqonligini barpo qiladi. 555 yilga kelib Markaziy Osiyodagi xalqlar Manjuriya va Enasoy qirg‘oqlarigacha bo‘lgan erlarni o‘zlariga qaratib oladilar. Harbiy va siyosiy qudrati asta–sekin kuchayib borgan turk xoqonligi eftalitlar davlatini tor–mor qiladi. Amudaryo va Orolgacha bo‘lgan joylarni, VI asrning 70–yillarida esa Shimoliy Xitoydagi Chjou va Chun davlatlarini bosib oladi. Xoqonlikning chegarasi Amudaryodan Hindistongacha cho‘zilar edi. Ammo qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar hamda Xitoyning kuchayib ketishi va bu urushlarga aralashuvi natijasida VI asrning 80–yillarida turk xoqonligi parchalanib, Sharqiy turk xoqonligi va /arbiy turk hoqonligiga bo‘linib ketadi .

Sharqiy turk xoqonligi Markaziy Osiyoda o‘z hokimiyatini o‘rnatadi, VII asrning 2–choragida Xitoyga qaram bo‘lib qoladi. 681 yilda xoqon qutlug‘ (Ilterin) va uning maslahatchisi To‘nyuquq mustaqillikni qo‘lga kiritadilar. Sharqiy turk xoqonligining keyingi kuchaygan davri 682–745 yillarga to‘g‘ri keladi. Hoqon Qopog‘on (691–716 yillar) davrida turklar Samarqandgacha borib etadilar. Xoqon Bilga vafoti (734 yil) dan keyin kuchaygan o‘zaro urushlar natijasida Sharqiy turk xoqonligi parchalanib ketadi, 745 yilda esa uyg‘urlar tomonidan bosib olinadi.

Markazi Yettisuv bo‘lgan /arbiy turk xoqonligi esa mustaqil davlat sifatida VII asrning 1–yarmida Sharqiy Turkistondan Kaspiy dengizgacha bo‘lgan erlarda o‘z hukmronligini o‘rnatadi. Qo‘shni davlatlar bilan savdo–sotiq ishlari rivojlanadi. Samarqand, Buxoro, Choch (Toshkent), Marv, Chorjo‘y kabi katta shaharlar obod bo‘ladi. Ammo Xitoy va shimoliy qo‘shni davlatlarining hujumi, ichki o‘zaro feodal urushlar natijasida /arbiy Turk hoqonligi tugatiladi. Turklarning bir qismi Sharqiy Turkistonda o‘zlarining ittifoqini barpo qiladi, Yettisuv va uning atroflarini esa turgeshlar qo‘lga kiritadi. Keyinroq esa bu erlar Oltoydan ko‘chib kelgan qarluqlar qo‘liga o‘tadi. O‘g‘uzlar esa g‘arbga tomon yurish qilib, VIII asrda Sirdaryoning quyi qismi havzasidan Qoraqumgacha bo‘lgan hududda o‘z davlatlarini barpo qiladilar.

Turkiy tillar taraqqiyotining uchinchi bosqichiga, ya‘ni qadimgi turkiy davrdagi turkiy urug‘ va qabilalar, ularning tillariga oid juda ko‘p yozma manbalar, tarixiy yodgorliklari mavjud. Jumladan, turk xoqonligi tarkibiga kirgan turkiy urug‘lar va ularning tillari O‘rxun–Yenisey yodgorliklari orqali aniqlangan. Urxun–Enisey yodgorliklarining ko‘pchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular orasida, ayniqsa, sibirlik o‘lkashunos N.M.Yadrintsev tomonidan 1889 yilda Mo‘g‘ulistondagi Urxun

daryosi bo'ylaridan topgan yodgorliklar katta ahamiyatga ega. Xuddi shunday yodgorliklarning kattagina bir qismi Enisey daryosining yuqori qismidan va Qirg'izistondagi Talas vodiysidan, shuningdek, Baykal ko'li atroflari, Lena daryosi sohillaridan ham topilgan.

8. Отакулов С., Мусаев А. О. Применение свойства квазидифференцируемости функций типа минимума и максимума к задаче негладкой оптимизации //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2020. – №. 12 (64). – С. 48-53.
9. Мусаева А. О. Зарубежная система финансирования образовательных учреждений //Наука и новые технологии. – 2011. – №. 10. – С. 75-81.
10. Мусаев А. О. Интеграция образовательных систем России и Дагестана XIX века //Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. – 2010. – №. 3. – С. 21-24.

## XIX OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O‘LKASIDA PRAVOSLAV CHARKOVLARI QURILISHI TARIXI

**Abduvohidov Dilshod Narbotirovich**

Tadqiqotchi, SamDU

***Annotatsiya.** Maqolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida pravoslav cherkovlari qurilishi misolida pravoslav me‘morchiligi rivojlanishining tarixiy jihatlari ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** bag‘rikenglik, din, nasroniylik, me‘morchilik, pravoslav cherkovi, cherkov, sobor, monastir, Turkiston yeparxiyasi, ruhoniy.*

***Abstract.** The article examines the historical aspects of the development of Pro-Slavic architecture in the example of the construction of Orthodox churches in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries.*

***Key words:** tolerance, religion, Christianity, architecture, Orthodox Church, church, cathedral, monastery, diocese of Turkestan, priest.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются исторические аспекты развития праславянского зодчества на примере строительства православных храмов в Туркестане в конце 19-начале 20 века.*

***Ключевые слова:** веротерпимость, религия, христианство, архитектура, православная церковь, храм, собор, монастырь, Туркестанская епархия, священник.*

Turkiston o‘lkasidagi rus pravoslav cherkovlarining faoliyati XIX asrning 40-yillarida boshlangan. Dastlabki pravoslav ibodatxonalar suv o‘tkazmaydigan matodan yasalgan chodirlarga yoki chodirlarga joylashtirilgan lager ibodatxonalarini shaklida bo‘lgan. Ko‘p o‘tmay, ular qirg‘iz uylarining namunalaridan foydalangan holda vaqtinchalik ibodatxonalar yaratishni boshladilar. Keyinchalik asta-sekin mahalliy qurilish an‘analaridan foydalangan holda, xom g‘ishtdan (paxsa) doimiy pravoslav cherkovlari yaratilgan. Birinchi bunday ibodatxona 1850-yilda Kopalskaya qishlog‘ida

(hozirgi Kopal shahri) qurilgan. Dastlabki qishloq va ba'zi shahar cherkovlari baland bo'lmay uzoqdan ham ko'rinmagan, qo'ng'iroq minoralari ham mavjud bo'lmagan. Turkiston o'lkasida pravoslav aholining ko'payishi bilan cherkovlar XIX asrning oxiridan boshlab, tashqi ko'rinishi bo'yicha imperiyaning markaziy hududlaridagi cherkovlaridan kam bo'lmagan cherkovlar qurila boshlandi.

Turkistonda mustaqil yeparxiya tashkil etish to'g'risidagi petitsiya o'лка ruhoniylari tashabbusi bilan 1869-yilda boshlangan. 1871-yil 4-mayda imperator farmoni bilan Toshkent va Turkiston yeparxiyasini ochish to'g'risidagi qaror tasdiqlandi. 1871-yilda Toshkent kasalxonasida cherkov va ibodatxona tashkil etildi (XX asrning 50-yillarida bu ibodatxona kengaytirilib, arxiyepiskop Ermogen (Golubev) tomonidan zamonaviy Muqaddas Uspenskiy sobori sifatida qayta qurilgan).

Turkiston ziyoratgohlarini yaratish va bezashda rus madaniyatining ko'zga ko'ringan ustalari: me'morlar V. Shchusev, A. Benz, rassomlar M. Nesterov, M. Mikesheva, A. Zenkov, V. Geynzelman kabilar qatnashgan. Turkiston pravoslav cherkovlari shlyapa bezaklarining o'ziga xos go'zalligi, ularni bezashda mahalliy xalqlar uchun an'anaviy bo'lgan ganch (alabaster) o'ymakorligidan foydalanish bilan ajralib turardi. Qo'qon shahridagi Qozon soborini rus va o'zbek san'atining qo'shma asari desa bo'ladi. XVII asr rus me'morchiligi an'analarini sharqona uslubdagi ko'plab bezaklar bilan uyg'unlashtirgan bu ibodatxona me'mor O.Vasilev rahbarligida o'zbek ustalari tomonidan qurilgan. Qozon soborini yaratishda ishtirok etgani uchun qo'qonlik usta Xusniddin avliyo Stanislav kumush medali bilan taqdirlangan (ibodatxona XX asrning 30-yillarida vayron qilingan).

XX asr boshlariga kelib Turkistonda 120 rus qishlog'i mavjud bo'lib, ularda 70 ming pravoslav aholisi bo'lgan. O'rta Osiyodagi eng yirik Toshkent (Спасско-Преображенского) soborini qurish uchun yig'ilgan mablag'lar orasida "Toshkent musulmonlari namoyandalaridan" qayd ham mavjud. Samarqandning birinchi ibodatxonasi avliyo Georgiy uchun homiylik orasida "mahalliy musulmon savdogarlari Alimbekovlar" ham mavjud edi. 1917-yilga qadar Turkistonning barcha rus qishloqlarida cherkovlar mavjud bo'lgan. Shuningdek bu davrda, Turkistonning yirik shaharlarida bir necha o'nlab pravoslav cherkovlari bor edi. Masalan, Toshkentda 16 ta, Verniyda 10 ta, Samarqandda 8 ta, Pishkekda (Bishkek) 6 ta cherkov bor edi.

Yangi Marg'ilonda (hozirgi Farg'ona shahri) birinchi pravoslav cherkovi XIX asrda paydo bo'lgan. "Shaharda faqat bitta pravoslav cherkovi bor, u Yangi Marg'ilon poydevorida vaqtinchalik loy g'ishtdan qurilgan", - deb yozadi Kushelevskiy. Bu yerda 1890-yilda me'mor I. Sakovich loyihasi bo'yicha yangi cherkov qurilishi boshlandi. Bu Farg'ona vodiysidagi eng katta Aleksandr Nevskiy sobori edi. Farg'ona viloyati harbiy gubernatorining uyi ro'parasidagi sobor maydonida qad rostlagan ushbu



cherkov eskivizantiya uslubida qurilgan bo‘lib, fasadlari g‘ishtli teksturaga ega edi. Dastlab loyiha muallifi akademik I.Kitner ekanligiga ishonishgan, biroq tarixiy arxivlarda soborning “Sakovich tomonidan ishlab chiqilgan” yozuvi bilan asl loyihasi topilgan. Aleksandr Nevskiy soborida sarkarda Aleksandr Nevskiyning juda qimmatli piktogrammalari va badiiy jihatdan Xudoning onasi tasviri bo‘lgan.

1893-yilda Toshkent yaqinida (hozirgi bu joy shahar ichidagi) Nikolay monastiriga asos solingan. Monastir qoshida zardo‘zlik ustaxonalari, qizlar maktabi bor edi. Monastir 1922-yilda yopilgan va uning binolari ayollar qamoqxonasiga aylantirilgan. 1990-yilda Muqaddas Patriarx Aleksiy II ning tashabbusi bilan Toshkentda (Свято-Троицкий Никольский женский монастырь) ayollar monastiri qayta tiklandi. Hozirda monastirda 52 ta rohiba bor. Monastir majmuasi uchun O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 10 gektar yer ajratilgan. XIX asr oxirida Toshkent yaqinidagi Troitskoye (hozirgi Chirchiq shahri) qishlog‘ida muqaddas Jorj (Георгия Победоносца) deb nomlangan pravoslav cherkovi qurilgan. Ushbu cherkov qoshida 1996-yilda Muqaddas Georgievskiy monastiri tashkil etildi.

1902-yilda Toshkentda, harbiy gospitaldan uncha uzoq bo‘lmagan joyda Muqaddas Uspenskiy sobori qurilgan. Ushbu cherkov harbiylar uchun qurilgan bo‘lib, kasalxona va qabriston bilan o‘ralgan edi.

O‘sha davrda Turkiston o‘lkasida provoslav Yeparxiyasining eng katta muammolardan biri bu ruhoniylarning yetishmasligi edi. Kohinlar Rossiyadan Turkistonga juda kamdan-kam sayohat qilishgan, chunki uzoq o‘lka qo‘rquvi, zilzilalar, vabo va chechak epidemiyalari kabi xabarlar ularni doimo bezovta qilgan. Ruhoniylar muammosini qisman yepiskop Grigoriy (Poletaev) hal qildi, u 1883-yilda Imperiya markaziy soboriga borib, o‘zi bilan bir guruh shogirdlarini Turkistonga olib keldi. Faqat 1911-yilga kelib arxiyepiskop Dmitriy (Abashidze) barcha cherkovlarda ruhoniylarning bo‘lishiga erisha oldi.

Inqilobiy g‘alayonlar boshlanganligi sababli va keng tarqalgan milliy-ozodlik qo‘zg‘olonlari ko‘plab cherkovlar bugunga qadar saqlanib qolmagan. Keyinchalik, 1920-yildan boshlab cherkovlarni yopish va yo‘q qilish boshlandi, ko‘plab ruhoniylar qatag‘on qilindi va otib tashlandi. Bugungi kunda Toshkentda beshta pravoslav cherkovi bor: Uspenskiy sobori, Aleksandr Nevskiy ibodatxonasi, Germogen ibodatxonasi, Vladimirskiy ibodatxonasi, Muqaddas Birlik – Nikolay ayollar monastiri. Hozirda Farg‘ona vodiysi shaharlarida bir nechta pravoslav cherkovlari faoliyat ko‘rsatmoqda: Farg‘onada – avliyo Sergiy ibodatxonasi, Qo‘qonda – Qozon ibodatxonasi, Quvasoyda – avliyo Ioann cherkovi, Namanganda. - Maykl cherkovi, Andijonda - Azizlar ibodatxonasi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 136 millat vakillari istiqomat qiladi, 130 dan ortiq milliy madaniy markazlar, 16

konfessiyaga mansub 3000 ga yaqin diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu jamiyatimizda millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglik yuksak salohiyatga ega bo'lib, tarixiy o'tmishning mustahkam poydevorida turganiga yorqin misoldir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aminov A. M. va Babaxodjayev A. X. O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlarini. –T.: 1966-y.
2. Axmedjanov G.A. O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi (Turkistonda chorizmning mustamlakachilik siyosati tarixi va tarixshunosligi). –T.: 1995-y.
3. Jigalina O.I. Rossiya va Markaziy Osiyo: mustamlakachilik davridagi aloqalar va munosabatlar // Islom mamlakatlari va mintaqalari: tarix va zamonaviylik. – M.: 1994-y.
4. Isxakov F.B. Turkistonda chorizmning milliy siyosati (1867-1917). – T.: 1997-y.

## OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA "TARMOQ TEXNOLOGIYALARI" FANINI O'QITISHDA XORIJ TAJRIBASI

**Ziyayev Sherali Abdulaziz o'g'li**

Qo'qon DPI tayanch doktoranti

[qdpiziyayev@gmail.com](mailto:qdpiziyayev@gmail.com)

***Annotatsiya.** Maqolada Oliy ta'lim muassasalarida "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitish asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, tarmoq texnologiyalarini rivojlantirish omillari, ulardan foydalanish darajalari va xususiyat-lari bayon etilgan.*

***Tayanch so'z va tushunchalar:** tarmoq texnologiyasi, fan dasturlari, o'qitishning texnik vositalari, psixologik, pedagogik, metodik, tashkiliy jihatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ijodiyot qobilyat.*

***Аннотация.** В статье описаны исследования, проведенные по развитию творческих способностей будущих учителей информатики на основе преподавания «Сетевых технологий» в высших учебных заведениях, факторы развития сетевых технологий, уровни их использования и особенности.*

***Ключевые слова:** сетевые технологии, научные программы, технические средства обучения, психолого-педагогические, методические, организационные аспекты, информационно-коммуникационные технологии, творчество.*

***Abstract.** The article describes the research conducted on the development of the creative abilities of future informatics teachers based on the teaching of "Network technologies" in higher education institutions, the factors of development of network technologies, their levels of use and features.*

**Keywords:** *basic words and concepts: network technology, science programs, technical means of teaching, psychological, pedagogical, methodical, organizational aspects, information and communication technologies, creativity.*

Fan-texnika taraqqiyoti, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uning kelajagini belgilab olishda kishilar intellektual salohiyati haqidagi axborot nihoyatda muhimligini ko'rsatmoqda. Shuning bilan birga dunyo bo'yicha ilm - fan rivojining bugungi holati, ayniqsa bu boradagi zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilgan jamiyatda "Tarmoq texnologiyalari" fani sohasida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga bir qancha, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlashdek vazifasini ham qo'yimoqda.

Xorijiy davlatlar va Respublikamizdagi bir qator olimlar tomonidan "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitish muammolari o'rganilib, o'quv pedagogik kompyuter dasturlari ishlab chiqilmoqda hamda o'quv tarbiya jarayoniga tadbiiq etilmoqda. Respublikamizda ham bu sohadagi ishlarni davr talablari darajasiga ko'tarish bo'yicha samarali ishlar olib borilayotganligiga qaramasdan, hozirga qadar quyidagi muammolar o'z yechimini kutmoqda: tarmoq texnologiyalari fanidan o'zbek tilidagi darslik va qo'llanmalar, shu jumladan, elektron variantlarning yetarli emasligi va mavjudlarining zamonaviy talabga javob bermasligi; fan bo'yicha elektron ta'lim resursilarning yetishmasligi; amaliy, laboratoriya va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatmalarning talab darajasida emasligi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish va bo'lajak mutahassislarga kasbiy bilimlarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqishda birinchi navbatda, metodologik, kasbiy, motivatsion, pedagogik, psixologik, tizimli, nazariy-ilmiy, ijodiy-amaliy, o'z-o'zini baholash, mustaqil bilim olish, kasbiy yutuqlarning istiqbolini ko'ra bilish kabi omillarni e'tiborga olish zarur.

Qayd etilgan muammolar yechimini topish uchun dastlab Mustaqil davlatlar hamdo'stligi oliy ta'lim muassasalaridan, Altay davlat pedagogika universiteti matematika va informatika yo'nalishida o'qitiladigan "Kompyuter tarmoqlari va internet texnologiyalari", Belarus davlat pedagogika universiteti matematika va informatika yo'nalishida o'qitiladigan "Kompyuter tarmoqlari" fanlarini tahlil qilamiz.

1.1-jadval

Tahlil qilinayotgan oliy ta'lim muassasalarining Fan dasturlari

<b>OTM</b>	<i>Rossiya davlati. Altay davlat pedagogika universiteti</i>	<i>Belorus Respublikasi. Belorus davlat pedagogika universiteti</i>	<i>O'zbekiston pedagogika oliy ta'lim muassasalari</i>
<b>Fan nomi</b>	Kompyuter tarmoqlari va internet texnologiyalari	Kompyuter tarmoqlari	Tarmoq texnologiyalari
<b>Mutaxassislik</b>	<i>Bilim sohasi – Gumanitar Ta'lim sohasi – Pedagogika Ta'lim yo'nalishi – Matematika va informatika</i>	<i>Bilim sohasi – Gumanitar Ta'lim sohasi – Pedagogika Ta'lim yo'nalishi – Matematika va informatika</i>	<i>Bilim sohasi – Gumanitar Ta'lim sohasi – Pedagogika Ta'lim yo'nalishi – Informatika o'qitish metodikasi</i>
<b>Fanning maqsadi</b>	Bo'lajak informatika fani o'qituvchisini kompyuter tarmoqlarining ishlash imkoniyatlari va prinsiplari, turli formatlarda taqdim etiladigan ma'lumotlarning yagona yaxlitligini tashkil etish va real vaqt rejimida ushbu ma'lumotlarga insonning faol ta'sirini ta'minlash qobiliyati haqidagi bilim va ko'nikmalar to'plamini shakllantirish, shuningdek uzatilgan ma'lumotlarga kirishni tashkil etish.	Zamonaviy kompyuter tarmoqlarining holati va rivojlanish tendensiyalarini belgilaydigan tushunchalarni o'rganish.	Talabalarning kasbiy sohasida uchraydigan tarmoq sohasidagi muammolarni bartaraf etish yo'llarini o'rgatish, bo'lajak fan o'qituvchisi sifatida mutaxassis bo'lib etishi uchun etalichi bilimlar berishdan iborat.
<b>O'quv predmetini o'zlashtirish natijasida talabalar kompetensiyalarini shakllantirish</b>			
<p><b>PK-1:</b> O'quv fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini ta'lim standartlari talablariga muvofiq amalga oshirishga tayyorlik</p> <p><b>PK-4:</b> O'quv natijalari va o'quv jarayonining sifatini ta'minlashda o'qitiladigan fanlar orqali shaxsiy maqsadga erishish uchun o'quv muhiti imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyati</p>			
<b>Kompetensiya tuzilmasi:</b>			

	<p><b>Bilim:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>–Kompyuter tarmoqlarini qurish tamoyillari;</li> <li>–tarmoqlarda</li> </ul>	<p><b>Bilim:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- zamonaviy mahalliy va global kompyuter tarmoqlarini yaratish</li> </ul>	<p><b>Bilim:</b></p> <p>Kompyuter kommunikatsiyalari, kanalning o'tka-zish</p>	
Malaka talabi	<ul style="list-style-type: none"> <li>– ma'lumotlarni uzatish protokollari va texnologiyalari;</li> <li>– Internet texnologiyalarining tarkibi va ishlash prinsiplari;</li> <li>– axborot va interfaol Internet manbalarini qurish va ulardan foydalanish tamoyillari;</li> <li>– multimedia mahsulotlarini yaratish va multimedia texnologiyalaridan foydalanish tamoyillari;</li> </ul> <p><b>Malaka:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Axborot va interfaol Internet manbalarini yaratish;</li> <li>– elektron pochta, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumot almashish;</li> <li>– multimedia qobiqlari va texnologiyalaridan foydalanish, multimedia dasturlarini yaratish.</li> </ul> <p><b>Ko'nikma:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– elektron pochta asosiy vositalari bilan ishlash;</li> <li>– turli xil brauzerlar bilan ishlash;</li> <li>– qidiruv tizimlari- ning asosiy prinsip-lari bilan ishlash.</li> </ul>	<p>texnologiyalari;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- zamonaviy kompyuter tarmoqlari asosiga ega bo'lgan protokollar to'plamining arxitekturasi;</li> <li>- kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarni samarali va xavfsiz uzatish usullari.</li> </ul> <p><b>Malaka:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- korporativ kompyuter tarmog'ining loyihalarini tahlil qilish va rivojlantirish;</li> <li>- korporativ tarmoqlarning tarmoq resurslarini boshqarishni ta'minlash;</li> <li>- standart protokollar stanoklari asosida dastur mijoz-server dasturlarida ishlash.</li> </ul> <p><b>Ko'nikma:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Tarmoq xizmatlarini hosil qilish;</li> <li>– korporativ kompyuter tarmog'ining loyihalarini rivojlantirish;</li> <li>– korporativ tarmoqlarning resurslarini boshqarish</li> </ul>	<p>qobiliyati, signallarni modulyasiya va demodulyasiyasi, modemlar, tarmoq xizmatlari, topologiyalari, ma'lumotlarini uzatish bayonnomalari, tarmoq operatsion sistemalari, lokal kompyuter tarmoqlari, Intranet tarmo-g'i va uning tarixi, Internet xizmatlari, Internet resurslarini yaratish dasturlari.</p> <p><b>Malaka:</b></p> <p>Kommunikatsion kanal va aloqa prosessori; signallarni modulyasiya va demodulyasiyasi, tarmoq xizmatlari, ko'prik va shlyuzlar, tarmoq topologiyalari, ma'lumotlarni uzatish bayonnomalari, tarmoq operatsion sistemalari, local kompyuter tarmoqlari va ularni boshqarish, Intranet, Internet xizmatlari, Internet va Intranet tarmoqlararo birlashmasini tashkil etish, internet interfaol resurslarni yaratish.</p> <p><b>Ko'nikma:</b> Kompyuter kommunikatsiyalarini tashkil etish, modemlar va ularni sozlash, tarmoq xizmatlarini hosil qilish, ma'lumotlarini uzatish bayonnomalari bilan ish-lash, tarmoq operatsion tizimlari bilan ishlash, lokal kompyuter tarmoqlarini tashkil etish; Intranet</p>	
				<p>kompyuter tarmog'ida ishlash; global kompyuter tarmoqlaridan</p>
				<p>foydalanish; internet axborot resurslarini yaratish.</p>

O'tkazilgan tahlillarga asoslanib Respublikamizdagi pedagogika oliy ta'lim muassasalari "Tarmoq texnologiyalari" fan dasturini Altay davlat pedagogika universiteti fan dasturidagi mavzularga moslab o'zaro integratsiyalash maqsadga muvofiq deb xulosaga kelindi. Shuningdek, malaka talablari asosida tarmoq texnologiyalariga oid zamonaviy tushunchalarni mavzular mazmuniga singdirib boyitish lozim. "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitishda o'quv materiallari tarkibiga va uni o'qitishning metodik usullariga tizimli yondashish kerak. Asosiy muammo o'quv kursi tarkibida mavzularni aniq, mantiqiy va ilmiy asoslangan holda tanlash masalasi bo'lib, bunda turli didaktik masalalardan quyidagi talablar kelib chiqadi: ishlab chiqarish bilan fanning bog'liqligi; predmetlararo va ichki predmetlararo bog'liqlik; o'quv vaqtini taqsimlash; bilimni tizimli shakllantirishdagi asosiy qoida, qonun va tushunchalar; o'quv materialining mantiqiy tahlili.

"Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitishdan asosiy maqsad, talabalarga tarmoq texnologiyalarining uslubiyati va texnologiyasi, tarmoqlarni boshqarish, tarmoqlar tuzilishini loyihalashtirish bo'yicha nazariy-ilmiy bilimlar berishdan iborat. Uning vazifasi - talabalarda tarmoq texnologiyalarining zamonaviy usullarini, tarmoq texnologiyalari va uning dasturiy ta'minotini yaratish, tarmoqni boshqarish tizimlarida ishlash bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

"Tarmoq texnologiyalari" fani ma'ruzalarida ko'proq zamonaviy nazariy ma'lumotlar berish, uning mazmunini boyitib turish talab etiladi. O'quv materiallarini tanlashda quyidagi mazmunda foydalanish mumkin: bo'lajak mutahassis shaxsini har taraflama rivojlantirish; yuqori ilmiy va amaliyligi; murakkabligi jihatdan mutahassislarning haqiqiy o'quv imkoniyatlariga mosligi; berilgan predmetni o'rganishda mavjud belgilangan soat va vaqtga mos kelishi.

Axborotlashgan ta'lim jarayonining zamonaviy tendensiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatda o'qitishning an'anaviy modelidan elektron ta'limga o'tish, so'ngra esa "smart – inson"ning shaxsini shakllantirish va ta'lim oluvchida yangi bilimlarni generatsiya qilishga ijozat beruvchi samarali texnologiyalari mavjud, qaysiki qidirish, axborotni tahlil etish va innovatsiyalar yaratish uchun takomillashgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ega bo'lgan SMART – ta'limga o'tishni taqazo etadi.

Xorijiy mamlakatlarda bugungi kunda SMART–texnologiyalar va IoT - "buyumlar interneti" ning ta'lim jarayonida qo'llanilishi haqida to'xtalib o'tamiz.

Singapur politexnika universitetida "Aqlli kampus" mavjud bo'lib, unga kirgan har bir talaba elektron konserj tomonidan identifikatsiya qilinadi. Elektron konserj – bu Internet xizmati tizimi bo'lib, turli sohalar bo'yicha tezkor ma'lumotlar olish,

so‘rovlarga javoblar, navigatsiya va boshqa xizmatlarni bajaradi. Bu tizim talabalarni institutadagi yangiliklar, professor - o‘qituvchilar tomonidan tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi. Ma‘lumotlar tahlili mukammal tizimlashgan bo‘lib, hatto, kurs ishlarini o‘z vaqtida topshira olmaydigan talabalarni oldindan aniqlab, ular haqida fan o‘qituvchilarini xabardor qilishga imkon beradi.

Avstraliyaning Jon Kertin nomidagi universitetida buyumlar internetidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tizim yordamida olingan ma‘lumotlar asosida auditoriya va kutubxonalar bandligi, davomat hamda professor - o‘qituvchilar va talabalar kundalik hayoti to‘g‘risida xulosalar qilinadi.

Malayziya texnologik universitetida esa sun‘iy intellekt asosida ta‘limning boshidan to oxiriga qadar talabalar haqida ma‘lumotlar yig‘adi. Bunday kuzatuv yordamida ularning mashg‘ulotlardagi ishtiroki o‘rganiladi va bu ma‘lumotlar keyingi qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Sun‘iy intellekt orqali o‘tilgan dars mashg‘ulotlar tahlil etib, uni sifatini yanada oshirish yo‘llari haqida maslahatlar beradi.

Yaponiyada o‘quvchilar virtual reallikning to‘la komplektidan foydalanib, “virtual maktab” ga qatnashishlari, smartfonlar uchun chiqarilgan maxsus dastur yordamida o‘qituvchilarni tinglashlari va testlar topshirishlari, alohida tashkil etilgan platforma orqali boshqa maktab o‘quvchilari bilan muloqot qilishlari mumkin. O‘quvchilarga alohida o‘qituvchilar birlashtirilgan bo‘lib, o‘quvchilar ulardan o‘z savollariga telefon yoki elektron pochta orqali javob olishlari, zarurat tug‘ilganda o‘qituvchi bilan uchrashishlari ham mumkin.

AQSHning Kaliforniya shtati San-Fransisko shahridagi Sweet Rush tizimi (<http://www.sweetrush.com/>) elektron va mobil ta‘lim uchun ta‘lim echimlarini ishlab chiqadi va sinovdan o‘tkazadi. O‘qituvchi – yo‘riqchi rahbarligida real vaqt rejimida qayta muloqot qilish imkonini beradigan individual ta‘lim olish mumkin. Kurs musobaqali o‘yinlar va audio - video animatsiyalar kabi vositalardan tashkil topgan bo‘lib, ular ishtirokchilarni ko‘plab jalb qilishga yordam beradi.

Buyuk Britaniyaning Ueymut shahrida Magicard tizimi talabalar uchun turli xildagi smart kartalar ishlab chiqaradi. Ushbu kartalar IoT (Internet of things) [149] lar yordamida talabani autentifikatsiya qiluvchi nazorat tizimlariga ulanadi. IoT lar yordamida talabalar turli xil manbalarga (kurs ishlari, masofaviy ta‘lim uchun elektron resurslar va boshqalarga kirishga va ulardan foydalanishga ruxsat oladilar, turli xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshiradilar.

Shunday qilib, “SMART–ta‘lim” bo‘lajak mutaxassis shaxsi rivojlanishi imkoniyatlarini kengaytirib, ularda zarur bo‘ladigan ijodiy salohiyatini shakllantiradi. Bunda SMART–texnologiyalar va “buyumlar internet” (IoT) ta‘limda o‘qitishning asosiy yordamchi vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Ta‘kidlash lozimki, mamlakatimizda SMART– texnologiyalar va IoT–buyumlar interneti vositalaridan



ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha konsepsiya va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan aniq metodik tavsiyalar hali ishlab chiqilmagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A., Tursunov S.O. Ta'limda axborot texnologiyalari. Pedagogika universitetli magistrantlari uchun darslik. T. "Adabiyot uchqunlari", 2019.- 340 b.
2. Слостенин В.А. О моделировании образовательных технологий. // Наука и школа. 2000.-№4. - с. 48
3. Aripov M., M.Fayziyeva, S.Dottayev. Web texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.; "Faylasuflar jamiyati". 2013.
4. Mahmudov A. K. et al. Didactic Potential of Chess Game and Its Influence on Student Achievement //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – Т. 17. – №. 6. – С. 11088-11098.
5. Xodjiev M. T., Maxmudov A. X., Raximov B. X. Didactic potential of the chess game and its impact on students'academic performance //Bulletin of Gulistan State University. – 2019. – Т. 2020. – №. 2. – С. 3-12.
6. Джураев Р. Х., Махмудов А. Х., Камилова А. Б. Шахматы-как эффективное средство непрерывного формирования и развития творческих способностей детей //Узлуксиз таълим. – 2019. – №. 3. – С. 58-64.
7. Sh.Ziyayev. Internet ta'lim resurslari va ulardan o'quv jarayonida foydalanish // Fizika, matematika va informatika Ilmiy uslubiy jurnal. – 2022 №. 3 (3). – С. 129-135.
8. Sh.Ziyayev. Ta'limda internet texnologiyalaridan foydalanishning afzaliklari va kamchiliklari // Таълим жараёнига рақамли технологиялар ва замонавий усулларни жорий этишда таълим сифатини бошқариш муаммолари мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман.-2022. В. 382-385.

**IJTIMOYIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI****Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li**

Termiz davlat pedagogika instituti

[najibullo.sayfullayev@mail.ru](mailto:najibullo.sayfullayev@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada terminologiya sohasidagi dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy terminlar haqida fikr yuritiladi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarga berilgan ta’riflar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy, siyosiy, terminologik, terminologiya, terminlar, sof o‘zbek(turkiy)cha ijtimoiy-siyosiy terminlar.

**Abstract.** This article discusses socio-political terms, which are one of the current directions in the field of terminology. Definitions of socio-political terms are analyzed.

**Key words:** social, political, terminological, terminology, terms, purely Uzbek (Turkish) socio-political terms.

Ijtimoiy-siyosiy termin tushunchasiga ta’rif berishdan avval ushbu tushunchadagi har bir so‘zning ta’rifini keltirishni joiz deb topdik.

IJTIMOYIY [a. jamoa, jamiyatga oid]

**1** Inson va jamiyat hayotiga oid. *Ijtimoiy tuzum. Ijtimoiy taraqqiyot. Ijtimoiy ishlab chiqarish. Ijtimoiy munosabatlar.*

**2** Jamiyatdagi tabaqa, sinf va sh.k. ga mansublikni belgilovchi. *Ijtimoiy guruhlar. Aholining ijtimoiy guruhlari. Ijtimoiy kelib chiqish.*

**3** Jamiyat bilan bog‘langan, jamiyatga, jamoatchilikka oid. *Ijtimoiy harakat. Ijtimoiy fikrning rivoji. Ijtimoiy mehnat.*

**4** Jamiyatning, jamoatchilikning ehtiyojlari uchun ixtiyoriy (evazsiz) xizmat etuvchi. *Ijtimoiy tashkilot. Ijtimoiy ta’minot. Ijtimoiy topshiriq. Ijtimoiy ishlar.*

**5** Jamoatchilikka tegishli, jamoatchilik o‘rtasidagi. *Ijtimoiy mulk. Ijtimoiy munosabatlar.*<sup>1</sup>

SIYOSIY [a. siyosatga, diplomatiyaga doir] Siyosatga oid, siyosat bilan bog‘liq bo‘lgan, siyosat sohasidagi. *Siyosiy masala. Siyosiy partiya. Siyosiy sharhlovchi.*

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2-жилд, 2007.

2 Davlatga, davlatchilikka va fuqarolik haq-huquqiga oid. *Siyosiy tuzum. Siyosiy huquq.*<sup>1</sup>

Ushbu keltirilgan izohlarga tayangan holda ijtimoiy-siyosiy terminga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Ijtimoiy-siyosiy termin lug'aviy sistemaning jamiyat siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bevosita aloqador bo'lgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda, ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma'naviy-ma'rifiy kabi omillar asosida shakllanuvchi o'zgaruvchan qatlamidir".

TERMINOLOGIK Terminologiyaga, terminlarga oid. *Terminologik lug'at. So'zning terminologik ma'nosi. Determinlashish — terminologik sistemadagi so'zning adabiy tilga to'la o'zlashishidir. "O'TA"*<sup>2</sup>.

TERMINOLOGIYA [lot. terminus - chegara + yun. logos — fan. ta'limot] 1 Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasida qo'llanadigan terminlar majmui. *Texnika terminologiyasi. Harbiy terminologiya. Ilmiy terminologiya. O'zbek tili terminologiyasi. Qori aka fanlar ichida avvalo matematikani sevib o'rganadi va uning o'zbekcha terminologiyasini ishlab chiqadi. M.O'rozboev, Mo'jizalar olami. 2 Tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasi. Terminologiya mutaxassisi. Terminologiya bo'limi. Seminar rus va o'zbek tillarining fonetikasini qiyosiy o'rganish, orfoepiya, terminologiya va leksikologiya masalalariga alohida e'tibor beradi. "O'TA"*<sup>3</sup>.

Termin so'zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunos(logik)lar uchun termin-aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin.

Fan va texnikada termin - sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o'laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi.

Termin va terminologik leksika tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur.

Terminlarning qo'llanish, tarqalish ko'lami muayyan terminologik sistema bilan cheklangan bo'lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi.

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 3-жилд, 2007.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 4 жилд, 2008.

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 4 жилд, 2008.

Terminologik leksika o'z tarkibiga tor mutaxassislik doirasidan ommaviy mulqot doirasiga ko'chgan noprofessional nutqiy kontekstda keng qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini qamrab oladi.

Umumadabiy til doirasiga o'tgan termin o'z terminologiyasi, terminologik maydoni va sistemasidan yiroqlashadi, terminlik xarakteristikasidan ajralib qoladi.

“Termin ta'rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pdan-ko'p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta'riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida tavsiflanadi”<sup>1</sup>.

O.Vinokurning fikricha<sup>2</sup>, termin - doimo aniq va ravshan. Terminlar tizimi tilni ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyojning mavjudligi tufayli yaratiladi.

A.S.Gerdning mulohazasiga ko'ra termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir<sup>3</sup>.

O.S.Axmanovanning ta'kidlashicha, “terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflashning mumkin emasligidadir. V.G.Gak terminning ta'rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e'tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir qo'rinishi, degan g'oyani ilgari suradi”<sup>4</sup>.

Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos ketegorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi.

Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to'siqlar, yasaliş prinsiplari va usullari xususida turfa g'oyalar, nuqtai nazarlar ko'zga tashlanadi.

Termin so'zi interpretatsiyasining substansional, funksional, dervatsion, semantik va pragmatik prinsiplari e'tirof etilmoqda.

<sup>1</sup> Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. –Toshkent: 2019.

<sup>2</sup> Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.%. Сборник статей по языкознанию. - М., 1961.

<sup>3</sup> Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно-техническая информация. Серия 2.-М.,1991.

<sup>4</sup> Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. –Toshkent: 2019.

Substansional nuqtai nazar vakillariga ko‘ra termin maxsus so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, boshqa nominativ birliklarga nisbatan bir ma‘noliligi, aniqligi, sistemliligi, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turadi.

“Funksional nuqtai nazarga binoan terminlar maxsus so‘z emas, balki maxsus funksiyaga ega so‘zlardir; terminning o‘rni(rolini)ni istalgan so‘z bosishi, o‘ynashi mumkin.

Derivatsion nuqtai nazar terminlarning yasash jarayonlari bilan chambarchas bog‘langan. Ushbu g‘oya tarafdorlarining fikricha, termin nafaqat oddiy so‘zning varianti, shuningdek, yangi, o‘ziga xos spetsifik belgilarga ega maxsus yasalgan birlik sifatida ham tan olinadi. Yangi terminlarning yuzaga chiqish sabablari yangi realiyalarni ifodalash ehtiyoji bilan baholanadi.

Terminga muayyan talablar qo‘yiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy so‘zlardan ajratib turadi”<sup>1</sup>.

“Umuman, tilshunoslikda ijtimoiy-siyosiy terminlarning tushunchaviy bahosi yetarli o‘rganilmagan. Bu boradagi tadqiqotlar asosan ijtimoiy-siyosiy terminlar semantikasidagi mafkuraviy konnotatsiya masalalari bilan cheklanib qolgan. Xullas, ijtimoiy-siyosiy holat yoxud subyektga nisbatan til egasining ijtimoiy munosabatidan kelib chiqib, ijtimoiy manfaat hamda me‘yorlarga mos kelish yoki kelmasligiga ko‘ra tushuncha “qobig‘i”da ijobiy yoki salbiy baho bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy terminlar shakllanishi mumkin”<sup>2</sup>.

Ona tilimizga davlat tili maqomi berilishi o‘zbek xalqi tarixida unutilmas bir voqea bo‘lish barobarida mustaqillikdan keyin uning mavqei yanada oshdi. Mana o‘ttiz uch yildirki ona tilimizning qo‘llanish doirasi kengayib, ilmiy va rasmiy til sifatida ishlatilmoqda hamda ma‘lum bir me‘yorga solinmoqda. O‘zbek tilshunosligida bu borada ko‘plab ishlar qilindi. Chunonchi, terminologiya bo‘yicha bir qator monografik tadqiqotlar yaratildi. Umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus hamda oliy o‘quv yurtlari o‘quvchi va talabalari uchun ona tili darsliklari yozildi. Sakson mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nashr etildi. Tilimizda mavjud bo‘lgan chet (ruscha-baynalmilal) so‘z va terminlarning o‘rniga o‘zbekcha muqobillari bilan almashtirish ishlari ham sinchkovlik bilan olib borilmoqda. Sho‘rolar davrida eskirgan deb iste‘moldan chiqarilgan ba‘zi so‘z va terminlar qaytadan muomalaga kiritilmoqda. Bu sohada tilshunos olimlarimizdan tortib oddiy

<sup>1</sup> Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. –Toshkent: 2019

<sup>2</sup> Шаропова Р. Ижтимоий-сиёсий терминларда тушунчавий баҳонинг ифодаланиши. //Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования. Сборник статей по материалам ХХИ международной научно-практической конференции. Москва. 2019

fuqarolargacha faol qatnashmoqdalar. Mazkur xayrli ishni amalga oshirishda matbuot, radio va televideniye xodimlarining baholi qudrat olib borayotgan ishlarini ham qayd etish lozim. Aslida, tilda soʻzlarning qoʻllanishi erkin holda boʻladi, majburiylikni xalq qabul qilolmaydi. Singib keta bilmagan soʻzlar sekinlik bilan muomaladan chiqadi. Jamiyatdagi oʻzgarishlar birinchi oʻrinda tilda aks etgani bois, tilda ularni ifodalash uchun ehtiyoj tugʻiladi. Muqobili izlab topilmasa, u haqida qaygʻurilmasa, yaʼni nazorat qilinmasa, terminning maʼno-mohiyatini tushunishda anglashilmovchilik va yanglishliklar yuz berishi mumkin. Terminologiya sohasida baʼzi bir chalkashliklarga ham yoʻl qoʻyilayotganini qayd etish lozim. Oʻzbek tiliga oʻzga tillardan kirib kelgan soʻzlarning muqobilini topishda shoshmasdan ish tutish, ularning oʻrniga muqobil sifatida taklif etilayotgan arabcha-forscha soʻzlarni qabul qilishni ham imkoni boricha jiddiy oʻylab koʻrish zarur deb hisoblaymiz. Toʻgʻri, ota-bobolarimizdan qolgan maʼnaviy-maʼrifiy qadriyatlarning koʻp qismi arab va fors tillarida yoki eski oʻzbek yozuvida yozilgan. Shu bois ularni oʻrganish ham zarur. Ammo ona tilimizda muqobili boʻlgan oʻzbekcha (turkiycha) soʻz va terminlar oʻrnida chet tillariga tegishli variantlarni ishlatish unchalik toʻgʻri boʻlmasa kerak. Baʼzi ziyolilarning adabiy tilda mavjud yoki avval qabul qilingan arabcha va forscha soʻz hamda terminlarni isteʼmoldan chiqarishning iloji yoʻq degan roʻkach keltirishlarini ham oqlash nooʻrin. Albatta, bularni inkor qilmagan holda baynalmilal soʻz va terminlarning muqobili mavjud boʻlmaganlarini qoldirib, qolganlarini imkoni boricha oʻzbekchalashtirish yoʻllarini qidirishimiz kerak.

Tilshunoslikda ijtimoiy-siyosiy terminologiya boʻyicha ham turli xil qarashlar mavjud. Bu qarashlarni 3 guruhga ajratish mumkin:

- Tasviriy-sinxronik yoʻnalishdagi ijtimoiy-siyosiy terminlar;
- Tarixiy-diaxronik yoʻnalishdagi ijtimoiy-siyosiy terminlar;
- Qiyosiy-tipologik yoʻnalishdagi ijtimoiy-siyosiy terminlar kabi.

Bir necha tadqiqotlar birinchi yoʻnalishda bajarilgan. Maʼlumki, ijtimoiy-siyosiy leksemasini tarixiy-diaxronik yoʻnalishda oʻrganilishi tilshunoslarimiz nazaridan chetga qolib kelmoqda. Ushbu sohadagi maxsus ishlar deyarli yoʻq darajada. Mavjud ishlarda esa, ayrim soʻzlarning tarixini talqin qilish bilan chegaralangan, xolos. Tadqiqotlarni tahlil qilish jarayonida shu narsa maʼlum boʻldiki, ijtimoiy-siyosiy leksika hamda ijtimoiy va siyosiy terminlar boʻyicha olimlarning fikr-mulohazalarida birlik yoʻq, bu masalada aniq bir xulosaga kelinmagan.

Hozirgi oʻzbek tilining lugʻat qatlamida ijtimoiy siyosiy terminlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati<sup>1</sup>da etimologiyasi sof oʻzbekcha

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.

(turkiycha) bo'lgan ijtimoiy-siyosiy terminlar juda ozchilikni tashkil qiladi (hisob-kitobimizga ko'ra ularning soni 35-40 atrofida). Bular quyidagilar:

Ajrim, ayg'oqchi, bayroq, beka, bekach, bitim, boshboshdoqlik, buyruq, yarog', yig'im, yig'in, yov, yorliq, yo'riq, yo'qlama, kengash, ocharchilik, sayla, soliq, soqchi, surgun, so'm, tamg'a, tinchlik, tuman, tutqun, xon, xoqon, chegara, elchi, erk, erkinlik, o'rda, qamal, qardosh, qo'zg'alon, qo'shin.

Ushbu leksemalarning ma'lum qismi ayni paytda iste'moldan chiqib ketgan yoki chiqib ketmoqda.

Bu juda achinarli holat. Ayni paytda tilimizda foydalanilayotgan ijtimoiy-siyosiy terminlarning ko'pchilik qismini boshqa tillardan kirib kelgan yoki morfologik va sintaktik usullar yordamida yasalgan yasalmalar tashkil qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.%. Сборник статей по языкознанию. - М., 1961.
2. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно-техническая информация. Серия 2.-М.,1991.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 2-4 жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007-2008 й
5. Dadaboyev N. O'zbek terminologiyasi. –Toshkent: 2019
6. Шаропова Р. Ижтимоий-сиёсий терминларда тушунчавий баҳонинг ифодаланиши. //Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования. Сборник статей по материалам ХХИ международной научно-практической конференции. Москва. 2019

## IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Teshaboyeva Mohigul Eldorjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti

Iqtisodiyot yo‘nalishi 4-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

*Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Mazkur maqolada bugungi kunning rivojlanishi uchun hamda taraqqiy topishida innovatsiyalarning nechog‘lik muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida keltirib o‘tilgan.*

*Сегодня мы находимся на пути инновационного развития, направленного на коронное обновление всех сфер жизни государства и общества. В данной статье приводятся сведения о важности инноваций для развития и развития сегодняшнего дня, а также о преимуществах в финансировании инновационных проектов .*

*Today we are on the path of innovative development aimed at radical renewal of all spheres of life of the state and society. This article discusses the importance of innovation for the development of the present day and its development, as well as the benefits of financing innovative projects.*

**Kalit so‘zlar:** *innovatsiya, modernizatsiya, infratuzilma, kredit, investitsiya, bank, foiz, resurs, kashfiyot, moliyalashtirish.*

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o‘zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o‘ylab topishdan, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter, quyosh va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Innovatsiya, ta’rifiga ko‘ra, yangi narsani kiritishdir. Yangiliksiz, yangi narsa bo‘lmaydi va hech qanday yangilik bo‘lmasa, hech qanday taraqqiyot bo‘lmaydi. Innovatsiya haqiqatan ham zamonaviy mavjudlikning asosiy sababidir. Innovatsiya ba’zi nojo‘ya oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lsa -da, o‘zgarish muqarrar va ko‘p hollarda yangilik ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyot ishlab chiqarishni ko‘paytirishning ikki yo‘li mavjud:

Birinchi ishlab chiqarish jarayoniga kiradigan kirishlar sonini ko‘paytirish;



Ikkinchisi innovatsiyaning mohiyatini juda yaxshi tasvirlaydi. Innovatsiyaning maqsadi - yangi g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, natijada hosildorlikni oshiradi va bir xil kirish bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqaradi.

Iqtisodiyotda texnologiya mamlakatlar, mintaqalar va shaharlar iqtisodiy o'sishining asosiy omili ekanligi ko'pchilik tomonidan qabul qilinadi. Texnologik taraqqiyot ko'proq va sifatli tovarlar va xizmatlarni yanada samarali ishlab chiqarish imkonini beradi, farovonlik bunga bevosita bog'liq.

#### **Texnologiyalar orqali yutuqlar:**

Natijalarni maksimal darajada oshirish.

Ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish.

Yuqori o'sish sur'atlariga erishish.

#### **Texnologik taraqqiyotning mazmuni esa quyidagicha:**

Texnologik yaxshilanishlar mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi;

Bir sohadagi texnologiya taraqqiyoti boshqa tarmoqlarda ham imkoniyatlar yaratishi mumkin;

Rivojlanish texnologik taraqqiyot tufayli ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini ham pasaytirishi mumkin;

Texnik taraqqiyot jamiyat va uning odamlari uchun muhim afzalliklarni ham amalga oshirishi mumkin;

#### **Iqtisodiy rivojlanish uchun yechimlar:**

Eksportning o'sishi -ishlab chiqarishda qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish cheklangan bozor hajmini hal qiladi.

Sanoatlashtirish -ishlab chiqarishni jihozlashning takomillashtirilgani qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ko'paytirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etish iqtisodiyotning barcha biznes tarmoqlarining asosiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, rivojlanayotgan mamlakatlar innovatsiyaga bog'liq, chunki yangi raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar dunyoning eng qashshoq mintaqalarida kasallik, qashshoqlik va ochlikka qarshi kurashish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Rivojlangan davlatlar ham bu mavzular bilan bog'liq o'z muammolarini hal qilish uchun innovatsiyaga tayanadi. Ochlikni kamaytirishga, masalan, qishloq xo'jaligining hosildorligi, aholining keyingi o'sishi ehtimoli yuqori bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi kichik fermer xo'jaliklari muhim rol o'ynaydi, chunki oziq -ovqat mahsulotlarining 80% bu jamoalarda ishlab chiqariladi.

Iqtisodiy o‘shish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradigan va ishlab chiqarishni ko‘paytirishga imkon beradigan innovatsiyalar va texnologik takomillashtirishga bog‘liq. Agar biz tashkilot nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, turli xil avtomatlashtirish yechimlari qo‘lda, takrorlanadigan ishni kamaytiradi va muhimroq, qiymat yaratadigan vazifalar uchun vaqtni kamaytiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ishni yanada mazmunli qiladi, chunki kam ta‘sirli vazifalarga kamroq vaqt sarflash kerak. Sizning biznesingizga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan, masalan, jarayonlarni takomillashtirish, muammolarni hal qilish yoki mijozlaringiz bilan suhbat qurishga qanchalik ko‘p vaqt sarflasangiz, xarajatlarni kamaytira olasiz, tovar aylanmasini ko‘paytirasiz va ta‘minlaysiz. Sizning mijozlaringiz ularga haqiqatan ham foyda keltiradigan yechimlar bilan ta‘minlanishadi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu bozorda mahsulotlarni katta ishlab chiqarishga yordam beradi va xalqaro mijozlar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Texnologiya xalqaro biznes bilan aloqani rivojlantirdi, bu biznesni butun dunyoda muvaffaqiyat bilan gullab-yashnamoqda. Salbiy jihati shundaki, mexanizmlar joriy etilgani tufayli ishchilarga talablar kamaymoqda, bu esa mamlakatda ishsizlikni keltirib chiqarmoqda, biznesni samarali olib borish uchun dastgohlar o‘rnatilgani tufayli boshqa joyga ko‘chirilgan ishchilar bor. Texnologiyadan foydalanish ishchining hayotiga va ularning daromad manbaiga ta‘sir qilmasligi uchun nazorat ostida amalga oshirilishi kerak. Aks holda, texnologiya mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish zid ta‘sir qilishi mumkin. Ammo shuni yodda tutingki, texnologiya bizni keraksiz bo‘lgan har qanday jismoniy ishni bajarishdan to‘xtatadi, shuning uchun biz texnologiyadan kerak bo‘lganda yordam olishimiz kerak, chunki biz texnologiyalarning mavjudligini suiiste‘mol qilmasligimiz kerak. Global tebranishlar va yetarlicha xavfsizlikning yo‘qligi sababli mamlakat iqtisodiyotining ortib borayotgan ekspozitsiyasi iqtisodiyotda salbiy holatni keltirib chiqarmoqda[4]. Rivojlanish uchun texnologiyalar ishlab chiqaradigan mamlakatlar boshqa mamlakatlarga iqtisodiy ustunlik olib keladi. Ta‘lim xalqqa bilim berib, uning yangi taraqqiyot sharoitlariga moslashishiga yordam berib, iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo‘shishi mumkin. Texnologiya ish joylarini yo‘q qiladi va xodimlarni yollashni to‘xtatadi, lekin boshqa tomondan, ular imkoniyatlar yaratadi va ularga tashkilot uchun zarur bo‘lgan boshqa vazifalarni o‘rgatadi. Elektron tijoratning joriy etilishi zamonaviy iqtisodda tijoratning o‘lchovlarini va texnologiyalarning rivojlanishi tufayli uning rivojlanishini ham o‘zgartirdi. Texnologiya bilan shug‘ullanayotganda yodda tutish kerak bo‘lgan yana bir narsa bor: ko‘r bo‘lmang va oldinga chiqadigan har bir texnologiyani tanlang, iqtisod va mamlakatda mavjud texnologiyani oqilona

saqlaydigan texnologiyani tanlang. Oqim bilan bormang va boshqa mamlakat tanlayotganini tanlang. Ehtimol, bizda boshqalarda bor narsa yo‘qdir yoki bizda ularda yo‘q narsa allaqachon mavjud. Texnologiyani tanlash, uni amalga oshirishni rejalashtirishdan oldin ham juda muhimdir. Biz butun mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritadigan texnologiyalarni sotib ololmaymiz, lekin arzonroq va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun foydali bo‘lgan texnologiyalarni topishimiz kerak.

Garchi bizning innovatsion faoliyatimiz dunyoni qutqarish uchun yetarli darajada kuchli bo‘lmasa-da, biz ta’sir qila oladigan narsalarni yaxshilashga e’tibor qaratishimiz kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mamlakatlar tanazzuli sabablari, Daron Ajemo‘g‘li; Jeyms Robinson 2021-yil.
2. Acs, Z.J., Estrin, S., Mickiewicz, T. and Szerb, L., 2018. Entrepreneurship, institutional economics, and economic growth: an ecosystem perspective.
3. Aghion, P., Jones, B.F. and Jones, C.I., 2019. Artificial Intelligence and Economic Growth . Chikago universiteti nashriyoti.
4. Nordhaus, W., 2019. Climate change: The ultimate challenge for economics. American Economic Review.

## O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Teshaboyeva Mohigul Eldorjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti iqtisodiyot yo‘nalishi 4-kurs talabasi

*Annotatsiya: Tijorat banklari faoliyatini tashkil etish, qo‘shish va qayta tashkil etishning huquqiy asoslari, bank infratuzilmasining mazmuni va uni tijorat banklarida tutgan o‘rni.*

*Kalit so‘zlar: bank infratuzilmasi tutgan o‘rni, holati va ko‘rsatkichlari, bankni tashkil etish bo‘yicha biznes rejaning maqbulligi, bank ustav kapitali miqdori.*

Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo‘lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Tijorat banklarini tashkil qilish 11 fevral 1999 yilda qabul qilingan “Banklarni ro‘yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to‘g‘risida”gi 630-sonli Nizom asosida olib borilar edi. Bu qonunga 2009 yil 15 avgustda 703-son bilan o‘zgartirish kiritilgan va hozirda banklar ushbu qonun asosida tashkil etilmoqda.

**Litsenziya berish yuzasidan qaror qabul qilishda quyidagilar asosiy omil bo‘lib hisoblanadi:**

- bankni tashkil etish bo‘yicha biznes rejaning maqbulligi;
- bank ustav kapitalining yetarliligi va qonun xujjatlariga muvofiq shakllantirilganligi;

**Bankni tashkil etish to‘g‘risidagi ta‘sis shartnomasida quyidagilar bo‘lishi lozim:**

- bankni ta‘sis etish borasida birgalikda faoliyat ko‘rsatish tartibi;
- bank ustav kapitali miqdori;
- muassislar o‘rtasida joylashtirilishi lozim bo‘lgan aksiyalar turlari, ularning nominal qiymati, har xil turdagi aksiyalarning nisbati, ularni to‘lash miqdori va tartibi;

***Bank tashkil etish jarayoni bir necha bosqichlarga bo‘linishi mumkin:***

**1. Tayyorgarlik bosqichi.** Bu davrda bank muassislari o‘rtasida bank tashkil etishga kelishiladi, tashabbus guruhi tuziladi, har bir muassisning ustav kapitaliga qo‘shilgan ulush miqdori belgilab olinadi, bankning ta‘sis xujjatlari majmui tayyorlanadi, bankning nomi aniqlanadi, ta‘sischilar o‘rtasidagi kelishuvlar dastlabki shartnoma tarzida rasmiylashtiriladi, uning asosida ta‘sis shartnomasi tuziladi

(Fuqarolik kodeksining 43-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi «Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari haqida»gi qonunning 3-moddasi) aksiyadorlik tijorat banklarining muassislari bank davlat ro‘yxatiga olinguniga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar yuzasidan birgalikda javobgar bo‘ladilar.

**2. Bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bosqichi.** Bu bosqich uch davrni o‘z ichiga oladi:

**1) Bank ochish haqidagi ariza bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojat qilish. Bunda arizaga quyidagi xujjatlar ilova qilinishi kerak:**

- yangi tashkil etilayotgan bankni ta‘sis etish bo‘yicha xujjat;
- muassislar tomonidan imzolangan va ularning muhrlari bilan hamda notarial tartibda tasdiqlangan ta‘sis shartnomasi. Ta‘sis etuvchilar jismoniy shaxs bo‘lganlarida ularning imzolari notarial tasdiqlanadi;

**2) Markaziy bankka muassislar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar:** bank kengashi a‘zolari ro‘yxati (kengash raisi, uning birinchi o‘rinbosari) ko‘rsatilgan holda ushbu shaxslarning Markaziy bank talablariga muvofiq kelishlarini tasdiqlovchi ma‘lumotlar, yangi tashkil etilayotgan bankning tashkiliy tuzilishi, “Ichki audit to‘g‘risida”gi Nizomi, “Kredit siyosati to‘g‘risida”gi Nizomi, biznes rejasi, ariza topshiruvchining muassislar nomidan ariza topshirish vakolatini tasdiqlovchi xujjat, tashkil etilayotgan joydagi Markaziy bank bosh boshqarmasining bank tashkil etishning maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosasi, muayyan hududida bank tashkil etish mo‘ljallanayotganligi haqida mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga berilgan bildirishning nusxasi ham topshirilishi lozim.

Tijorat banki filialini tashkil etish paytida ham ushbu xujjatlar (ta‘sis xujjatlaridan tashqari) taqdim etilishi kerak bo‘ladi.

**3) Xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banki tashkil etilayotganda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xujjatlarga qo‘shimcha ravishda yana quyidagilar taqdim etilishi talab etiladi:**

- tegishli xorijiy muassisning bank tashkil etishda ishtirok qilishi haqidagi qarori;
- norezident bankning O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan ustavi;

**Bank ifratuzilmasining mazmuni va uni tijorat banklarida tutgan o‘rni**

**Infratuzilma** (lotincha: *infra* – “ostida”) deganda ishlab chiqarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayoti faoliyati uchun zarur bo‘lgan me‘yoriy sharoitni ta‘minlashga xizmat qiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi sohalar (tashkilot, korxonalar va muassasa) majmui, nomoddiy ishlab chiqarish sektori tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunning birinchi moddasida ta’kidlanganidek «Bank – bu tijorat muassasasi bo‘lib jismoniy va huquqiy shaxslarning bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qilish va ularni o‘z nomidan to‘lovlilik, muddatlilik, qaytarib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi».

**1-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining iqtisodiyotdagi ulushi**  
(mlrd. so‘m)

Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar kesimida		
	01.01.2020 y.	01.01.2021 y.	01.01.2022 y.
YaIM	302536,8	407514,5	511838,1
Bank aktivlari	166631,8	214419,6	272726,9
Aktivlarning YaIMga nisbati, foizda	55,1	52,6	53,3
Kredit qo‘yilmalari	110572,1	167390,6	211580,5
Kredit qo‘yilmalarining YaIMga nisbati, foizda	36,4	41,1	41,3
Depozitlar	59578,7	70001,4	91009,0
Depozitlarning YaIMga nisbati, foizda	19,7	17,2	17,8
Kapital	20676,1	26678,9	51030,7
Kapitalning YaIMga nisbati, foizda	6,8	6,5	10,0

**2-jadval**

**Tijorat banklarining kredit qo‘yilmalari qoldig‘i**  
(1-yanvar holatiga)

Bank turlari	2020 yil		2021 yil		2022 yil	
	summasi (trln. so‘m)	Ulushi (foizda)	summasi (trln. so‘m)	ulushi (foizda)	summasi (trln. so‘m)	ulushi (foizda)
Davlat ulushiga ega banklar	97,78	88,43	148,60	88,83	185,83	88,38
Kapitalida davlat ulush bo‘lmagan banklar	12,79	11,57	18,69	11,17	24,40	11,62
Jami banklar	110,57	100,0	167,29	100,0	210,03	100,0

## XULOSA

Olib borilgan ilmiy tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda ipotekali kreditlash amaliyotining takomillashtirish borasida bir qator dolzarb, yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo'lib, ulardan asosiylari fikrimizcha, quyidagilardan iboratdir:

**1. Banklarning o'ziga xos xususiyati** shundaki, ular o'z mablag'lari bilangina emas, balki omonatchilar va kreditorlar, aktsiyadorlar hamda mijozlar ularga ishonib topshirgan mablag'lar bilan, ya'ni keng jamoatchilik bilan ish ko'radi.

**2. Tijorat banklari** bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar huquqiy va jismoniy shaxslarga xizmatlarni ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi pog'onasi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi (yangi taxrir). – T. O'zbekiston. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to'g'risida”gi qonuni. –T. 2006 yil 15 sentyabr, O'RQ-50-son
3. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. –T., 2012 yil 2 may, O'RQ-328-son
4. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonuni. –T., “O'zbekiston”, 1996
5. O'zbekiston Respublikasining “Markaziy banki to'g'risida”gi qonuni. 1995 yil 21 dekabr (Yangi taxrir 2019 yil 11 noyabr).

## NUTQ SIGNALINI PARAMETRLASHNING MFCC ALGORITMI

**Xujayarov Ilyos Shiraliyevich**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali

[i.khujayorov@samuit.uz](mailto:i.khujayorov@samuit.uz)

**Xafizova Shahnoza G'ulomovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

[xafizovashahnoza@gmail.uz](mailto:xafizovashahnoza@gmail.uz)

### ANNOTATSIYA

*Nutq signalini parametrik ifodalashda MFCC algoritmining qo'llanilishi*

**Kalit so'zlar:** MFCC, xemming oynasi, FFT, mel-kepstral koeffitsient, mel-chastota.

### KIRISH

Nutqni tanib olish tizimlarini ishlab chiqishda nutq signallarini parametrik ifodalashda optimal usullardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Nutq signalini parametrik ifodalashda signal fragmentarini spektral tahlil qilish hamda ularning kepstral xususiyatlarini hisoblashda eng ma'quli.

**Mel-chastota kepstral koeffitsientlar(mel-frequency cepstral coefficients, MFCC) algoritmi.** MFCC belgilari yozib olingan nutq signallaridan ajratib olinadi. MFCC algoritmi fonogramma va spektral almashtirish algoritmlari natijasidan foydalanadi.

Quyida algoritmning bajarilish bosqichlari keltirib o'tilgan.

1. *Dastlabki filtrlash.* Nutq signali diskretlash jarayonidan o'tgandan so'ng, nutq signalining silliqlangan spektral shaklini olish uchun filtrnadi. Dastlabki filtr quyidagi tenglamada keltirilgan:

$$y(n) = x(n) - ax(n-1), \quad (1)$$

bunda  $a$  dastlabki filtrning konstanta qiymati  $0.9 < a < 1.0$ .

2. *Freymga ajratish bloki.* Dastlabki filtrlash amalga oshirilgandan so'ng nutq signali davomiyligi 16 msek bo'lgan freymlarga ajratiladi. Har bir freym(birinchi freymdan tashqari) o'zidan oldingi freymning oxirgi 10 msek qismini o'ziga qo'shib oladi. Ushbu jarayon signal oxirigacha amalga oshiriladi. Ushbu ishda nutq signalining diskretlash chastotasi 16 kGs bo'lganligi sababli bizda freym uzunligi  $N=256$  ta siljitish uzunligi  $M=160$  ta qiymatlardan iborat. Siljitish uzunligi(overlap) freym



uzunligining 62.5% ni tashkil etadi. Odatda freym uzunligining 50 - 75% gacha qamrab olishi tavsiya etiladi.

3. *Oynadan o'tkazish.* Ajratilgan freymlar bo'yicha buzilishlarni kamaytirish va ularni silliqlash uchun vazn oynasidan foydalaniladi:

$$w_n = 0.54 - 0.46 * \cos\left(2\pi \frac{n}{N-1}\right), n = 0, \dots, N - 1, \quad (2)$$

bu yerda  $N$  - oyna uzunligi.

4. *Spektral almashtirish.* Algoritmning uchinchi bosqichida vazn oynasidan o'tkazilgan freymlarda FFT spektral almashtirish prosedurasini qo'llaniladi.

$$X_k = \sum_{n=0}^{N-1} x_n w_n e^{-\frac{2\pi i}{N}kn}, k = 0, \dots, N - 1. \quad (3)$$

$k$  indeks qiymatlari chastotalarga mos keladi.

$$f_k = \frac{F_s}{N}k, k = 0, \dots, N/2, \quad (4)$$

bu yerda  $F_s$  — signalning diskretlash chastotasi.

5. *Mel almashtirish.* To'rtinchi bosqichda esa chastota sohasiga o'tkazilgan signal uchburchakli filtrlar yordamida diapazonlarga ajratiladi. Filtr chegaralari mel shkalasi bo'yicha hisoblanadi.

Mel-chastota sohasiga o'tish quyidagi formula asosida amalga oshiriladi.

$$B(f) = 1127 * \ln\left(1 + \frac{f}{700}\right) \quad (5)$$

Teskari almashtirish esa quyidagicha amalga oshiriladi.

$$B^{-1}(b) = 700 \left(e^{b/1127} - 1\right). \quad (6)$$

Agarda biz  $N$ -ni filtrlar soni (odatda 26 ta filtrdan foydalaniladi),  $(f_{low}, f_{high})$ -ni tadqiq qilinayotgan chastota diapazoni deb qabul qilsak, unda bu diapazon Mel-shkalasiga o'tkaziladi hamda  $N$  ta teng taqsimlangan bir-biri bilan kesishadigan diapazonlarga bo'linadi va chiziqli chastota sohasidagi tegishli chegaralari topiladi. Filtrlash asosida olingan vazn koeffitsiyentlarini  $H_{m,k}$  -deb belgilash kiritamiz. Filtrlar Furre almashtirishdan olingan koeffitsiyentlarining kvadrat moduliga qo'llaniladi. Olingan qiymatlar quyidagi ifoda orqali logarifmlanadi.


$$e_m = \ln\left(\sum_{k=0}^N |X_k|^2 H_{m,k}\right), m = 0, \dots, N - 1. \quad (7)$$

MFCC koeffitsiyentlarini hisoblashning oxirgi bosqichida esa DCT algoritmi amalga oshiriladi.

$$c_i = \sum_{m=0}^{N-1} c_m \cos\left(\frac{\pi i(m + 0.5)}{N}\right), i = 1, \dots, N_{MFCC}. \quad (8)$$

$c_0$  koeffitsiyenti ishlatilmaydi, chunki  $c_0$  signal energiyasini anglatadi. Odatda amaliyotda MFCC koeffitsiyentlar soni  $N_{MFCC}$  13 ta qiymat olinadi.

Mel-kepstral koefitsientlarning 13 filtr uchun olingan natijalari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Mel-kepstral koefitsientlarning olinishi

Barcha filtrlarni hisoblash uchun mel diapazondagi boshqa nuqtalarni belgilash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Misol uchun 10 ta filtr uchun 12 nuqta belgilash kerak. Bu shuni bildiradiki, 401,25 dan 2839,99 gacha diapazonda 10 ta nuqtani bir xil oraliqlarga joylashtirib chiqish kerak. Natijada quyidagicha ketma-ketlikdagi nuqtalar paydo bo'ladi:

$m(i) = [401,25; 622,5; 843,75; 1065; 1286,25; 1507,5; 1728,74; 1949,99; 2171,24; 2392,49; 2613,74; 2834,99]$ .

Nuqtalarni mel shkaladan asl chastotaga o'tkazish:

$h(i) = [300; 517,33; 781,9; 1103,97; 1496,04; 1973,32; 2554,33; 3261,62; 4122,63; 5170,76; 6446,7; 8000]$ .

Nutq signalidagi spektrdagi har bir nuqta ma'lum bir chastotaga to'g'ri keladi va u quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$f(i) = \frac{2 \cdot (i+1)}{\text{sampleRate} \cdot n} \quad (9)$$

bu yerda sampleRate – signalning diskretlash chastotasi, n – signal uzunligi.

MFCC algoritmi yordamida mel-shkalaning o'lchamiga asosan 12,13 ta yoki 24 ta qiymatlardan iborat parametrlarni olish mumkin. Bu algoritm spektral chastotalarning eng muhim bo'lgan parametrlarini o'zida o'zlashtiradi. boshlang'ich va parametrik ishlov berish algoritmlar ishlov berish natijasida inson eshitish tizimiga moslashtirildi. Algoritmik nuqtai nazardan bunday uslub asosida yondashuv nutq tovushlarini, bo'g'inlarini va so'zlarini tanib olishda foydalaniladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Тампель И.Б. Автоматическое распознавание речи – основные этапы за 50 лет // Научно-технический вестник информационных технологий, механики и оптики. 2015. Том 15. № 6. С. 957–968.
2. Gulmezoglu M.B. A novel approach to isolated word recognition. IEEE Transactions on Speech and Audio Processing, 1999. 7(6): p. 620-628.
3. Xujayarov I.Sh, Kamolov R.K, Xafizova Sh.G‘ Call-markazi masalalari uchun mashinali o‘qitish usullarini qo‘llanilishi tahlili. “Zamonaviy axborot, kommunikatsiya texnologiyalari va at-ta’lim tadbiri muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Samarqand 7-8-aprel 2023-yil B 31-33.
4. Altınok, H., Kurdal, S., & Yucal, M.M. (2021). Turkish Speech Recognition in Call Centers. 2021 6th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), 791-793.

## SINTAKTIK ALOQALAR HAMDA ULARNING LINGVISTIK TAHLILI

**Shavqiyeva Maftuna Salimboy qizi**

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

[maftunasalimovna@gmail.com](mailto:maftunasalimovna@gmail.com)

***Annotatsiya.** Har qanday til nutq tovushlari, so'zlar, leksik, sintaktik birliklar va gaplar qurilishida o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qiladi. Tilshunoslikning sintaksis bo'limi so'zlarning birikishi natijasida so'z birikmalari va gaplar kabi sintaktik birliklarni o'rganadi. Hozirgi zamon o'zbek tilshunosligida sintaksis sintaktik birliklar, sintaktik munosabatlarni o'rganish, ularni lingvistik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:** tilshunoslik, sintaksis, sintaksik aloqalar, lingvistik tahlil, gap bo'laklari, leksik birliklar, so'z birikmalari, gap.*

## SYNTACTIC RELATIONS AND THEIR LINGUISTIC ANALYSIS

***Abstract.** Any language fully shows its possibilities in speech sounds, words, lexical and syntactic units and the construction of sentences. In linguistics, syntax is the study of how words and morphemes combine to form larger units such as phrases and sentences. In today's modern Uzbek linguistics, the study of syntax, syntactic units and tools, syntactic relations and their linguistic analysis are very important.*

***Key words:** linguistics, syntax, syntactic relations, linguistic analysis, parts of speech, lexical units, word combinations, sentence.*

### **KIRISH.**

Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik tahlil jarayoni nazariy bilimlarni sistemali o'rganishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi. Aynan tahlil jarayoniga oid faktlar, ilmiy hamda nazariy ma'lumotlar, til qoidalari turli keltirilgan misollar va namunalarda yaqqol holda namoyon bo'ladi. Til hodisalari lingvistik tahlil qilish asnosida amaliy hamda nazariy jihatdan puxta o'rganiladi.

Lingvistik tahlil bu – olingan nazariy bilimlar, keltirilgan ma'lumotlar asosida muayyan til birliklari yoki nutq birliklarini parchalab, turli qismlarga ajratib o'rganishdir [4].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Tilshunoslik o'zbek tili rivojiga katta hissa qo'shgan o'zbek tilshunoslari M.Qodirov, H.Ne'matov, A.G'ulomov, N.Mahmudov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova kabi ko'pgina fidoyi insonlarning yozgan ilmiy asarlari o'zbek tili rivojlanishiga hissa qo'shib kelmoqda. Mazkur maqolada ham ularning asarlaridan, ilmiy kitoblari, bildirgan xulosa va fikrlaridan ham samarali foydalanilgan.

Shuningdek, izlanishlar jarayonida nazariy tahlil, lingvistik tahlil, umumlashtirish hamda qiyoslash usullaridan keng foydalanilgan. Muayyan til hamda nutq birliklarini tadqiq qilishda nazariy tahlil qilinayotgan nutq ona tili qonuniyatlari bilan solishtirilib o'rganib chiqilgan.

### NATIJARAR.

Bugungi kunda sintaksis, sintaktik aloqalar har bir tilda mavjud va ushbu tilshunoslik bo'limini o'rganishga hamda tadqiqot olib borishga ehtiyoj mavjud. Kun sayin ushbu bo'limni tahlil qilishga bo'lgan talab oshib bormoqda. Negaki muayyan tilni o'rganish va uni o'rgatish uchun til normalari va qoidalarini yaxshi anglash kerak bo'ladi.

Tilshunoslik oid kelgusida ilmiy izlanishlar olib borish, ushshu sohada yangliklar yaratish, o'zbek va ingliz tilshunosligida qiziqarli hamda shu vaqtgacha qo'llanilmagan usullar, samarali mashg'ulot turlarini yaratish asosiy maqsad sifatida belgilab qo'yilgan.

### MUHOKOMA.

Lingvistik tahlillar olib borish tilshunoslikni chuqur o'rganishda hamda qoidalarni yaxshi o'zlashtirishda amaliy va nazariy jihatdan foydali hisoblanadi. O'zbek tili sintaksis bo'limida quyidagi mavzular bo'yicha lingvistik tahlil olib borish mumkin:

- So'z birikmasi tahlil.
- Sodda gap tahlili.
- Gap bo'laklarining tahlili.
- Qo'shma gap tahlili.
- O'zga gapli qo'shma gap tahlili [3].

Ushbu tahlillar vositasida til birliklarini o'rganish yanada osonlashib, tushunarli bo'ladi.

**Gap tahlili.** Gap larni tahlil qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak bo'ladi. Tahlil jarayoning quyidagi tartibni o'rganib, uni ko'rib chiqamiz.

1. Gap tahlilining birinchi bosqichi gapning ifoda maqsadi qarab bir qancha turlarga ajratib olishdan boshlash kerak. Gaplar esa ifoda maqsadiga ko'ra darak gap, so'roq gap yoki buyruq gap turlariga ajratiladi.

2. Keyingi bosqich bu gap tarkibida his-hayajon ifoda etilishiga qarab:
  - a) his-hayajonli gap;
  - b) his-hayajonsiz gap.
3. Gap tahlilining navbatdagi bosqichi esa grammatik tuzilishiga ko'ra tularga qarab ajratib olamiz:
  - a) sodda gap;
  - b) qo'shma gap.
4. Keyingi tahlil bosqichi grammatik asos tarkibiga ko'ra gapning turlariga e'tibor berish:
  - a) bir bosh bo'lakli gaplar, ya'ni grammatik asoslar ishtirokiga ko'ra;
  - b) ikki bosh bo'laklar qatnashgan gap.
5. Gap tahlilining muhim bo'lagi mavjud ekanligi yoki mavjud emasligiga qarab turlarga ajralishi:
  - a) to'liq gap;
  - b) to'liqsiz gap;
6. Tahlilning keyingi muhim bosqichi esa murakkablashtiruvchi vositasiga ko'ra turlarini hisobga olgan holda:
  - a) murakablashmagan gap;
  - b) murakablashgan gap [2].

► *Biz kecha birga kelgan dugonam bilan rosa tortishdik.*

Darak gap;

Egali gap, ish-harakat bajaruvchisi ma'lum, gapning egasi (*biz*);

*tortishdik* – bosh bo'lak, kesim, o'tgan zamonda;

Sodda yoyiq gap;

To'liq gap, gap bo'laklari tushib qolmagan;

Tasdiq gap. Ish-harakatning bajarilganligi bo'lishli, fe'l bilan ifodalangan;

Uyushiq yoki ajratilgan bo'laklar yo'q.

► *Bir ozdan keyin san'at vakillari kirib kelishdi.*

Darak gap;

Shaxsi aniq gap, ish-harakat bajaruvchisi ma'lum, gapning egasi (*san'at vakillari*);


*san'at vakillari kirib kelishdi* – bosh bo'lak, grammatik asos, ega hamda kesim, o'tgan zamonda;

Sodda yoyiq gap;

To'liq gap, gap bo'laklari tushib qolmagan;

Tasdiq gap. Ish-harakatning bajarilganligi bo‘lishli, fe‘l bilan ifodalangan; Uyushiq yoki ajratilgan bo‘laklar yo‘q [3].

► *Shunday yaxshi insonlar borki, ular har doim odamlarga yordam beradi.*



Darak gap;

*Shunday yaxshi insonlar borki* – bosh gap;

*ular har doim odamlarga yordam beradi* – ergash gap;

Bog‘lovchili ergashish, ergash gap bosh gapga *-ki* bog‘lovchisi yordamida bog‘langan hamda u ta’kidlash ma’nosini ifodalangan.

Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap hisoblanadi .

Uyushiq yoki ajratilgan bo‘laklar yo‘q [1].

## XULOSA.

Tilshunoslikda olib borilgan lingvistik tahlillar so‘z birikmalari, birikish usullari va bog‘lanishlar tartibi, gap bo‘laklari, gap va uning tuzilishi, ma’no turlari kabi xususiyatlarni o‘rganilgan holda olib boriladi. Mazkur tahliliy jarayonda amal qilish kerak bo‘lgan qonun-qoidalar ham bor. Shuning uchun ularni alohida bo‘laklarga bo‘lib, qiyoslab hamda o‘zaro taqqoslab tahlil qilish lozim. Tahlillar va misollar juda muhim hamda kerakli bo‘lgan bosqich hisoblanadi. Mazkur lingvistik tahlillar orqali sintaktik munosabatlarni yanada aniqroq tadqiq qilish mumkin. Sintaktik aloqalarning tahlili asosida yaxshi natijalar va yutuqlarga erishiladi. Sintaktik birliklarni, so‘z birikmalarini, gaplarni tahlil qilishda muayyan jihatlarga e’tibor berish kerak. Tilshunoslar uchun lingvistik tadqiqotlar va tahlillar muhim ahamiyatga egadir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Erkaboyeva, N. (2015) O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent, 2015.
2. Nurmonov A., Sobirov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013.
3. Qudratov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil. – Toshkent, 1981.
4. Shavkieva M. S., Daniyoro va Y. The Linguistic Analysis of Syntactic Units, Word Combinations and Sentences // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* – 2023. – T.11. – № 4 – C. 361-363.
5. Shavkieva M. S., Daniyoro va Y. The Linguistic Analysis of Translating Syntactic Units and Word Combinations from English into Uzbek // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* – 2023. – T.11. – № 4 – C. 359-360.

## HOZIRGI O‘ZBEK TILI SINTAKTIK ALOQALARINING LINGVISTIK TAHLILI

**Shavqiyeva Maftuna Salimboy qizi**

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

[maftunasalimovna@gmail.com](mailto:maftunasalimovna@gmail.com)

*Annotatsiya. Hammamizga ma’lumki, biz foydalanadigan til turli birliklar, qurilmalar va vositalardan iboratdir. Ularning har biri tilda muhim vazifalarni bajaradi. Ushbu maqola tilshunoslikning sintaksis bo‘limi haqidadir. Har qanday til nutq tovushlari, so‘zlar, leksik, sintaktik birliklar va gaplar qurilishida o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qiladi. Tilshunoslikning sintaksis bo‘limi so‘zlarning birikishi natijasida so‘z birikmalari va gaplar kabi sintaktik birliklarni o‘rganadi. Hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligida sintaksis sintaktik birliklar, sintaktik munosabatlarni o‘rganish, ularni lingvistik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.*

*Kalit so‘zlar: sintaksis, sintaksik aloqalar, lingvistik tahlil, gap bo‘laklari, leksik birliklar, so‘z birikmalari, gap, sodda va qo‘shma gap.*

### LINGUISTIC ANALYSIS OF SYNTACTIC RELATIONS OF THE MODERN UZBEKI LANGUAGE

*Abstract. We all know that the language we use consists of various units, devices and tools. Each of them has important functions in the language. This article deals with the syntax in linguistics. Any language fully shows its possibilities in speech sounds, words, lexical and syntactic units and the construction of sentences. In linguistics, syntax is the study of how words and morphemes combine to form larger units such as phrases and sentences. In today’s modern Uzbek linguistics, the study of syntax, syntactic units and tools, syntactic relations and their linguistic analysis are very important.*

*Key words: syntax, syntactic relations, linguistic analysis, parts of speech, lexical units, word combinations, sentence, simple and compound sentence.*

#### KIRISH.

Hozirgi zamonaviy o‘zbek tilshunosligida sintaksis bo‘limi hamda sintaktik munosabatlarni o‘rganish, ularni lingvistik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tahlil qilishning esa bir qancha qonun-qoidalari, bosqichlari hamda shartlari mavjuddir.



Tilshunoslikda lingvistik tahlil nazariy bilimlarni sistemali o'rganishning eng yaxshi usullaridan biridir. Aynan tahlil jarayoniga oid faktlar, ilmiy hamda nazariy ma'lumotlar, til qoidalari turli keltirilgan misollarda aniq namoyon bo'ladi. Til hodisalari lingvistik tahlil qilish asosida amaliy hamda nazariy jihatdan o'rganiladi. Lingvistik tahlil – olingan nazariy bilimlar, keltirilgan ma'lumotlar asosida muayyan til birliklari yoki nutq birliklarini parchalab, qismlarga ajratib o'rganishdir [4].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.**

Bugungi o'zbek tilshunosligi, uning har bir bo'limlari yuzasidan ilmiy xulosalar va takliflar tahliliy jihatdan chuqur o'rganilmoqda. Shuningdek, tilshunoslik sohasida izlanishlar olib borgan, o'zbek tili rivojiga katta hissa qo'shgan o'zbek tilshunoslari M.Qodirov, H.Ne'matov, A.G'ulomov, N.Mahmudov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova kabi ko'pgina fidoyi insonlarning yozgan ilmiy asarlari o'zbek tili rivojlanishiga hissa qo'shib kelmoqda. Mazkur maqolada ham ularning asarlaridan, ilmiy kitoblari, bildirgan xulosa va fikrlaridan ham samarali foydalanilgan.

Izlanishlar jarayonida nazariy tahlil, lingvistik tahlil, umumlashtirish hamda qiyoslash usullaridan keng foydalanilgan. Muayyan til hamda nutq birliklarini tadqiq qilishda nazariy tahlil qilinayotgan nutq ona tili qonuniyatlari bilan solishtirilib, qiyoslab o'rganib chiqilgan.

### **NATIJALAR.**

Sintaksis, sintaktik aloqalar har bir tilda mavjud va ushbu tilshunoslik bo'limini o'rganishga hamda tadqiqot olib borishga ehtiyoj mavjud. Kun sayin ushbu bo'limni tahlil qilishga bo'lgan talab oshib bormoqda. Har qanday tilni o'rganish hamda uni o'rgatish uchun til normalari va qoidalarini yaxshi anglash lozimdir. Tilshunoslik va qiyosiy tilshunoslik sohalariga oid kelgusida ilmiy izlanishlar olib borish, shu sohada yangliklar yaratish, o'zbek va ingliz tilshunosligida qiziqarli hamda shu vaqtgacha qo'llanilmagan usullar, samarali mashg'ulot turlarini yaratish asosiy maqsad sifatida belgilab qo'yilgan [5].

### **MUHOKOMA.**

Sintaktik tahlillar olib borish sintaksisni o'rganishda hamda qoidalarni yaxshi o'zlashtirishda amaliy va nazariy jihatdan yordam beradi. Aynan o'zbek tili sintaksis bo'limida quyidagi mavzular bo'yicha lingvistik tahlil olib borish mumkin:

- ▶ So'z birikmasi tahlil.
- ▶ Sodda gap tahlili.
- ▶ Gap bo'laklarining tahlili.
- ▶ Qo'shma gap tahlili.
- ▶ O'zga gapli qo'shma gap tahlili [3].

Ushbu tahlillar vositasida til birliklarini o‘rganish yanada osonlashib, tushunarli bo‘ladi.

**I. So‘z birikmasi tahlil.** O‘zbek tilida so‘z birikmalarini aniqlash, ularni lingvistik xususiyatlariga qarab tahlil qilish amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, gap tarkibidagi so‘z birikmasini tahlil qilamiz. Tahlil quyidagi tartibda olib boriladi:

1. So‘z birikmalari tahlilini berilgan gapni turli birikmaga ajratishdan boshlash kerak.

2. Keyingi navbat esa so‘zlararo aloqa va munosabatlarning erkin yoki turg‘unligiga qarab ularni birikma turiga ajratib olinadi.

3. Tahlilning keyingi bosqichi mavjud bo‘lgan erkin birikmaning fikr yoki tushuncha ifodalashiga qarab bir qancha turlarga ajratib o‘tamiz.

4. Mavjud biror tushunchani ifodalovchi birikmaning sintaktik aloqaga ko‘ra turlarini ko‘rib chiqiladi. Bunda ular ikki turga ajraladi:

- a) teng aloqali;
- b) tobe aloqali.

5. So‘z birikmalrining navbatdagi tahlilining keyingi qismi tobe aloqa hamda munosabatlarning turiga ko‘ra birikish usullariga qarab farqlanadi va ajratiladi. Mazkur bosqich juda muhim bo‘lib, sintaktik birliklarning asosiy tahlili aynan shu bosqichda aniqlanadi. So‘z brikmalarining qaysi birikish usulida keltirilganini aniqlash muhim ahamiyatga ega:

- a) boshqaruvli birikma;
- b) moslashuvli birikma;
- d) bitishuvli birikma.

6. Keyingi qismda esa so‘z birikmasi tarkibidagi bosh so‘zning qaysi so‘z bilan ifodalanishiga qarab otli yoki fe‘lli birikmaga ajratiladi.

7. Jarayonning navbatdagi bosqichi so‘z birikmasining tuzilishiga ko‘ra turlarini ko‘rib chiqishimiz kerak.

- a) sodda birikma;
- b) murakkab birikma [1].


► *Katta shahar*

*shahar* – hokim so‘z, ot bilan ifodalgan;

*katta* – tobe so‘z, sifat bilan ifodalangan;

Sifat + Ot: Otli birikma, sodda birikma;

Bitishuv: tobe va hokim so‘zlar hech qanday grammatik belgilarga ega emas.



► *Bizning maqsadimiz*


*maqsadimiz* – hokim so‘z, ot bilan ifodalgan, I shaxs ko‘plikdagi egalik qo‘shimchasini qabul qilgan;

*bizning* – tobe so‘z, kishilik olmoshi bilan ifodalangan, qaratqich kelishigida kelgan;

Olmosh + Ot; Otli birikma, sodda birikma;

Tobelanish sintaktik aloqasi;

Moslashuv: qaratqich-qaralmish moslashuvi, shaxs va sonda moslashgan holda.

  
*bizning maqsadimiz*

**II. Gap bo‘lamlari tahlili.** O‘zbek tilshunosligida gapning bosh hamda ikkinchi darajali bo‘lamlarning xususiyatlariga qarab tahlil qilish ham amalga oshiriladi. Bunda gap tarkibidagi gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘lamlarini alohida qoidalar asosida tahlil qilamiz:

1. Birinchi navbatda gap tarkibidagi kesimning turini aniqlab olishimiz lozim. Unga ko‘ra kesimni quyidagi ikki turga ajratiladi:

a) mustaqil kesim;

b) nomustaqil kesim.

2. Tahlilning ikkinchi bosqichi esa gapda keladigan kesimning ifodalanishiga ko‘ra turlariga qarab aniqlaymiz. Bunda ot-kesim yoki fe‘l-kesim kabi turlarga ajratish mumkin.

3. Gap bo‘lamlari tahlilining keyingi bosqichi kesimning tuzilishiga qarab ikki turga ajratiladi:

a) sodda kesim;

b) murakkab kesim.

4. Navbatdagi bosqichda gap tarkibida ishtirok etgan egasiga ko‘ra tahlil qilinadi. Egali (shaxsli) gap, egasiz (shaxssiz) gap, shaxsi noma‘lum gap, atov gap, so‘z-gap, egasi yashiringan gap, egasi ma‘lum gap yoki egasi (shaxsi) umumlashgan gap kabi turlarga bo‘linishi mumkin.

5. Yana bir muhim bosqich ega bilan kesimning shaxs-sonda mos ekanligiga e‘tibor qaratamiz [2]

► *Baribir, javobgarlik eng oldin Saidovdan talab qilinadi.*

Bosh bo‘lamlar: *javobgarlik talab qilinadi.*

*javobgarlik* – ega, bosh kelishda, mavhum ot bilan ifodalangan

*talab qilinadi* – kesim, ot kesim, ega va kesim sonda moslashgan

*Saidovdan* – to‘ldiruvchi, atoqli ot bilan ifodalangan, chiqish kelishigada, kesimga bog‘langan

*eng oldin* – hol, payt holi, kesimga bog‘langan,

*Baribir* – kirish so‘z, qat‘iylik ma‘nosi, sintaktik vazifa bajarmagan, gap boshida kelgan, vergul bilan ajratilgan.

► *Ikki o‘n besh – bir o‘ttiz. (Maqol)*

*Ikki o‘n besh* – gapning egasi, son so‘z turkumi bilan ifoda etilgan;

Murakkab birikma, to‘g‘ri tartibda kelgan, kesimdan keyin;

*bir o‘ttiz* – gapning kesimi, son so‘z turkimi;

Murakkab ot-kesim, to‘g‘ri tartibda kelgan, egadan keyin;

Bog‘lama tushib qolgan (*bo‘ladi*), shuning uchun ega hamda kesim orasida tire qo‘yilgan.

### **XULOSA.**

Lingvistik tahlillar so‘z birikmalari, bog‘lanishlar tartibi, gap bo‘laklari, gap va uning tuzilishi, ma‘no turlari kabi xususiyatlarni o‘rganilgan holda olib boriladi. Mazkur jarayonda amal qilish kerak bo‘lgan qonun-qoidalar ham mavjuddir. Shuning uchun ularni alohida qiyoslab, o‘zaro taqqoslab tahlil qilish shart.

Lingvistik tahlil juda muhim hamda kerakli bo‘lgan bosqich hisoblanadi. Chunki aynan qilingan lingvistik tahlillar orqali sintaktik munosabatlarni yanada aniqroq tadqiq qilishimiz mumkin bo‘ladi. Sintaktik munosabatlarning lingvistik tahlili asnosida katta natijalar va yutuqlarga erishiladi. Har bir sintaktik birliklarni, so‘z birikmalarini, gaplarni tahlil qilishda muayyan jihatlarga e‘tibor berish lozim.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Erkaboyeva, N. (2015) O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami. – Toshkent, 2015.
2. Nurmonov A., Sobirov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013.
3. Qudratov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil. – Toshkent, 1981.
4. Shavkieva M. S., Daniyoro va Y. The Linguistic Analysis of Syntactic Units, Word Combinations and Sentences // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* – 2023. – T.11. – № 4 – C. 361-363.
5. Shavkieva M. S., Daniyoro va Y. The Linguistic Analysis of Translating Syntactic Units and Word Combinations from English into Uzbek // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* – 2023. – T.11. – № 4 – C. 359-360.

## MINTAQA IQTISODIY SALOHIYATIDA IQTISODIY GEOGRAFIYA TUSHUNCHASI VA O‘RNI

**Embergenov Alisher Jumamuratovich**

QDU Buxgalteria hisobi va audit kafedrası o‘qituvchisi

**Sag‘inbaev Sultanbek Turdibay o‘g‘li**

QDU iqtisodiyot fakulteti talabasi

*Kalit so‘zlar:* Geografik iqtisodiy salohiyat, mintaqa iqtisodiyoti, iqtisodiy salohiyatni baholash, investitsiyalar.

Globalashuv jarayoni bilan o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish, raqobat, inson resurslarini rivojlantirish va jahon bozorini monitoring qilish kabi muhim faktlar iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy rivojlanish jarayonida mintaqaviy dinamikaning ahamiyatini oshirishga olib keladi. Bu jarayonda dinamik tuzilishga ega bo‘lgan va rivojlanish jarayonini yo‘naltiruvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta‘sirining mamlakat iqtisodiyotiga taqsimlanishi mintaqalararo rivojlanish nomutanosibligini yuzaga keltiradi va natijada iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat amalga oshirila boshlandi. va ijtimoiy nomutanosibliklar. Mintaqaning turli geografik regionlarda joylashgan tumanlarining mutanosib rivojlanishiga butun mamlakat bo‘ylab samarali iqtisodiy siyosat olib borish orqali erishish mumkin.

Mamlakat iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishiga ta‘sir k‘orsatuvchi tashqi savdo aylanmasiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardir:


1. Iqtisodiy omillar, masalan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi, savdo to‘siqlari va bojxona to‘lovlarning mavjudligi, jahon bozorlaridagi raqobat darajasi va boshqalar.

2. Siyosiy omillar, masalan, mamlakatdagi siyosiy vaziyatning barqarorligi, xalqaro shartnoma va kelishuvlarning mavjudligi, xalqaro hamkorlar tomonidan mamlakatga ishonch darajasi va boshqalar.

3. Texnologik omillar, masalan, texnologiya va ilmiy tadqiqotlarning rivojlanish darajasi, innovatsion mahsulot va texnologiyalarning mavjudligi, ilmiy-texnik xodimlarning malaka darajasi va boshqalar.

4. Ijtimoiy omillar, masalan, aholi turmush darajasi, ta‘lim va madaniyat darajasi, tovar va xizmatlarga iste‘molchi talabining mavjudligi va boshqalar.


Bugungi kunda mamlakatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishda «iqtisodiy determinantlar» bilan bir qatorda «geografik determinantlar» ham samarali rol o‘ynashi haqiqatdir. Yangi iqtisodiy geografiya yondashuvining asoslari birinchi Krugman tomonidan kiritilgan markaz-chekka modeli bilan qo‘yilgan. Ushbu model firma darajasida ortib borayotgan daromadlar, transport xarajatlari va omillarning harakatchanligi va ko‘rsatilgan tuzilmaning o‘zgarishiga olib keladigan sabablar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir natijasida yaratilgan fazoviy iqtisodiy tuzilishga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, Krugman tomonidan ishlab chiqilgan, ortib borayotgan daromadlar va nomukammal raqobat modellaridan foydalangan holda iqtisodiyotning geografik xususiyatlarini o‘z ichiga olgan yondashuv «yangi iqtisodiy geografiya» yondashuvi deb ataladi.



### Asosiy kapitalga investitsiyalarning ósish surati (yillik)<sup>1</sup>

Asosiy kapitalga investitsiyalarning jalb qilinishi bóyicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchinchi órinni band etgan. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalarning órni alohida hisoblanadi. Bugungi kunda tashqi iqtisodlar ixtisoslashgan mehnat bozorlari va yetkazib beruvchilar tarmoqlarini, shuningdek, axborot oqimini o‘rab olishini aytish mumkin.

<sup>1</sup> Siat.uz. malumotlari asosida



### Asosiy kapitalga investitsiyalarning ósish surati (yillik)<sup>1</sup>

Asosiy kapitalga investitsiyalarning jalb qilinishi bóyicha yuqoridagi grafiklardan ularning yillar kesimida rivojlanish strukturasi kórishimiz mumkin

Demak, iqtisodiy hayot ijtimoiy va institutsional fazoviy joylashuvga ega degan qarashni ilgari suruvchi «iqtisodiy geografiya» yondashuviga baho berish zarur. Iqtisodiy geografiya yondashuvi notekis fazoviy rivojlanish sirini tushuntirishga harakat qiladi. Fazoviy iqtisodiyotning eng o'ziga xos xususiyati iqtisodiy agregatsiya-aglomeratsiyaning keng ko'lamli ta'siridir. Iqtisodiy geografiya yondashuvi iqtisodiy hayotning ijtimoiy va institutsional fazoviy joylashuviga ega ekanligidan kelib chiqib, mintaqaviy farqlarni tushunish uchun ijtimoiy tuzilmalarni, iqtisodiy va siyosiy qoidalar va an'analarni o'rganish zarurligini ta'kidlaydi va bu yondashuvda ustunlik qiluvchi element e'tiborni qaratish ustuvor masalalardan hisoblanadi.

### XULOSA

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini belgilab, ularni davlat organlari bilan kelishilgandan so'ng, aniq chora-tadbirlar, muddatlar, mas'ul shaxslar yoki tashkilotlarni belgilagan holda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadigan ishchi guruhlarni tashkil etish va shuning bilan birga ularni amalga oshirish uchun moliyaviy xarajatlar, kutilgan natijalarni taxmin qilish lozim. Hududni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish asosida dastur-rejalashtirish va normativ hujjatlar majmuasini xususan, strategiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi va viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yillik dasturi, maqsadli hududiy dasturi, viloyat ichki hududlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish hamda amalga oshirish kerak.

<sup>1</sup> Siat.uz. malumotlari asosida

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Чаленко А.Ю. Методика определения экономического потенциала Экономика Украины. –2013.– №. 8. – С. 4054.



## ПРИНЦИПЫ И СИСТЕМА ПОКАЗАТЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Мухтаров Шавкат Кадырович**

докторант (PhD) экономической кафедры  
Бухарского государственного университета

E-mail: [muxtarov.sh67@gmail.com](mailto:muxtarov.sh67@gmail.com)

***Аннотация.** Статья посвящена анализу принципов и системы показателей развития системы образования в Узбекистане. В статье описываются основные принципы, на которых основывается система образования в Узбекистане, такие как государственное управление образованием, доступность и качество образования, обеспечение гармоничного и всестороннего развития личности и др. Также рассматриваются показатели, используемые для оценки эффективности системы образования, включая уровень грамотности, количество выпускников, процентное соотношение учителей с высшим образованием и т.д. В заключении статьи подчеркивается, что развитие системы образования в Узбекистане является приоритетным направлением государственной политики и основой для достижения национальных целей и развития страны в целом.*

***Ключевые слова:** совершенствовании, развития, инновация, окончательность, гармония, объективность, инфраструктур, духовность, оценке эффективности, учебных программ, образовательная программа, успешност выпускников, уровень инвестиции.*

***Annotation.** The article is devoted to the analysis of the principles and indicators of the development of the education system in Uzbekistan. The article describes the basic principles on which the education system in Uzbekistan is based, such as public administration of education, accessibility and quality of education, ensuring harmonious and comprehensive personal development, etc. The indicators used to assess the effectiveness of the education system are also considered, including the literacy rate, the number of graduates, the percentage of teachers with higher education, etc. In conclusion, the article emphasizes that the development of the education system in Uzbekistan is a priority direction of state policy and the basis for achieving national goals and the development of the country as a whole.*

***Key words:** improvement, development, innovation, finality, harmony, objectivity, infrastructure, spirituality, performance evaluation, curricula, educational program, graduate success, level of investment.*

Узбекистан является страной с развитой системой образования, которая находится в постоянном процессе совершенствования и развития. Один из главных инструментов для оценки эффективности и развития этой системы является система показателей развития образования. В данной статье будут рассмотрены основные принципы и система показателей развития системы образования в Узбекистане.

Высшее образование на базе среднего специального, профессионального образования является самостоятельным видом системы непрерывного образования и осуществляется в соответствии с законом Республики Узбекистан «Об образовании» и Национальной программой по подготовке кадров». В целях обеспечения высшей школы Узбекистана нормативно-правовыми актами приказом Министерства образования Республики Узбекистан было утверждено положение «О высшем образовании», которое вступило в силу 4 марта 2003 г. Доступ к высшему образованию в Узбекистане имеют лица, имеющие общее среднее

(11 классов) и среднее специальное, профессиональное образование. Прием студентов в высшие образовательные учреждения осуществляется по результатам тестовых испытаний и других дополнительных творческих экзаменов, определяемых в установленном порядке. При этом Правила приема в высшие образовательные учреждения устанавливаются Кабинетом Министров Республики Узбекистан. Обучение в высших образовательных учреждениях производится за счет государственных грантов и на платно-контрактной основе. Получить второе и последующее высшее образование в Республике Узбекистане возможно только на платно-контрактной основе[13].

Система высшего образования Узбекистана состоит из: государственных и негосударственных высших образовательных учреждений, реализующих образовательные программы в соответствии с государственными образовательными стандартами направлений и специальностей высшего образования; научно-педагогических учреждений, выполняющих исследовательские работы по нормативно-правовому и научно-методическому обеспечению высшего образования; уполномоченных государственных органов по управлению высшим образованием; подведомственных им предприятий, учреждений и организаций[16].

Высшее образование имеет две ступени: бакалавриат и магистратуру. Подготовка бакалавров и магистров в высших образовательных учреждениях осуществляется в соответствии с «Государственным образовательным стандартом высшего образования. Классификатор направлений и

специальностей высшего образования», который был утвержденным постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 августа 2001 года N 343 [17]. Перечень направлений и специальностей, по которым осуществляется подготовка кадров в высших образовательных учреждениях, устанавливается Кабинетом Министров Республики Узбекистан на основе маркетинговых исследований потребности кадров. По ходатайству высшего образовательного учреждения, исходя из потребностей рынка труда, могут быть открыты новые направления бакалавриата и специальности магистратуры [18].

В настоящее время в соответствии с действующим классификатором подготовка специалистов с высшим образованием осуществляется по 191 направлению подготовки и 1390 специальностям, которые систематизированы в соответствии с Международной стандартной классификацией образования (МСКО-97) по восьми областям знаний: Образование (направлений - 20, специальностей – 39); Гуманитарные науки и искусство (направлений - 21, специальностей – 124); Социальные науки (направлений - 24, специальностей – 178); Наука (направлений - 14, специальностей – 150); Инженерные, обрабатывающие и строительные отрасли (направлений - 57, специальностей – 546); Сельское хозяйство и водное хозяйство (направлений - 22, специальностей – 171); Здравоохранение и социальное обеспечение (направлений - 10, специальностей – 97); Службы (направлений - 23, специальностей – 85). В Республике Узбекистан устанавливаются следующие типы высших образовательных учреждений: университет, академия, институт (и приравненные к ним высшие образовательные учреждения)[19].

Контроль за исполнением высшим образовательным учреждением государственных образовательных стандартов направлений или специальностей высшего образования, а также и качества подготовки кадров осуществляется уполномоченным государственным органом по управлению высшим образованием, а именно – Управлением по контролю за качеством подготовки кадров, аттестации педагогических кадров и образовательных учреждений в составе Государственного центра тестирования при Кабинете Министров Республики Узбекистан. Аттестация высших образовательных учреждений, независимо от их ведомственной подчиненности и форм собственности, проводится вышеуказанным управлением[13]. Порядок аккредитации высших образовательных учреждений определяется Кабинетом Министров Республики Узбекистан. Высшее образовательное учреждение может быть лишено государственной аккредитации по результатам аттестации Государственное

высшее образовательное учреждение получает право на образовательную деятельность на основе постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан о создании этого вуза. После первого выпуска государственный вуз обязан пройти процедуру государственной аттестации и последующей аккредитации в установленном порядке. Порядок предоставления права на образовательную деятельность негосударственного высшего образовательного учреждения устанавливает Кабинет Министров Республики Узбекистан[14].

В системе высшего образования Узбекистана в 1997-1998 учебном году насчитывалось 58 высших образовательных учреждений, в том числе 16 университетов и 42 института с общей численностью студентов 163,7 тыс. человек. За первые годы реализации Национальной программы по подготовке кадров, на основе анализа перспектив развития страны, созданы новые высшие образовательные учреждения; отделения и факультеты при существующих вузах по принципиально новым направлениям подготовки специалистов; выделены дополнительные квоты по приему на приоритетные направления подготовки кадров[11].

Современный этап развития Республики Узбекистан связан с осуществлением процессов глубокого реформирования политической, экономической жизни, социальной сферы общества. В республике на современном этапе формируются общественные отношения, базирующиеся на рыночной экономике. Собственная модель перехода к рыночным отношениям основана на учете специфических условий и особенностей республики: традиций, обычаев, уклада жизни[9]. Новые условия рынка труда продиктовали основные направления развития системы образования в республике.

### **Принципы развития образования в Узбекистане**

Принципы развития образования в Узбекистане основываются на большом опыте и истории, бережном отношении к образованию и постоянном поиске новых решений. Они ориентированы на повышение качества образования и расширение доступности образования для всех граждан Узбекистана. Основными принципами развития образования являются:

1. Качество образования. Приоритетом в Узбекистане является обеспечение качества образования внутри страны. При этом продумывается вопрос об усовершенствовании системы контроля за качеством образования и обеспечением соответствующего уровня профессиональной компетентности учителей.

2. Доступность образования. Узбекистан стремится обеспечить доступность образования для всех категорий граждан, включая население,

проживающее в отдаленных регионах страны или общины, которые нуждаются в дополнительных услугах.

3. Инновации. В Узбекистане активно внедряются инновационные методы обучения и применяются новые технологии в образовательном процессе. Особое внимание уделяется профессиональному обучению.

4. Гармония с здоровьем и духовностью. Организация образовательного процесса учитывает психическое и физическое здоровье учеников, а также их духовные потребности.

### **Система показателей развития образования**

Система показателей развития образования – это система показателей, которые помогают оценить и сравнить различные аспекты развития системы образования в Узбекистане. Эти показатели охватывают разные аспекты образования, такие как доступность, качество, инновации и т.д. Система показателей развития образования строится на основе следующих принципов:

1. Объективность. Показатели должны быть объективными, чтобы точно отражать реальную ситуацию в системе образования.

2. Универсальность. Показатели должны быть применимы для всех типов образовательных учреждений и всех уровней образования.

3. Окончательность. Показатели должны быть окончательными и надежными для употребления в оценке эффективности и развития системы образования.

4. Регулярность. Показатели должны регулярно обновляться, чтобы отражать текущее положение в системе образования.

К основным показателям развития образования в Узбекистане можно отнести следующие:

1. Доступность образования. Этот показатель можно измерять количеством школ и учебных заведений в стране и их близостью к населенным пунктам.

2. Качество образования. Этот показатель может быть измерен уровнем успешности выпускников, использованием передовых методик обучения и квалификацией преподавателей.

3. Уровень инвестиций в образование. Этот показатель может быть измерен величиной финансовых средств, выделяемых на развитие образования в Узбекистане.

4. Инновации в системе образования. Этот показатель может быть измерен количеством применяемых в учебном процессе инновационных методов обучения и использованием новых технологий.

В заключение, можно сказать, что система показателей развития образования в Узбекистане основана на принципах качества, доступности, инноваций и гармонии с здоровьем и духовностью, и она играет важную роль в оценке эффективности и развития системы образования в стране.

Высшее образование в республике играет главную роль в подготовке педагогических кадров и интеллектуальной элиты государства. В Узбекистане определены основные параметры национальной модели подготовки кадров с высшим образованием. Определяющими параметрами являются принципы государственной политики в области образования, компоненты Национальной модели подготовки кадров и принципы разработки ГОС. Принципами государственной политики в области образования определены следующие: гуманистический, демократический характер обучения и воспитания; непрерывность и преемственность образования; светский характер образования. К компонентам Национальной модели подготовки кадров отнесены: личность, государство, общество, непрерывное образование, наука и производство[8]. Принципами развития непрерывного образования являются: демократизация, гуманитаризация, выявление одарённой молодёжи, освоение технологий и средств индивидуальной подготовки и самообразования. Процесс разработки и внедрения государственных образовательных стандартов для бакалавриата и магистратуры основывается на следующих принципах: гуманитаризация и гуманизация; фундаментализация; общеобразовательная и профессиональная подготовка; преемственность и непрерывность; опережающая подготовка; мобильность образовательнoproфессиональной программы; академическая мобильность студентов; унификация блоков и групп дисциплин; привитие навыков самообразования; многоуровневый контроль качества[7].

Высшее образование республики решает приоритетную задачу подготовки квалифицированных преподавателей соответствующего уровня и профиля, конкурентоспособных на рынке труда, компетентных, ответственных, свободно владеющих своей профессией и ориентированных на смежные области деятельности, способных к эффективной работе по специальности на уровне мировых стандартов. Эта задача требует научного обеспечения целей, содержания, методов, средств и организационных форм воспитания, обучения и развития личности в высшей школе на основе использования достижений науки, техники и инновационных технологий. Решение проблем высшего профессионального образования невозможно без повышения педагогической интеллектуальной культуры, без преодоления устоявшихся стереотипов, консерватизма в педагогической науке и практике. Эти проблемы

непосредственно связаны с разработкой и внедрением в учебный процесс инновационных технологий[6]. Инновационные технологии в высшей школе представляют собой системный психолого-педагогический комплекс. Этот комплекс включает специальный подбор и компоновку дидактических форм, методов, способов, приёмов и условий, необходимых для процесса обучения. В результате реализации этого комплекса осуществляются требуемые изменения форм поведения и деятельности обучающихся, совершенствуется интеллектуальное творчество преподавателя.

За последние годы в Узбекистане были предприняты значительные усилия для совершенствования системы образования с помощью различных мероприятий, таких как модернизация учебных программ, улучшение образовательной инфраструктуры, внедрение новых технологий и т.д.

Кроме того, в Узбекистане активно проводится работа по повышению квалификации и обучению учителей и преподавателей. Для этого были созданы специальные центры и программы повышения квалификации, которые позволяют учителю улучшать свои профессиональные навыки и знания.

Важным результатом этих усилий являются изменения, которые происходят в самих учебных заведениях. Например, появление современных кабинетов информатики, лабораторий и т.д. В этих учебных заведениях также проводятся различные мероприятия, такие как конференции, семинары и т.д., который помогают улучшить качество образования[4].

Однако, несмотря на все проделанные усилия, система образования Узбекистана продолжает развиваться и изменяться. Будущее образования в Узбекистане зависит от решительности правительства и лидеров, которые будут активно работать над разработкой и внедрением инноваций в систему образования.

Среди примеров последних инноваций в системе образования Узбекистана можно назвать проект «E-sharq» (Э-Шарк), который является инновационной электронной платформой для дистанционного обучения в Узбекистане. Эта платформа обеспечивает доступ к онлайн-курсам, обучающим материалам и ресурсам[3].

Проект «Рахбарлартарбияси» («Новые лидеры») является другим примером инновационной инициативы в образовании. Это программа, которая создана для развития потенциала слабоосвоенных районов, где учителям, родителям и руководству школ предлагается повышение квалификации и консультации по различным вопросам, связанным с образованием.

Кроме того, в Узбекистане также активно внедряются новые формы образования, такие как проектная деятельность, исследовательские проекты и т.д. Эти методы обучения направлены на развитие творческих способностей учеников и улучшение качества образования.

Таким образом, можно сделать вывод, что Узбекистан находится на пути активного совершенствования и развития системы образования. Реализация различных инновационных проектов и программ позволяет стране улучшать качество образования, а также обеспечивать доступность обучения на всех уровнях. Это является важным шагом на пути развития общества и экономики Узбекистана.

В заключение, можно отметить, что Узбекистан с последнего времени активно работает над развитием системы образования. Это связано с тем, что образование является одним из ключевых факторов развития страны и формирования ее конкурентоспособности на мировой арене. В рамках этой работы были разработаны принципы и система показателей, которые позволят отслеживать и оценивать эффективность реализации образовательных программ и стратегии развития образования в целом. Использование такой системы позволит добиться более точной оценки результатов и выявить те аспекты, где необходимо произвести корректировки и дальнейшее улучшение реализации образовательных программ и процесса обучения в целом.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Набиева, М. Н. (2018, November). Поэтическое воплощение сказочно-легендарной темы в балете «Фархад и Соннё» Хабубиллы Рахимова. In Музыкальное искусство XXI века: проблемы и решения: Сборник материалов международной научно-практической конференции (Vol. 5, pp. 104-106).
2. Набиева, МухайёНамаджоновна. Ресурсы развития балетоведения в Узбекистане. «Global scienceandinnovations 2020: central Asia». 4(9), стр. 23 - 25.
3. К.Б. Холиков. Отличие музыкальной культуры от музыкального искусства в контексте эстетика. Science and Education 3 (5), 1562-1569.
4. К.Б. Холиков. Пение по нотам с сопровождением и без него по классу сольфеджио в высших учебных заведениях. Science and Education 3 (5), 13261331.
5. К.Б. Холиков. Musical pedagogy and psychology. Bulletin of science and education. 99 (21-2), 58-61.
6. К.Б. Холиков. Значение эстетического образования и воспитания в общеобразовательной школе. Science and Education 3 (5), 1549-1555.



7. К.Б. Холиков. Эстетическое воспитание молодёжи школьного возраста в сфере музыки. *Science and Education* 3 (5), 1542-1548.
8. Вахабов А., Имамов Э., Солеев А., Турсунходжаева М., Хусанова Н. Республика Узбекистан национальный отчет по политике в секторе образования. Высшее образование в Центральной Азии. Задачи модернизации – Вашингтон. Всемирный банк. 2007- С. 94-95, 131, 161-162,194.
9. Волохова Е.Д. Законодательное обеспечение права на образование в РФ.– Москва: Готика, 2004г. – 92 с.
10. Виханский О. С. Стратегическое управление – М.: Гардарика, 1998.С. 296.
11. Виссема Х. Стратегический менеджмент и предпринимательство: возможности для будущего процветания /Пер с англ. –М.: Изд-во «Финпресс», 2000. –С. 272;
12. Высшее образование в XXI веке: подходы и практические меры // Всемирная декларация ЮНЕСКО. Организация объединенных наций по вопросам образования, науки и культуры. – Париж. –1998. – 5-9 октября. Источник: <https://www.lawmix.ru/abrolaw/9374>
13. Национальная программа по подготовке кадров // Сайт Министерства народного образования Республики Узбекистан
14. Собрание законодательства Республики Узбекистан, N 15-16, 2001.
15. Высшее образование в Узбекистане // Сайт «Республика Узбекистан. Портал государственной власти» . – 2007
16. Образование в Узбекистане. // Сайт Министерства иностранных дел Республики Узбекистан.– < .– 2007
17. Национальный отчет Узбекистана, 2002г. // Национальный Наблюдательный Центр Узбекистана. . –2007.
18. О мерах по организации среднего специального, профессионального образования в Республике Узбекистан. Постановление Кабинета Министров от 13 мая 1998 г. № 204 // сайт Государственного Центра тестирования при Кабинете Министров Республики Узбекистан.
19. Uzbekistan - Education system. // IAU, World Higher Education Database (WHED). Сайт «International Association of Universities». – [http://www.unesco.org/iau/onlinedatabases/system\\_data/uz.rtf](http://www.unesco.org/iau/onlinedatabases/system_data/uz.rtf)>. – 2007.
20. Higher education in the Republic of Uzbekistan // сайт «TEMPUS in Uzbekistan».– . –2007.

## YANGI TASHKIL ETILGAN GAGARIN (MUZRABOD) VA LENIN YO‘LI (QIZIRIQ) RAYONLARIGA KO‘CHIRILGAN AHOLINING IJTIMOY AHVOLI VA MAISHIY TA‘MINOTI

**Qulboshev Sirojiddin Jumayevich**

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

[s.qulboshev2710@umail.uz](mailto:s.qulboshev2710@umail.uz)

**Annotatsiya:** Maqolada yangi tashkil etilgan Gagarin (Muzrabod) va Lenin yo‘li (Qiziriq) rayonlarga ko‘chirilgan aholining ijtimoiy ahvoli va maishiy ta‘minoti bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Gagarin rayoni, Lenin yo‘li rayoni, kolhoz, sovxoz, irrigatsiya, Yangiobod, Komsomolobod, Sovetobod, A.Nabiyev, Lenin, Oxunboboyev sovxozlari.

**Annotation:** The article describes the social condition and household support of the population relocated to the newly established Gagarin (Muzrabod) and Lenin Road (Kyziriq) districts.

**Key words:** Gagarin district, Lenin road district, collective farm, state farm, irrigation, Yangiabad, Komsomolabad, Sovetabad, A. Nabiyev, Lenin, Okhunbobayov state farms.

Mustabid sovet tuzumining respublikada amalga oshirgan paxta yakkahokimligi siyosati iqtisodiyotni biryoqlama rivojlantirilishining halokatli oqibatlari avvalo odamlarning turmush tarzida, eng yomoni, ularning jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad darajasining o‘ta pastligida, tomorqa yerlarining keskin kamayib borishida, millatning salomatligi, uning genofondiga salbiy ta’sirlarning kuchayishida, bolalar va onalar o‘limining avj olishida, mintaqada ekologik vaziyatning nochor holatida va boshqa ko‘plab masalalarda yaqqol namoyon bo‘lgan edi. Bu ijtimoiy muammolarning asl ildizlari, salbiy oqibatlari ochib berilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar sovet tuzum davrida hech qachon tan olinmasdi. Bordi-yu ana shunday tadqiqotlar amalga oshirilsa, ularning asosida chiqariladigan xulosalar muqarrar ravishda Sovet ittifoqi degan ulkan imperiyaning mafkurasiga to‘g‘ri kelmaydigan ish sifatida baholanardi. Chunki sovet hukumatining ijtimoiy siyosati bilan bog‘liq fakt va raqamlar mustlaqo sir saqlanardi. Shuning uchun ham boshqa respublikalar qatori O‘zbekistonning ham haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan dalolat beradigan dalil va raqamlar biror-bir nashrda chop etilmas, aksincha, jamoatchilikdan sir tutilar edi.

Sovet hukumati davrida O‘zbekistondagi ijtimoiy muammolarning to‘planib borishiga quyidagilar sabab bo‘ldi. Birinchidan, respublikada demografik vaziyatning murakkab edi. Chunki, statistik ma‘lumotlarga ko‘ra aholi ro‘yxatga olingan 1979-1989-yillar davomida davr oralig‘ida, respublikada aholi soni 15379,4 ming kishidan 19810,0 ming kishiga yoki 28,8 foizga ko‘paygan edi. Shu davrda aholining o‘rtacha yillik o‘sish ko‘rsatkichi 2,8 foizni tashkil qilgan. Mustaqillik arafasida esa respublikada aholi soni 20,7 million kishidan ortib ketgan edi<sup>1</sup>. Bu esa O‘zbekistonda aholining o‘sish sur‘atlari Ittifoq sur‘atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Aholining bunday o‘sishi uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko‘paytirish hamda aholining hayoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan qo‘shib olib borilmadi. Bu esa odamlarning turmush sharoitining yomonlashuviga, ishsizlar sonining ko‘payishiga, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishiga, shuningdek, xalq farovonligining pasayishiga olib keldi;

Ikkinchidan, sovet tuzumi davrida respublika iqtisodiyotining biryoqlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilishi tufayli qishloq xo‘jaligi bilan bir qatorda sanoatda ham asosan xom ashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustuvorlik qildi. Respublikada tayyor mahsulot, avvalo xalq iste‘moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ulushi juda past edi. Qishloq xo‘jaligi xom-ashyosining katta qismi (paxta tolasi, xom ipak va boshqa ko‘pgina xom-ashyo mahsulotlari) respublikadan olib ketilgan holda bir vaqtda aholining iste‘mol tovarlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun 8-9 milliard so‘mlikka yaqin tayyor mahsulot chetdan olib kelindi;

Uchinchidan, respublikada ishlab chiqaruvchi kuchlar va avvalo sanoat ob‘ektlari asosan stixiyali ravishda, aniqrog‘i, har xil o‘zboshimchalik, buyruqbozlik bilan qabul qilingan qarorlar asosida, ko‘pincha ilm-fan vakillari, bilimli va tajribali mutaxassislarning tavsiyalari mutlaqo e‘tiborga olinmay joylashtirildi. Bu esa respublika iqtisodiyotiga hamda aholi manzilgohlarning ekologiyasiga nihoyatda katta ziyon yetkazib, aholining ijtimoiy ta‘minotiga, odamlarning yashashi uchun zarur sharoitlarni yaratishga salbiy ta‘sir o‘tkazdi; To‘rtinchidan, respublikadagi ijtimoiy ahvolning nochorligi, aholining ijtimoiy ta‘minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsiz ahvoldaligi bilan bog‘liq edi. Tadqiq etilayotgan davrda qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta‘minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suvi bilan ta‘minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta‘minlanishi 17 foizni tashkil etardi. Aholini uy-joy, sog‘liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat ob‘ektlari, maktablar, bolalar bog‘chalari va hokazolar bilan ta‘minlash ishlarida bu davrda sezilarli siljishlar ko‘zga tashlanmadi. Masalan, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy

<sup>1</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 474- фонд, 1- рўйхат, 61-иш, 25-варақ

mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o'rinni, daromad darajasi, ya'ni asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan eng oxirgi o'rinlardan birini egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston Ittifoqdagi o'rtacha darajadan 2 barobar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha 2,5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2,5 barobar, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o'rta hisobda go'sht mahsulotlari, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'moli bo'yicha 2 barobar orqada edi.

Urushdan keyingi yillarda Markaz asosiy e'tiborini mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashga qaratdi. Aholining turmush darajasini yaxshilash masalalariga byudjet mablag'larini ajratishda qoldiq prinsipi qo'llandi. Uning mohiyati shundan iborat ediki, ishlab chiqarish uchun sarf qilinishi zarur bo'lgan harajatlardan qolgan mablag'lar ijtimoiy dasturlarga ajratilar edi. Eng asosiysi paxta yakkahokimligining o'rnatilishi mamlakat aholisini yanada mushkul ahvolga solib qo'ygan edi. 1956-yilga qadar kolxozchilar davlat pensiyasi va nafaqalaridan foydalanish huquqidan mahrum edi. Pensiya va nafaqalar miqdori juda kam edi. Respublikada o'rganilayotgan davrda maishiy xizmat ko'rsatish sohasida erishilgan daraja aholi talabiga javob bermasdi. Masalan, 1960-yili respublikadagi 5,4 ming maishiy xizmat ko'rsatish korxonalaridan faqat 2 mingga yaqini qishloqlarda joylashgan edi. Ularning aksariyatini esa 1-2 nafar usta ishlaydigan, maxsus bino va zarur sharoitga ega bo'lmagan poyabzal ta'mirlash ustaxonalari, sartaroshxonalar tashkil qililar edi. Qishloq va posyolkalarda xizmat ko'rsatish asosan ko'chma, sayyor usulda tashkil etilgan edi.

Shu bilan birga respublikada turar-joy muammosi ham dolzarb bo'lib qolayotgan edi. XX asrning 60-yillarda respublikada turar-joy qurilishi urushdan keyingi o'n yilikka nisbatan ikki yarim baravar o'sdi. Biroq bu uylarning yarmidan ortig'i aholi tomonidan qurilgan bo'lib, davr talabiga javob bermas edi. Bundan tashqari kolxoz yoki sovxozlarda ish bilan band bo'lmagan aholining uy-joy bilan ta'minlanishi mumkin emas edi. Masalan, 1961-yil 12-avgustda SSSR Ministrlar Soveti "Sovxozlarga qarashli uylardagi turar joy maydonidan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"<sup>1</sup>gi qaror qabul qildi. Ushbu qarorga ko'ra, sovxozlarga qarashli yerlardagi uy-joy maydonini shu sovxozda ishlayotgan shaxslarga berish ta'qiqlandi. Sovxozlarning direktorlari, bo'lim boshqaruvchilari, agronomlari, zootexniklari va veteranariya vrachlari esa sovxozda xizmat qilib turgan vaqtlarida foydalanishlari uchun sovxozlarga qarashli uylardan ularga kvartiralar ajratildi. Ammo ular ishdan bo'shagach ushbu uylar olib qo'yilar edi. O'rganilayotgan davrda Respublikaning barcha hududlarida qishloq aholisi uchun uy-joylar ishlari ancha kengaydi. Masalan,

<sup>1</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви, 719-фонд, 1-руйхат, 34-иш, 200-варақ

1960-1965-yillar davomida Surxondaryo oblastida ham reja asosida 120 ming kv. km turar joy binolari qurilishi belgilangan edi. Bu davrda oblastda 12 ta oʻrta maktab va 8 ta maktabgacha yoshdagi bolalar bogʻchasi, 4 ta madaniy-maishiy va 6 ta sogʻliqni saqlash obektlari foydalanishga topshirildi<sup>1</sup>. Shuni ham qayd qilish kerakki, yangi yerlarni oʻzlashtirish jarayonida oblastda ham turar joylar, maktab, bogʻcha, kasalxona, maishiy xizmat koʻrsatish korxonalarini, dala shiyponlarini qurish surʼati nisbatan jonlandi. Ammo, aksariyat yangi kolxoz va sovxozlarda, posyolkalar ichimlik suvi, kanalizatsiya va markaziy isitish tizimi umuman taʼminlanmagan edi. 1970-1980-yillar oxirida respublika qishloq aholi punktlari 80 %dan ortiqrogʻi vodoprovod suvi bilan taminlanmagan edi. Qishloqlarda oqova suvlarni tozalash inshootlari quvvatidan 40 % dan kamroq foydalanilardi, xolos. Bu hol tozalanmagan suvlar, maishiy chiqindilarning asosiy qismi ochiq havzalarga, yer osti chuqurlariga yoki yer ustiga oqizilishiga olib kelar edi. Yuqorida keltirilgan bir necha sabablar tufayli qishloq aholisining maishiy turmushida oziq-ovqat turlarining kamligi, suv taʼminoti, turar-joy muammosi, tibbiy xizmat kabi muammolar keskinlashib ketgan edi. Bundan tashqari respublikada paxtadan koʻproq hosil olish maqsadida aholining barcha qatlami majburiy qishloq xoʻjalik mehnatiga jalb qilingan edi. Qishloq joylarda mehnat sharoitlarining yaxshi emasligi ham koʻplab muammolarni keltirib chiqardi. Dehqonlarning tomorqa uchastkalari qisqartirilib, ularga ham paxta ekilardi. Paxtakorlarning farzandlarning aksariyati kimyoviy zaharli moddalar sepilgan dalalarda ishlardi. Oqibatda, qishloqda turli epidemiyalar kuchayib bordi<sup>2</sup>. Ayollarning ham qishloq xoʻjalik mehnatiga jalb qilinishi bolalarning qarovsiz qoldirilishiga yetarlicha eʼtibor berilmasligiga olib keldi. Aslida qishloqlarda bolalar uchun mavsumiy yasli va bogʻchalar tashkil etilgan boʻlsada, ularning holati talabga javob bermas edi. Kerakli jihozlar bilan taʼminlamaganligi va oziq-ovqat zaxirasining kamligi bolalar ahvolini yanada qiyinlashtirardi.

1948-yil 19-aprelda SSSR Ministrlar Soveti “Kolxozlarda mehnatni tashkil qilishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va uni tartibga solish tadbirlari toʻgʻrisida” qaror qabul qildi<sup>3</sup>. Bu qaror jamoa xoʻjaligi aʼzolarining mehnatiga haq toʻlash tartibini nisbatan yaxshiladi. Shuningdek, SSSR Ministrlar Sovetining 1949-yil 4-fevralda qabul qilgan “Kolxoz va sovxozlarda paxtachilikni rivojlantirish toʻgʻrisida”gi qarori ham qishloq iqtisodiyotini mustahkamlash va xoʻjaliklarning daromadini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви, 719-фонд, 1-рўйхат, 49-иш, 150-варақ

<sup>2</sup> Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даври. – Т.: Шарқ, 2000. –563 бет

<sup>3</sup> Сборник руководящих материалов по колхозному строительству. – Москва, 1949, – С .234-236.

<sup>4</sup> Развитие сельского хозяйства в послевоенные годы (1946-1970 гг) – Москва, 1972. – С.189.

1953-1955-yillarda kolxozchilarga avans berish tizimini tartibga solish sohasida ma'lum siljishlar bo'ldi. 1956-yil 6-martda KPSS MK va SSSR Ministrlar Soveti "Kolxozchilarga har oyda avans berish va kolxozchilar mehnatiga haq va qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi qarorni qabul qildi<sup>1</sup>. Shu qarorga asosan qishloq mehnatkashlariga avans berish tartibi anchagina tartibga solindi. XX asrning 50-yillarning oxirlariga kelib kolxozchilarning o'rtacha ish haqlarida ham o'zgarishlar bo'ldi. Misol uchun Surxondaryo oblastining Sherobod rayonidagi S.M.Kirov nomli kolxoz 1956-yilda yalpi daromadni 4532 ming rublga yetkazib, shundan 890 ming rublini kolxozchilarga mukofot qilib berdi<sup>2</sup>. Lekin hali kolxozlarda mehnat haqiga pul bilan birga mahsulot bilan haq to'lash hollari ustuvorlik qilardi. Bu esa aholining bozor bilan bog'lanishiga, erkin xarid narxida o'z ehtiyoji uchun zarur mahsulotlarni sotib olishiga salbiy ta'sir qilardi. Ammo shunga qaramasdan aholining daromadi ma'lum darajada oshdi. Misol uchun 1958-yilda Surxondaryo oblasti Sherobod rayonidagi Sotsializm kolxosi a'zosi B.Cho'tboyev yil yakuniga ko'ra 42000 rubl pul, 36 sentenrg'alla oldi.

Bu 1956-yildagiga nisbatan 10200 rubl ko'p edi, yoki Jarqo'rg'on rayonidagi Lenin nomli kolxoz a'zosi Rayim Boynazarovning oilasi 40950 rubl xo'jalik hisobida daromad oldi<sup>3</sup>.

1958-yilda kolxozchilar oilalarining yalpi daromadida shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining salmog'i 35,5 foizga teng bo'lsa, 1962-yilga kelib bu ko'rsatkich 45,4 foizga yetdi, lekin ijtimoiy xo'jalik ishidan olinadigan tushumlarning ulushi kamayib 53,5 foizdan 41,7 foizga tushib qoldi<sup>4</sup>.

Qolaversa paxta yakka hokimligi sharoitida iqtisodiyotning xom ashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi, qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan xarid narxlarining nihoyatda pastligi qishloq aholisi moddiy ahvoliga, hamda aholining oziq-ovqat va boshqa kundalik mahsulotlar bilan ta'min etilishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Respublikada 1970-yilda qishloq mehnatkashlariga bir kunda 4 rublu 24 tiyin bo'lgan bo'lsa, 1982-yilga kelib bu ko'rsatkich 5 rubl 64 tiyin tashkil etdi<sup>5</sup>.

1958-yilning oxirlariga kelib respublika sovxozlarida maydoni 31800 kvadrat metr keladigan 737 ta uy qurib bitkazildi, bundan tashqari qiymati 70 ming rubl bo'lgan madaniy maishiy va boshqa ijtimoiy ob'ektlar barpo etildi<sup>6</sup>. Shunga qaramay qishloqlarda uy-joy qurilishini tashkil etilishi bir qadar ziddiyatli kechdi. Qurilish

<sup>1</sup> Развитие сельского хозяйства в послевоенные годы (1946-1970 гг.). – Москва, 1972, – С. 291.

<sup>2</sup> Сурхондарё вилояти давлат архиви. 446-фонд, 1-ёзув, 137-иш, 232-варақ.

<sup>3</sup> Сурхондарё вилояти давлат архиви. 446-фонд, 1-ёзув, 137-иш, 336-варақ.

<sup>4</sup> ЎзМА 1619-фонд, 4-рўйхат 4006-иш, 79-варақ.

<sup>5</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР в 1982 г. – С. 219.

<sup>6</sup> ЎзМА 837-фонд, 32-рўйхат 7049-иш, 4-варақ.

materiallari va quruvchi mutaxassislarining yetishmasligi ishning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli uy-joy qurilishi bilan bog'liq rejalar muntazam tarzda barbod bo'lib bordi. O'rganilayotgan davrda qurilgan uylarning aksariyati sifatsiz tarzda qurilgan edi. Surxondaryo oblastning Sovetobod sovxozida 1965-yilda sovxoz ishchilari uchun 36 ta uy qurilgan. Lekin qurilgan uylarning pol qismi yo'q, xatto deraza oynalari ham yo'q edi. O'sha yili yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli uylarning tom qismidan tinimsiz suv o'tib turgan.<sup>1</sup> Masalan, 1965-1966-yillarda respublikaning sovxozlar sektorida uy-joylar qurish rejasi atigi 38 foizga uddalashdi<sup>2</sup>. Urushdan keyingi yillarda kolxozlarga uy-joy qurilishi uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar miqdori ham nihoyatda kam edi. Oqibatda kolxozchilar uy-joy muammosini o'zlari hal etishga majbur edi. Biroq aholi daromadlarining pastligi, qurilish materiallarining yetishmasligi sababli qishloqlarda uy-joy qurish cheklangan tarzda olib borildi. Bu esa uy-joy taqchilligiga olib keldi. XX asrning 40-yillarining oxirlari va 50-yillarning boshlarida qishloqda bir kishiga 3,5 kvadrat metrdan kamroq uy-joy maydoni to'g'ri kelardi<sup>3</sup>. Shunga qaramasdan XX asrning 50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab uy-joy qurilishini tashkil etishda ham muayyan burilish yasaldi. Bunga bir tomondan KPSS Markaziy Komitetining 1953-yil sentyabr plenumidan keyin agrar siyosatning ijtimoiy jihatlariga e'tibor berila boshlashi sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mamlakat siyosiy rahbariyatining uy-joy muammosini hal qilishga doir strategik yondoshuvda bo'lgan o'zgarishlar jarayoni ham sabab bo'ldi. Chunonchi, 1957-yilda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti "SSSRda uy-joy qurilishini rivojlantirish to'g'risida" qaror qabul qildi<sup>4</sup>. Natijada qishloqlarda ham uy-joy qurilishi sezilarli tarzda kuchaydi. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish natijasida Surxondaryo oblast qishloqlarining ham qiyofasi ancha o'zgardi.

Tog'li hududlar aholisini yangi o'zlashtirilayotgan yerlarga ko'chirish ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1955-yil 12-sentyabrida "Surxondaryo oblasti "Beshqo'ton" massivi yerlarini o'zlashtirish uchun yordam ko'rsatish haqida" qaror qabul qildi. Qarorga muvofiq 1956-yilga qadar bu erga 800 ta xo'jalikni ko'chirish va ularni uy-joy bilan ta'minlash vazifasi belgilandi<sup>5</sup>.

Sherobod cho'llarida qo'riq yerlarni o'zlashtiruvchilar uchun posyolkalar qurish va yangi yerlarni o'zlashtirish ishlari olib borildi. 34,4 ming gektar yer o'zlashtirilib,

<sup>1</sup> Эшбоев Туробдан 2008 йилда ёзиб олинган маълумот.

<sup>2</sup> ЎзМА 1610-фонд, 1-рўйхат 366-иш, 22-варақ

<sup>3</sup> ЎзМА 1741-фонд, 1-рўйхат 150-иш, 53-варақ.

<sup>4</sup> Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам (1917-1975 гг) (Сборник документов за 50 лет). – Москва: Политиздат. 1967. – С.328.

<sup>5</sup> Халиков И. История орошения и поливного земледелия в Сурхан-Шерабадской долине. – Тошкент: «Фан». 1977. – С.105.

"Yangiobod", "Komsomolobod", "Sovetobod", "A.Nabiyev", "Lenin", "Oxunboboev" sovxozlari tashkil etildi.

Shu davrda sovxoz ishchi xodimlari uchun 147 ming kvadrat metr bo'lgan turar joy binolari foydalanishga topshirildi. Surxondaryo oblast partiya komitetining 1958-yil 20-fevraldagi "Ko'chirilgan xo'jaliklarni uy-joy bilan ta'minlash" to'g'risidagi 81-sonli qaroridan kelib chiqib hamda Angor rayoni xalq deputatlari Kengashining 1958-yil 8-martdagi qaroriga asosan 1957-yilda Angor rayoniga ko'chib kelgan 50 ta xo'jalikning 60 foizi uy-joy bilan ta'minlandi va bularga 300 rubldan ssuda berildi<sup>1</sup>. 1958-yil 25-iyulda ana Angor rayoni "Qizil Yulduz" kolxozining umumiy yig'ilishi qarori bilan Boysun rayonining Sayrob qishloq kengashiga qarashli "Voroshilov" nomli kolxozidan ko'chirilgan 28 xo'jalik Qizil Yulduz kolxoziga joylashtirildi<sup>2</sup>.

Sherobod cho'lida 1962-yili 2 ming gektar, 1963-yili 8 ming 56 gektar, 1964-yili 3 ming 662 gektar, 1965-yili 66 ming 700 gektar, 1966-yili 4 ming 40 gektar, 1967-yili esa 6 ming 600 gektar yangi yer komplekslari o'zlashtirilib, shundan 2 ming 100 gektarida 6-7-sonli "Lenin", "Oxunboboev" nomidagi sovxozlari tashkil etildi. 1966-1970-yillarda esa Surxon-Sherobod vohasida 42 ming gektar yer o'zlashtirildi<sup>3</sup>.

1969-yil mart oyida Sherobod cho'li hududida hozirgi Muzrabot rayoni, 1975-yilda esa hozirgi Qiziriq rayonlari tashkil topdi. Og'ir sharoitlarga qaramasdan mazkur yillarda Sherobod rayon Xalq maorifi tarmoqlari ham samarali faoliyat yuritdi. Mazkur yillarda rayonda 36 ta o'rta maktab joylashgan bo'lib, ularda hudud mehnatkashlarining 14 mingga yaqin bolalari ta'lim-tarbiya olishdi<sup>4</sup>.

Yangi tuzilgan Gagarin rayoniga Sherobod rayonidagi to'rtta sovxoz, Termiz rayonidagi "Iskra" sholichilik kolxozini birlashtirildi<sup>5</sup>.

1976-yil 11-iyunda Surxondaryo oblasti ijroiya komiteti "Ko'chib kelgan yangi xo'jaliklarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni jadallashtirish to'g'risida"gi qarorlarining bajarilishi asnosida Sho'rchi rayonidagi Paxtakor sovxoziga, Gagarin rayonidagi Sholikor sovxozlariga ko'chirib keltirilgan 986 oilaga 108868 so'm 61 tiyin miqdorida mablag' ajratildi<sup>6</sup>. Shuningdek, Gagarin rayonida 13 ta oilaning, Sherobod rayonida 12 oilaning ichimlik suvi bilan ta'minlash imkoniyati yaxshilandi.

1959-yili Boysun rayoni ijroiya qo'mitasining №7/16 qaroriga muvofiq yangi tashkil etilayotgan "Yangiobod" sovxoz Darbanddan – 50, To'dadan – 40, Inkobodan – 10, Do'g'oba va Qo'rg'oncha qishloqlaridan – 60 xo'jalik, ya'ni jami 300 xo'jalik

<sup>1</sup> Сурхондарё вилояти давлат архиви. 474- фонд, 1- рўйхат, 68- иш, 3- varaқ.

<sup>2</sup> Сурхондарё вилояти давлат архиви. 474- фонд, 1- рўйхат, 68- иш, 4- varaқ.

<sup>3</sup> Халиков И. История орошения и поливного земледения в Сурхан-Шерабадской долине. – Т.: Фан, 1977. 407 с.

<sup>4</sup> Бойқулов М. Шерободлик маърифат фидойилари. – Қарши: Насаф, 2003 йил. 11-бет.

<sup>5</sup> Турсунов С.Н, Қобилов Э.О. ва бошқалар. Сурхондарё тарихи. – Т.: Шарқ, 2004. 404- бет.

<sup>6</sup> Ленин байроғи. 1976 йил. 12 январ.



ko'chirildi<sup>1</sup>. 1960-yilga kelib, Surxon vohasida yangi yerlarni o'zlashtirish, Sherobod cho'llarini yoppasiga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga kiritish borasida ham muhim ishlar qilindi. 1961-yil 9-fevraldagi O'zbekiston SSR hukumatining "Surxon suv ombori bazasida Surxondaryo havzasidagi yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish bo'yicha tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan 1962-yili 2-paxtachilik xo'jaligi bo'lgan "Komsomolobod" xo'jaligi tashkil etildi<sup>2</sup>. Shuningdek 1965-yilda Zang kanali qurilishi bilan Beshqo'ton massiviga suv keldi. Natijada bu yerda "Yangiobod", "Komsomolobod", "Sovetobod" sovxozlari bunyod etildi. Tashkil etilgan xo'jaliklarda turli millat vakillari mehnat qildi. V.Esikov, V.Anoxin, Mashrab Atakov, Malin Botirov, Kuzmin Bodrix kabi va boshqa ko'plab odamlar elkama-yelka turib mehnat qildilar. Sherobod cho'lini o'zlashtirishda dastlab sherobodliklar, boysunliklar mehnat qilgan bo'lsalar, asta-sekinlik bilan ularning qatori boshqa millat vakillari bilan to'lib bordi. Leningrad, Yerevan, Mogadan, Qozon, Kuybishev shaharlaridan, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Moldova respublikalaridan kelgan ishchilar hisobiga to'lib bordi. Natijada, Sherobod cho'lida 14 ta sovxoz tuzildi<sup>3</sup>. Surxondaryo oblastida

1965-yil hisobida tashkil etilgan yangi sovxozlar, shaharchalar barpo etilishi uchun 62 million rubldan ko'proq mablag' sarflandi<sup>4</sup>.

1965-yil Surxondaryo oblastining Yangiobod, Komsomolobod, Sovetobod sovxozlarida turar joylar barpo etish maqsadida Qozog'iston Respublikasidan kelgan turli xil mutaxassisliklar bo'yicha 200 dan ortiq quruvchilar faoliyat olib bordi. Ularning mehnati natijasida 168 ming kv.km. uy-joy qurilib, 1867 ta ishchi va mehnatkashlarning oilasi yangi uy-joy bilan ta'minlandi<sup>5</sup>. Surxon-Sherobod cho'llarida yangi o'zlashtirilgan yerlarda 75 ta millat va ellat vakillari istiqomat qildi<sup>6</sup>.

Qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilashning asosiy sharti-bu turar-joy, kommunal hamda maishiy xizmat sohasi ishlarini yaxshilashdan iboratdir.

Qishloqlarda uy-joy maydonlarining kengayishi bilan aholi yashash sharoitini shahar sharoitiga yaqinlashtirish imkoniyati tug'ildi. Cho'lni obod qilish uchun eng avvalo suv zarur bo'lsa, ikkinchi navbatda odamlar uchun boshpana - uy-joy muammosini hal qilish vazifasi turardi. Natijada Beshqo'tonda barcha qulayliklarga ega bo'lgan qishloqlar qad ko'tardi, asosiy ishlar - yerni o'zlashtirish ham, uy-joy qurish ham bir vaqtning o'zida amalga oshirildi. O'sha paytda rayonda 10 ga yaqin

<sup>1</sup> Сурхондарё вилояти ДА. 474- фонд, 1- рўйхат, 90- иш, 30- varaқ.

<sup>2</sup> Турсунов С.Н, Қобилов Э.О. ва бошқалар. Сурхондарё тарихи. – Т.: Шарқ, 2004. 402- бет.

<sup>3</sup> Чўлда ҳаёт қайнамоқда // Ленин байроғи. 1965. 12 январ.

<sup>4</sup> Ўша манба.

<sup>5</sup> Ленин байроғи // 1965 йил, 13-феврал.

<sup>6</sup> Ташпулатов Х. Сотрудничество народов СССР в орошении и освоении новых земель на юге Узбекистана (1971-80 гг.). Автореф.дисс.канд.ист.наук. – Т., 1987 год. – С.16.

qurilish tashkilotlari bo'lib, ular asosan madaniy-maishiy ob'ektlar, maktablar, ma'muriy binolar, uy-joy qurilishi bilan shug'ullanishdi. Bu yerda 7-, 8-, 9-, 10-mexanizatsiyalashgan ko'chma jamlanmalar va boshqa qurilish tashkilotlari faoliyat yuritishdi. Qurilish tashkilotlarga bosh bo'lgan Vahob Mahmudov, Normengli To'rayev, Abdusattor Hayitov, Vahob Samadov, Normo'min Erاليyev, Abduraim Abdurahmonovlar boshchilik qilishdi. 1969-yili rayonda 400 ta telefon nuqtasi bo'lgan bo'lgan ATS ishga tushirildi<sup>1</sup>. Gagarin rayoni tashkil topganda uning markazi "Komsomolobod" sovxozini edi. Bu yerda rayon tashkilotlari uchun biror bir ma'muriy bino yo'q edi. Asosiy e'tibor qurilishga qaratildi. Keyingi o'n yillikda o'nlab maktab va bog'chalar, 2 ta hunar-texnika bilim yurtlari binolari qad rostladi<sup>2</sup>.

Qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi bilan tibbiy xizmatga ehtiyoj oshdi. 1964 yilda Komsomolobod va Yangiobod sovxozlarida 50 o'ringa mo'ljallangan qishloq uchastka shifoxonalari tashkil qilindi. Bu uchastka kasalxonalarida Boyzoq Umrzoqov, Rajab Himmatov, Muhtarama Rashidova, Roza Xolyarova, Boyto'ra Isoqovlar vrach bo'lib ishlaganlar. 1967-yilda "Sovetobod", A.Nabiyev nomli sovxozlarida ham 50 o'ringa mo'ljallangan qishloq uchastka shifoxonalari ishga tushirildi.<sup>3</sup>

1967-yilda Komsomolobod sovxozida yangi 120 o'ringa mo'ljallangan qishloq uchastka shifoxonasi qurib bitkazilib, kasalxona yangi binoga ko'chirildi. Bu kasalxonaga bosh vrach etib Rajab Himmatov tayinlandi. 1968-yildan boshlab Komsomoloboddagi uchastka shifoxonasi Sherobod rayoni zonal kasalxonasiga aylantirildi. Avvaliga bu yerda aholiga pediatriya, terapiya, tish kasalliklari bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatilib kelingan bo'lsa, 1968-yildan boshlab jarrohlik, ginekologik, asab kasalliklari bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatila boshladi. 1968-yilda xirurgiya bo'limiga Jarqo'rg'on rayonidan kelgan vrach Xolmo'min Xudoynazarov rahbarlik qila boshladi va jarrohlik xizmatini tashkil qildi.<sup>4</sup>

1969-yildan boshlab Gagarin rayoni tashkil qilinishi munosabati bilan Komomolobod zonal kasalxonasi 150 o'rinli rayon kasalxonasiga aylantirildi va bosh vrach etib Sherobod rayon markaziy kasalxonasidan G'affor Normurodov tayinlandi, u 1978-yil aprel oyigacha shu lavozimda ishladi. So'ngra Sharif Raupov, Do'stmamat Sheraliyev, Narzullo Xolmatovlar kasalxona bosh vrachi bo'ldi.

O'rganilayotgan davrda tibbiyot muassasalari soni ko'paydi, ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, malakali mutaxassislar bilan ta'minlandi. O'sha

<sup>1</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви, 719-фонд, 1-рўйхат, 34-иш, 200-варақ

<sup>2</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 474 фонд, 1 рўйхат, 61иш, 25-варақ

<sup>3</sup> Ленин байроғи // 1965 йил, 13-феврал.

<sup>4</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви, 719-фонд, 1-рўйхат, 34-иш, 201-варақ

paytlarda Gagarin rayonida faoliyat yuritayotgan 5 ta tibbiyot muassasalarida 37 nafar vrach, 150 nafar o'rta meditsina xodimi faoliyat yuritdi.<sup>1</sup>

O'rganilayotgan davrda Lenin yo'li rayoni aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 38 % edi, ya'ni 2679 xonadondan 822 xonadon toza ichimlik suvidan foydalandi. Istara sovxoz markazidagi 1, 2, 4, 6-uchastkalari va 2-posyolka aholisining 30 foizga yaqini ichimlik suvi bilan ta'minlangan edi. Bundan tashqari Shreder va Toshkent sovxozlarining aholisi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan edi.<sup>2</sup>

O'rganilayotgan davrda Lenin yo'li rayonida 63 km davlat yo'li 121 km ichki yo'llar mavjud bo'lib, shu rayonning Istara sovxozda 1 ta istirohat bog'i va 1 ta stadion mavjud edi<sup>3</sup>.

Lenin yo'li rayonidagi A.Hidoyatov nomli 14 maktab yonidan 320 o'rinli qo'shimcha maktab, Toshkent sovxozda 417 o'rinli o'rta maktab binosi va 1 ta feldsher-akusherlik binosi, Shreder xo'jaligidagi 2-qo'rg'onda savdo markazi, 5 ta yashash uyi, markaziy ta'mirlash ustaxonasida dam olish zonasi, ma'muriy bino qurilish ishlari yo'lga qo'yildi.<sup>4</sup>

1971-1975-yillarda 165-Surxonstroy birlashmasi yangi o'zlashtirayotgan Surxon-Sherobod cho'l hududida 80 ming kv-m, uy-joy, 1928 o'quvchiga mo'ljallangan maktab, 600 o'rinli bolalar bog'chasini qurib ishga tushirdi<sup>5</sup>.

1982-yilda Qosim Raximov sovxozda 400 o'ringa mo'ljallangan qishki klub, 200 o'rinli yozgi klub, 8-uchastkada 50 o'rinli bolalar bog'chasi, 3-uchastkada 3 km. suv quvuri, 3 km. yo'l, 2 ta ko'prik, 700 ta telefon tarmog'iga mo'ljallangan stansiya, 10 ta yashash uyi, do'kon, 1-, 5- hamda 8-uchastkalarda 95 o'rinli 3 ta bolalar bog'chalari qurildi hamda sovxoz markazidagi stadion sport kompleksiga aylantirildi va 2-qo'rg'onda umumiy yotoqxona qurildi.<sup>6</sup>

Rayon tashkil etilgan davrdan aloqa tizimini tashkil etishga alohida e'tibor berildi, jumladan, 1975-yilda 5 ta pochta bo'limlari, 3 ta telefon stansiyasi, 320 ta telefon tarmoqlari, 337 ta radio nuqtalari mavjud edi. 1975-yilda 49555 kv metr uy-joy binolari, 3 ta maktab binosi, 2 ta bolalar bog'chasi, 2 ta hammom va 400 o'rinli qishki klub binolari qurish bilan boshlandi. 1990-yilga kelib rayonda madaniy maishiy binolar qurilishiga alohida e'tibor berilib, 9725 kv metrdan ziyodroq uy-joy binolari uy-joy qurildi. Aholiga yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun yer berilib bu yerlarda 28739 kv metr uy-joy qurildi.

<sup>1</sup> Ш.Орипов, Х.Шоймардонов "Яшнаётган Музработ" Қ., «Насаф», 2009, 32-33-34-35-бетлар.

<sup>2</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 474 фонд, 1 рўйхат, 89иш, 112-варақ

<sup>3</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви, 719-фонд, 1-рўйхат, 74-иш, 100-варақ

<sup>4</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 474 фонд, 1 рўйхат, 56иш, 37-варақ

<sup>5</sup> Ленин байроғи 1975 йил, май.

<sup>6</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви, 719-фонд, 1-рўйхат, 98-иш, 312-варақ

1975-yilda Lenin yo‘li rayondagi Markaziy shifoxonadagi o‘rinlar soni 120 tadan 220 o‘ringa yetkazildi. 2 ta vrachlik ambulatoriyasi, 1 ta bo‘lim shifoxonasi, 1 ta sanatoriya epidemilogiya stansiyasi 32 ta felrsherlik, akusherlik markazi 1 ta dorixona ochildi. Ushbu tibbiyot muassasalarida aholining sog‘lig‘ini saqlash borasida 38 vrach, 100 tadan ortiq turda tibbiyot xodimlari faoliyat ko‘rsatdi.<sup>1</sup>

1980-yilga kelib, Rayonda 1 ta markaziy shifoxona va 4 ta shifoxona bo‘limlari, 2 ta qishloq ambulatoriyasi, 40 ta feldsher akusherlik tibbiyot punktlari, 5 ta dorixona, 1 ta tez yordam ko‘rsatish nuqtasi va 1 ta sanitariya-epidologiya stansiyasi mavjud edi. Rayonda 1990-yilga kelib, 615 o‘rinli 5 ta shifoxona, 48 ta feldsherlik akusherlik nuqtalari, 8 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 8 ta dorixona bo‘lib, 106 oliy ma‘lumotli shifokorlar, 336 ta o‘rta maxsus tibbiyot xodimlari xizmat qildi<sup>2</sup>.

1980-1989-yillarda Surxon-Sherobod cho‘llarida tashkil etilgan yangi rayonlarda turli xil kasalliklar soni 4,8 marta, bolalar kasalligi 2,8 marta, kattalar kasalligi 2,2 marta, go‘daklarning sut tishi chirishi kasalliklari 2 marta, engil fegoroza kasalligiga chalinish 8,8 martaga qadar o‘sdi<sup>3</sup>. Shu yillarda tug‘ma kasalliklar soni ham ko‘paydi. 1984-yilda 700 bola tug‘ilgan bo‘lsa, shundan 72 tasi tug‘ma kasallikka duchor bo‘ldi. 1988-yilda esa 800 bola tug‘ilib, 50 tasi tug‘ma kasallikka chalindi, 80 tasi esa o‘lik holatda tug‘ildi<sup>4</sup>.

Xullosa qilsak, Surxon-Sherobod cho‘llarini o‘zlashtirish jarayonida anchagina katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Ushbu ishlarning samarasi sifatida 14 ta paxtachilik, 1 ta bog‘dorchilik, 1 ta sholichilik, 1 chorvachilik sovxozlari tashkil etildi. Ushbu hududlarda juda ko‘plab aholi turar joylari, maishiy binolar, shifoxonalar qurilib aholiga topshirildi. Bu qurilishlar mintaqaning infra tuzilmasini o‘zgartirishda muhim rol o‘ynadi. Ko‘plab aholi ish bilan ta‘minlandi. Cho‘l o‘rnida obod qishloqlar va posyolkalar paydo bo‘ldi. Ammo, aholini tabiiy gaz, toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tarmoqlarini yotqizish masalalari o‘z echimini topdi. Qurilgan ko‘pgina inshootlar temir-beton konstruksiyalar asosida bunyod etilib, qurilishda mintaqaning tabiiy hududi iqlimi inobatga olinmadi. Bunday uylar ko‘pincha yozda issiq, qishda sovuq bo‘lardi. Aholiga ko‘rsatilgan maishiy xizmat turlarining miqdori va sifati ham nihoyatda past darajada edi. Aholining yillik daromadlari mehnatga yarasha emas edi. Shuning uchun ham mintaqa aholisining ijtimoiy turmush sharoiti hamon og‘irligicha qolayotgan edi.

<sup>1</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 474 фонд, 1 рўйхат, 87-иш, 25-варақ

<sup>2</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви, 719-фонд, 1-рўйхат, 34-иш, 120-варақ

<sup>3</sup> “Ёш Ленинчи”. 1990 йил 13-январ.

<sup>4</sup> “Ёш Ленинчи”. 1990 йил 13-январ.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474- fond, 1- ro‘yxat, 61-ish, 25-varaq
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 719-fond, 1-ro‘yxat, 34-ish, 200-varaq
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 719-fond, 1-ro‘yxat, 49-ish, 150-varaq
4. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davri. – T.: Sharq, 2000. –563 bet
5. Сборник руководящих материалов по колхозному строительству. – Москва, 1949, – С .234-236.
6. Развитие сельского хозяйства в послевоенные годы (1946-1970 гг) – Москва, 1972. – С.189.
7. Развитие сельского хозяйства в послевоенные годы (1946-1970 гг). – Москва, 1972, – С .291.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 446-fond, 1-yozuv, 137-ish, 232-varaq.
9. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 446-fond, 1-yozuv, 137-ish, 336-varaq.
10. O‘zMA 1619-fond, 4-ro‘yxat 4006-ish, 79-varaq.
11. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1982 г. – С. 219.
12. O‘zMA 837-fond, 32-ro‘yxat 7049-ish, 4-varaq.
13. Turob Eshboyevdan 2008-yilda yozib olingan ma’lumot.
14. O‘zMA 1610-fond, 1-ro‘yxat 366-ish, 22-varaq
15. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам (1917-1975 гг) (Сборник документов за 50 лет). – Москва: Политиздат. 1967. – С.328.
16. Халиков И. История орошения и поливного земледелия в Сурхан-Шерабадской долине. – Тошкент: «Фан». 1977. – С.105.
17. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 474- fond, 1- ro‘yxat, 68- ish, 3- varaq.
18. Халиков И. История орошения и поливного земледелия в Сурхан-Шерабадской долине. – Т.: Фан, 1977. 407 с.
19. Boyqulov M. Sherobodlik ma’rifat fidoyilari. – Qarshi: Nasaf, 2003 yil. 11-bet.
20. Tursunov S.N, Qobilov E.O. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. – T.: Sharq, 2004. 404- bet.
21. Cho‘lda hayot qaynamoqda // Lenin bayrog‘i. 1965. 12 yanvar.
22. Ташпулатов Х. Сотрудничество народов СССР в орошении и освоении новых земель на юге Узбекистана (1971-80 гг.). Автореф.дисс.канд.ист.наук. – Т., 1987 год. – С.16.
23. Sh.Oripov, X.Shoymardonov “Yashnayotgan Muzrabot” Q., «Nasaf», 2009, 32-33-34-35-betlar.
24. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474 fond, 1 ro‘yxat, 89ish, 112-varaq
25. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 719-fond, 1-ro‘yxat, 74-ish, 100-varaq
26. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474 fond, 1 ro‘yxat, 56ish, 37-varaq
27. Lenin bayrog‘i 1975 yil, may.
28. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 719-fond, 1-ro‘yxat, 98-ish, 312-varaq
29. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474 fond, 1 ro‘yxat, 87ish, 25-varaq
30. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 719-fond, 1-ro‘yxat, 34-ish, 120-varaq
31. “Yosh Leninchi”. 1990-yil 13-yanvar.

**TABLE OF CONTENTS**

<b>Sr. No.</b>	<b>Paper/ Author</b>
1	<b>Atoyeva Dilsora Odilovna. (2023). TOG'OLDI TUPROQLARI KOLLEMBOLALARNING TAKSONOMIK TAHLILI. Innovative development in educational activities, 2(12), 4–8. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8102492">https://doi.org/10.5281/zenodo.8102492</a></b>
2	<b>Омонова Н.Р, Рахматуллаев А.Ю, &amp; Нарзуллаева Д.Г. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ҲУДУДЛАРИДА ТАРҚАЛГАН КСИЛОФАГ ҲАШАРОТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ ЧОРА – ТАДБИРЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Innovative development in educational activities, 2(12), 9–15. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8102510">https://doi.org/10.5281/zenodo.8102510</a></b>
3	<b>Karajanova Roza, &amp; Rakhimboev Muzaffar. (2023). FAMILY BUSINESS DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: FEATURES AND CHALLENGES. Innovative Development in Educational Activities, 2(12), 16–26. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8102518">https://doi.org/10.5281/zenodo.8102518</a></b>
4	<b>Boboyev Omonxon Muhammadiyevich. (2023). MILLIY MUSIQA SAN'ATI VA YOSHLAR TARBIYASI. Innovative development in educational activities, 2(12), 27–29. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8102541">https://doi.org/10.5281/zenodo.8102541</a></b>
5	<b>Azizov Yorqin Samiyevich. (2023). MUSIQA – TA'LIM VA TARBIYA VOSITASI. Innovative development in educational activities, 2(12), 30–34. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8102553">https://doi.org/10.5281/zenodo.8102553</a></b>
6	<b>Мурадов Мухитдин Кадирович. (2023). ВСЕСТОРОННЕ РАЗВИТОЙ ЛИЧНОСТИ СРЕДСТВАМИ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА. Innovative development in educational activities, 2(12), 35–38. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8102581">https://doi.org/10.5281/zenodo.8102581</a></b>
7	<b>Hamdamova Kamola Luqmonjon qizi. (2023). WAYS TO PRACTICE ORAL SPEAKING SKILLS. Innovative Development in Educational Activities, 2(12), 39–42. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8102592">https://doi.org/10.5281/zenodo.8102592</a></b>

8

Ачилдиева Нигора Бахтиёровна. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ В МИРОВОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.

Innovative development in educational activities, 2(12), 43–47.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8102600>

9

Q. Yusupova. (2023). MUNIS VA OGHIY IJODIDA LINGVOPOETIK UYG'UNLIK. Innovative development in educational activities, 2(12), 48–52.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8102602>

10

Q.Yusupova, & A.O'rozboyev. (2023). OGHIY TARIXIY ASARLARIDA TAJNISI MUHARRAF VA SAJ' HOSIL QILISHDA LUG'AVIY

IMKONIYATLAR. Innovative development in educational activities, 2(12),

53–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102608>

11

Mamazova Zarifa Kurbanovna. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMIDA

TALABALARDA HUQUQIY KOMPETENSIYANI

RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI. Innovative development in educational activities, 2(12), 57–62. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102620>

12

Barnoeva Nilufar Yoqubovna. (2023). THE EFFICIENCY OF CORPUS LINGUISTIC IN TEACHING GRAMMAR. Innovative Development in

Educational Activities, 2(12), 63–65. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102630>

13

Bazarov Sherali Abdinazarovich. (2023). URXUN-YENISEY YOZUVI.

Innovative development in educational activities, 2(12), 66–71.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8102659>

14

Алимханова Шохида Хожиакбаровна. (2023). НАУЧНЫЕ АСПЕКТЫ ОПАТОРСКОГО ИСКУССТВА. Innovative development in educational

activities, 2(12), 72–77. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102664>

15

Ибрагимова Муаттар Илхамовна. (2023). ФРАЗЕОЛОГИЯ -

САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ДИСЦИПЛИНА.

Innovative development in educational activities, 2(12), 78–84.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8102671>

16

Qutfiddinov Shamsiddin Kamoliddin o'g'li. (2023). TRAFIKNI AQLLI BOSHQARISH: AI TEXNOLOGIYASI BILAN SVETOFOR TIZIMLARINI BOSHQARISH KUCHI. Innovative development in educational activities, 2(12), 85–89. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102675>

17

Noriyeva Aziza Jasur qizi. (2023). ISBOTLASHGA DOIR MASALALAR. Innovative development in educational activities, 2(12), 90–94. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102678>

18

Abduvohidov Dilshod Narbotirovich. (2023). XIX OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA PRAVOSLAV CHARKOVLARI QURILISHI TARIXI. Innovative development in educational activities, 2(12), 95–98. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102683>

19

Ziyayev Sherah Abdulaziz o'g'li. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "TARMOQ TEXNOLOGIYALARI" FANINI O'QITISHDA XORIJ TAJRIBASI. Innovative development in educational activities, 2(12), 99–105. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102689>

20

Sayfullayev Najibullo Hayriddin o'g'li. (2023). IJTIMOIIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. Innovative development in educational activities, 2(12), 106–111. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102691>

21

Teshaboyeva Mohigul Eldorjon qizi. (2023). IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI. Innovative development in educational activities, 2(12), 112–115. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102702>

22

Teshaboyeva Mohigul Eldorjon qizi. (2023). O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INFRAUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Innovative development in educational activities, 2(12), 116–119. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102711>

23

Xujayarov Ilyos Shiraliyevich, & Xafizova Shahnoza G'ulomovna. (2023). NUTQ SIGNALINI PARAMETRLASHNING MFCC ALGORITMI. Innovative development in educational activities, 2(12), 120–123. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102717>



24

**Shavqiyeva Maftuna Salimboy qizi. (2023). SINTAKTIK ALOQALAR HAMDA ULARNING LINGVISTIK TAHLILI. Innovative development in educational activities, 2(12), 124–127. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102722>**

25

**Shavqiyeva Maftuna Salimboy qizi. (2023). HOZIRGI O'ZBEK TILI SINTAKTIK ALOQALARINING LINGVISTIK TAHLILI. Innovative development in educational activities, 2(12), 128–132. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102730>**

26

**Embergenov Alisher Jumamuratovich, & Sag'inbaev Sultanbek Turdibay o'g'li. (2023). MINTAQA IQTISODIY SALOHİYATIDA IQTISODIY GEOGRAFIYA TUSHUNCHASI VA O'RNI. Innovative development in educational activities, 2(12), 133–136. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102733>**

27

**Мухтаров Шавкат Кадырович. (2023). ПРИНЦИПЫ И СИСТЕМА ПОКАЗАТЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. Innovative development in educational activities, 2(12), 137–145. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8102741>**

28

**Qulboshev Sirojiddin Jumayevich. (2023). YANGI TASHKIL ETILGAN GAGARIN (MUZRABOD) VA LENIN YO'LI (QIZIRIQ) RAYONLARIGA KO'CHIRILGAN AHOLINING IJTIMOİY AHVOLI VA MAISHIY TA'MINOTI. Innovative development in educational activities, 2(12), 146–157. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8124413>**